

**S.SH. JONIYEV,
H.A. XAYRULLAYEVA,
R.A. BOZOROVA**



**HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN
AMALIY KO'NIKMA VA
MUOLAJALAR**

O'QUV QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
SO'ZANGARON ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI
JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI**

**S.Sh. Joniyev., H.A. Xayrullayeva.,
R.A. Bozorova**



**HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN
AMALIY KO'NIKMA VA MUOLAJALAR**

O'quv qo'llanma

Tibbiyot texnikumlari
50910203 - Hamshiralik ishi yo'nalishidagi talabalar uchun



UO'K 614.253.5(075.8)

KBK 51.1ya73

J 77

S.Sh. Joniyev., H.A. Xayrullayeva., R.A. Bozorova.

Hamshiralik ishi fanidan amaliy ko'nikma va muolajalar [Matn]: o'quv qo'llanma / S.Sh. Joniyev., H.A. Xayrullayeva., R.A. Bozorova. – Samarqand : Samarqand. 2025. – 172 b.

Tuzuvchilar:

Joniyev S.Sh. – PhD, SamDTU Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrası assistenti

Xayrullayeva H.A. - So'zangaron Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi hamshiralik ishi fani yetakchi o'qituvchisi

Bozorova R.A. - So'zangaron Abu Ali Ibn Sino Nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi hamshiralik ishi fani yetakchi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Pardayev Sh.K. – t.f.n., SamDTU Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrası dotsenti

Yusupov A. S. – t.f.d., ToshPTI Fakultet bolalar xirurgiyasi, anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrası dotsenti,

Annotatsiya

Ushbu o'quv qo'llanmada amaliy ko'nikmalar algoritmi tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralik faoliyatiga oid amaliy dars mashg'ulotlari uchun qo'llanilishi mumkin.

ISBN 978-9910-688-77-5

© S.Sh. Joniyev., H.A. Xayrullayeva., R.A. Bozorova 2025-yil.

© Samarqand 2025-yil.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	5
Shartli qisqartmalar roʻyxati	6
KIRISH	7
1-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan asosiy hujjatlarni yuritish. Kasallik tarixini pasport qismini toʻldirish.....	8
2-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Tana biomexanikasi va bemorning xavfsizligini taʼminlash.	11
3-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Bemorning shaxsiy gigiyenasi.	17
4-Amaliy mashgʻulot mavzusi. Bemorlarni ovqantirishda hamshiralik parvarishi	29
5-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Bemorlarni fiziologik chiqaruvlaida hamshiralik parvarishi.	35
6-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Umumiy salomatlikni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash.....	37
7-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Hayot uchun zarur koʻrsatkichlarni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash.....	43
8-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Teri, limfa, sezish, harakat qilish va skelet tizimini baholash	56
9-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Nafas olish aʼzolari tizimini baholash uchun fizikal tekshiruvlar oʻtkazish.....	65
10-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Qon aylanish tizimini baholash uchun fizikal tekshiruvlar oʻtkazish.	69
11-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Ovqat hazm qilish tizimini baholash uchun fizikal tekshiruvlar oʻtkazish.....	78
12-Amaliy mashgʻulot mavzusi: Hamshiralik jarayonini tahlil qilish, parvarish rejasini tuzish	83
13- Amaliy mashgʻulot mavzusi: Hamshiralik jarayonini amalga oshirish, natijani baholash	88

14-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash va ishlashda texnika xavfsizligi	93
15-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Sterilizasiya o'tkazish va steril ashyolar bilan ishlash. Bog'lov ashyolarini va steril stolni tayyorlash	101
16-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Me'da ichak yo'llari muammolarida bemorlarga hamshiralik parvarishi.....	112
17-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Sun'iy ovqatlantirishda hamshiralik parvarishi.....	119
18-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Dori moddalarni qo'llash usullari dori moddalarini qabul qilish.....	129
MAVZULARGA OID TEST SAVOLLARI	152
Amaliy muolajalar ro'yxati	167
Foydalanilgan adabiyotlar	170

Soʻz boshi

Oʻquv qoʻllanma Tibbiyot texnikumlari "Hamshiralik ishi" yoʻnalishida taxsil olayotgan talabalari uchun moʻljallangan. Qoʻllanma talabalarga nazariy bilimlarini amaliyot davomida mustahkamlashda muhim oʻrin tutadi. Kursning asosiy maqsadi boshlangʻich nazariy va amaliy bilimlari asosida kasbiy faoliyatda bevosita qoʻllaniladigan bilim va koʻnikmalarni uzliksizligini taʼminlashdir. Hamshiralik jarayonida birinchi tibbiy yordam koʻrsatish va shoshilinch holatlarda tezkor choralar koʻrish muhim ahamiyatga ega: bemorlarda qisqa vaqt ichida ogʻir va hatto qaytarib boʻlmaydigan oʻzgarishlar rivojlanishi mumkin, shuning uchun tibbiy yordam tadbirlarining aksariyati darhol bajarilishi kerak.

Hamshiralik jarayonida ishni toʻgʻri tashkil etish bemorlarga shifokorlik yordam kelguniga qadar birinchi yordam koʻrsatishlari va uning hayotini saqlab qolishlari mumkin. Shu munosabat bilan Tibbiyot texnikumlarida tibbiy yordam jarayonida hamshiralik ishini faol tashkil etish uchun barcha sharoitlarni yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Har bir oʻrta tibbiyot xodimi tibbiy yordam koʻrsatish koʻnikmalariga ega boʻlishi lozim.

Hozirgi kunda bemorlarga tibbiy yordam davomida hamshiralik jarayonini tashkil etish koʻnikmalarini oʻrgatish uchun turli xil oʻquv qoʻllanmalar va darsliklardan foydalanilmoqda, biroq ularning aksariyati bir-biriga va zamonaviy tartib-qoidalariga mos kelmaydi. Shuningdek, hamshiralik jarayonini tashkil etish qoidalarini oʻrgatilishida ham turlicha adabiyotlar boʻlib, bu sohada yagona standartlar yoʻqligini koʻrsatadi. Hamshiralik jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlaridan biri ushbu yordamni koʻrsatish boʻyicha oʻrta tibbiyot xodimlariga bilim va malakalarni oʻqitishning yagona tizimini yaratishdir. Mualliflar qoʻllama boʻyicha bildirilgan barcha fikr va muloxazalarni qabul qiladi.

Shartli qisqartmalar ro'yxati

SSV	– Sog'liqni Saqlash Vazirligi
TT	– Tibbiyot texnikumlar
HJ	– Hamshiralik jarayoni
ATF	– Adenozintrifosfat
AQB	– Arterial qon bosimi
Add	– Diastologik arterial bosim
Ads	– Sistolik qon bosim
VAT	– Vegetativ asab tizimi
VKI	– Vegetativ Kerdo indeksi
YuDH	– Yurakning daqiqalik hajmi
ChQMI	– Chap qorinchaning mexanik ishi
UPQTQ	– Umumiy periferik qon-tomir qarshiligi
O'AQB	– O'rtacha arterial qon bosimi
YuI	– Yurak indeksi
TZ	– Triyodtironin
T4	– Tiroksin
TG	– Tireoglobulin
TTG	– Tireotrop gormon
YuZI	– Yurakning zarb indeksi
YuZH	– Yurakning zarb hajmi
MAT	– Markaziy asab tizimi
YuUS	– Yurak urish soni
ShI	– Algovera-Buri shok indeksi
QB	– Qalqonsimon bez
Hb	– Gemoglobin

KIRISH

Sizning e'tiboringizga hamshiralik ishi bo'yicha o'quv qo'llanma taqdim etiladi. Ushbu qo'llanma nafaqat o'quv kursi davomida foydalanish, balki hamshiralik jarayonini tashkil etishning nazariy asoslarini mustaqil o'rganish va takrorlash uchun ham mo'ljallangan.

Birinchi holatda, talabalar qo'llanmaga kursning boshida ega bo'lib, uni o'quv konspekti sifatida ishlatishlari mumkin. Shu bilan birga, ularga nazariy ma'lumotlarni doimiy ravishda yozib borish shart emas (u faqat qisqa qaydlar qilish yoki umuman yozmasligi mumkin), bu esa vizual ma'lumot va amaliy harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi. Bu tayyorgarlik sifati oshishiga yordam beradi hamda o'qituvchiga o'quv kursi uchun ajratilgan vaqtni samaraliroq ishlatish imkonini beradi.

Ikkinchi holatda, talaba fanni tugatgandan keyin bir muncha vaqt o'tib, qo'llanmadan foydalanib, ayrim nazariy jihatlarni takrorlashi mumkin. Bu esa nazariy bilimlarning uzoq muddat saqlanishiga va talabalarning hamshiralik jarayonini tashkil etishga doimo tayyor bo'lishiga yordam beradi.

Tibbiyot texnikumlarida, o'rta tibbiyot xodimalari hamshiralik jarayonini tashkil etish bo'yicha o'quv kursini o'tayotgan hollarda, ushbu qo'llanmani fan boshlanishidan bir necha kun oldin oldindan tarqatish mumkin. Shunda talabalar hamshiralik jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin. Bu esa o'qituvchiga amaliy mashg'ulot davomida nazariy darslarga ajratiladigan vaqtni tejash imkonini beradi, natijada mashg'ulotning umumiy davomiyligini qisqartirish yoki amaliy mashg'ulotlar vaqtini uzaytirish mumkin. Shu tariqa, ushbu fan bo'yicha o'qitish samaradorligi yanada oshadi.

Mazmunan, ushbu o'quv qo'llanma hamshiralik jarayoni tashkil etish huquqiga ega va/yoki majbur bo'lgan talabalarni o'qitish bo'yicha na'munaviy dasturga to'liq mos keladi hamda amaldagi tartib qoidalarda belgilangan hamshiralik jarayonini tashkil etish haqida to'liq ma'lumotni o'z ichiga oladi. Hamshiralik faoliyatida jarayonni tashkil etish choralari bajarilish texnikasini tushuntirish uchun qo'llanma tushunarli va aniq tasvirlar bilan boyitilgan. Qo'llanmaning tuzilishi kerakli ma'lumotlarni tez va oson topish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu o'quv qo'llanma hamshiralik ishi bo'yicha sifatli tayyorgarlik uchun qulay va foydali vosita hisoblanadi.

1-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan asosiy hujjatlarni yuritish. Kasallik tarixini pasport qismini to'ldirish.

Davolash profilaktik muassasalar(DPM) lar vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ✓ *Shifoxonalar*
- ✓ *Dispanserlar*
- ✓ *Ambulatoriya poliklinikalari*
- ✓ *Tibbiy tez yordam stansiyalari*
- ✓ *Onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari*
- ✓ *Qishloq vrachlik punkti*

Shifoxonaning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi

- ❖ *Qabulxona bo'limi*
- ❖ *Ma'muriy xo'jalik bo'limi*
- ❖ *Davolash bo'limi*
- ❖ *Dorixona*
- ❖ *Diagnostika (tashxis qo'yish) bo'limi*
- ❖ *Oshxona*

Dispanserlar – ixtisoslashtirilgan DPM bo'lib alohida guruhdagi bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan:

- ❖ *Sil kasalliklari dispanseri*
- ❖ *Onkologik kasalliklar dispanseri*
- ❖ *Teri tanosil kasalliklar dispanseri*
- ❖ *Kardiologik kasalliklar dispanseri*
- ❖ *Endokrin kasalliklar dispanseri*
- ❖ *Narkologik kasalliklar dispanseri*

Dispanser hamshirasining vazifalari:

- *Tibbiy hujjatlarni yuritish*
- *Ayrim guruh bemorlarga uyda patronaj o'tkazish*
- *Tashxis tekshiruvlarini o'tkazish*
- *Shifokor ko'rsatmalarini bajarish*
- *Sanitariya oqartiruv ishlarini olib borish*

Statsionarda yuritiladigan asosiy hujjatlar

O'quvchi bajarishi kerak: Statsionarda yuritiladigan asosiy hujjatlarni to'ldirishni

1. Bemorning kasallik tarixini
2. Bemorni qabul qilish va gospitalizatsiyadan bosh tortish kitobi

3. Bemorning kasalxonaga kelganligi va ketganligi to'g'risidagi daftar.

4. Dori-darmonlar, zaharli va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni sarflash daftari

5. Inventarlar daftari

6. Navbatchi hamshiralar va palata hamshiralari davolash daftari.

7. Bemorlarning harakati to'g'risidagi ma'lumot.

8. Kasalxonaga tushgan bemorni qayd etish kartasi.

9. Statsionarda turli ma'lumotnoma (spravka va yo'llanmalar).

10. Hozirgi yangi joriy etilishi mumkin bo'lgan hamshiralik tarixnomasi.

Kasallik tarixi bayonnomasining pasport qismini to'ldirish

Kasallik tarixi – bu yuridik hujjat bo'lib kasalxona shifokori tomonidan to'ldiriladi. Shu hujjat asosida davolash ishlarini nazorat qiluvchi kasalxona ma'muriyati, sud tibbiyoti xodimlari, patologoanatomlar, sog'liqni saqlash tizimining boshqa vakolatli organlari, moliyaviy faoliyatni tekshiruvchilar, huquqni himoya qiluvchi organlar: prokuratura, sud, erkin ekspertlar davolovchi vrach faoliyatiga baxo beradilar, xulosa chiqaradilar va lozim hollarda jinoiy javobgarlikka tortadilar.

Kasallik tarixi quyidagi qismlardan iborat:

• *Pasport qismi;*

• *So'rab-surishtirish (shikoyatlari, muayyan kasallikning tarixi (Anamnesis morbi), bemorning hayoti tarixi (Anamnesis vitae);*

• *Bemorning umumiy axvoli va obyektiv tekshirish usullaridan olingan natijalar (Status preasens);*

• *Lokal xolat (Status localis);*

• *Vaqtinchalik (predvaritelniy) diagnoz va uni asoslash;*

• *Klinik diagnozni asoslash;*

• *Davolash;*

• *Kundalik;*

• *Jarroxlikdan oldingi epikriz;*

• *Chiqarish epikrizi.*

Pasport qismi

Tarixning pasport qismida davolash muassasi va bo'limning nomi yoziladi. Ro'yxat jurnaliga mos tartib raqami qo'yiladi. Buni izoxlashga xojat bo'lmasa kerak.

Kasalning murojaat etgan vaqti sana, soat va daqiqa. Bu ko'rsatkich ham kasallik tarixining muhim punktlaridan biri bo'lib, daqiqalarigacha ko'rsatish ko'proq huquqni himoya qilish organlari uchun zarurdir.

Kasalning chiqarilgan vaqti.

O'rin-kunlar soni statistik xisoblar uchun zarur.

Bemorning familiyasi, ismi sharifi imkon bo'lsa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar asosida to'liq yozilishi kerak. Ayrim hollarda ismu-shariflari noto'g'ri yozilgan kasallik varaqalari, ma'lumotnomalar va boshqalar noxushliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ilgan vaqti – yoki aniqrog'i bolaning yoshi juda muhim. Siz bilasizki ayrim dori-darmonlar yoshiga qarab buyuriladi. Yoshiga qarab bemorning aqliy va jismoniy rivojlanishi baholanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning xatto necha kunligi ham katta ahamiyat kasb etadi (masalan: yangi tug'ilgan chaqaloqlarning fiziologik xolatlari o'tkinchi isitma, fiziologik sariqlik, turli hil tug'ma nuqsonlarning namoyon bo'lish vaqtlari).

Turar joy manzili ham aniq yozilishi kerak. Bu ma'lumot kasallikning tarqalishini epidemiologiyasi o'rganadigan tadqiqotchilar uchun zarur bo'lishi mumkin. Ayniqsa bolalarning manzillarini aniq yozish kerak. Ba'zida bolalarning kasalxonadan ko'chish xolatlari kuzatilgan va noaniq manzil berilgani uchun ancha ovoragarchilik bo'lganini aytishimiz mumkin. Kasallik tarixida bolalarning uy telefonlarini, ota-onasining ish joyi telefonlarni, kasbi va lavozimlarni qayd qilish davolovchi shifokorlar ishini yanada osonlashtiradi. Ayrim hollarda ota-onalar bilan maslaxatlashish kerak bo'ladi.

Yuborgan tibbiy muassasa nomi. Ayrim hollarda tashkiliy xulosalar chiqarish uchun, yuborgan muassasa yoxud bemor biriktirilgan tibbiyot maskani ish faoliyatiga baho berish uchun zarur.

Pasport qismining to'g'ri to'ldirilishiga qabulxonadagi shifokor javobgar hisoblanadi.

Poliklinik xizmat muassasalarida yuritiladigan hujjatlar

O'quvchi bajarishi kerak: poliklinik xizmat muassasalarida yuritiladigan hujjatlarni yuritishni.

1. Ambulatoriya daftari
2. Almashinuv daftari
3. Mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotganlik varaqasi
4. Yuqumli kasalliklar va o'tkir zaxarlanish aniqlanganda yoki bunga shubha qilinganda.
5. Shifokorlik – mehnat ekspert komissiyasiga jo'natiladigan varaqa, sanatoriya-kurort kartasi
6. Har bir uchastka hamshirasi va patronaj hamshiraning alohida daftari.

2-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Tana bi mexanikasi va bemorning xavfsizligini ta'minlash.

Bemorni Fauler vaziyatida yotqizish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorni Fauler vaziyatida yotqizishni

Kerakli jihozlar: krovat, ko'rpa va yostiqlar, oqliklar

Fauler vaziyatida bemor yarim yotgan va yarim o'tirgan holatda bo'ladi. Bu vaziyatga bemor quyidagicha yotqiziladi.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Karavotni gorizantal holatga keltirish lozim.
2. Karavotning bosh tomonini 45° - 60° burchak ostida ko'tarish kerak (bu holatda bemor o'zini qulay sezadi, nafas olishi va atrofdagilar bilan muloqot qilishi yengillashadi.)
3. Bemor boshini quruq to'shakka yoki past yostiqqa qo'yishi lozim (bunda bo'yin mushaklarining bukilish kontrakturasining oldi olinadi)
4. Bemor qo'llarini mustaqil harakat qildirsa olmasa, ularning tagiga yostiq qo'yishi kerak (yelka chiqishi va muskullar kontrakturasining oldini olish uchun)
5. Bel sohasiga yostiq qo'yish lozim (Umurtqaning bel sohasidagi zo'riqishi kamayadi)
6. Sonlar tagiga bolishchalar qo'yish kerak (tizzalar orqasidagi arteriyasi qisilishining oldini olish uchun)
7. Boldirning pastki qismiga bolishchalar qo'yish kerak (tovon to'shakka uzoq bosilishining oldini olish uchun)
8. Oyoq panjalari tagiga 90° burchak ostida tayanch qo'yish kerak (oyoq panjalari osilib qolishining oldini olish uchun)



Bemorni chalqancha yotqizish





O'quvchi bajarishi kerak: bemorni chalqancha yotqizishni

Kerakli jihozlar: krovat, ko'rpa va yostiqlar, oqliklar

Bemorni majburiy chalqancha yotqizish ishi quyidagicha bajariladi.
Kam harakat darmonsiz holatda yotgan bemorning:

Muolajani bajarish algoritmi

1. O'rniga gorizontal holat beriladi
2. Beliga yumaloqlab o'ralgan sochiq qo'yiladi
3. Boshi, bo'yni va yelkasi aralash kichikroq yostiqlik qo'yiladi (bu holatda bo'yin umurtqalari kontrakturasining oldini olinadi)
4. Sonlarning tashqi tomoniga uzun bolish qo'yiladi (masalan, choyshabdan rulon yasaladi) va shu bilan sonlarning tashqariga aylanishining oldini olinadi.
5. Bemorning pastki qismiga bolish qo'yiladi (tovonlar yotoq yarasining oldini olish uchun)
6. Oyoq panjalari tagiga tayanch qo'yiladi
7. Bemor qo'l panjalarining ichki tomonini pastga qaratib gavgdaga parallel holda joylashtiriladi, bilaklar tagiga kichikroq yostiqlik qo'yiladi.
8. Bemor qo'llariga bolishchalar beriladi (bunda barmoqlar yoyilib ketmaydi).



Bemorni qorin bilan yotqizish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorni qorin bilan yotqizishni

Kerakli jihozlar: krovat, ko'rpa va yostiqlar, oqliklar

Yotoq yaralarning oldini olishda bemorning vaziyatini tez –tez almashtirib turish lozim. bunday vaziyatlardan biri – qorin bilan yotishidir.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor karavoti gorizantal holatga keltiriladi.
2. Boshidan yostiq olib qo'yiladi.
3. Bemor qo'lini tirsak bo'g'imida yoyib, gavdasiga yaqinlashtirib, qo'l panjasini soni tagiga qo'yib qo'li ustidan qorniga ag'darib qo'yiladi.
4. Bemor karavot o'rtasiga suriladi
5. Bemor boshini yonboshlatib, tagiga yostoq qo'yiladi.
6. Qornining tepa qismiga yostiq qo'yiladi (bu moslama bel sohasidagi va ko'krak bezlaridagi zo'riqishni kamaytiradi)
7. Bemorning qo'llarini bukib tepaga shunday ko'tarish kerakki qo'l panjalari boshining yonida bo'lsin.
8. Qo'llari tagiga kichikroq yostiqlar qo'yiladi.
9. Tovonlar tagiga bolishchalar qo'yiladi.



Bemorni Sims vaziyatida yotqizish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorni Sims vaziyatida yotqizish

Kerakli jihozlar: krovat, ko'rpa va yostiqlar, oqliklar

Sims vaziyati – qorin va yonboshda yotishning oraliq vaziyati

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor yotgan karavotning bosh tomoni tushuriladi
2. Bemor chalqancha yotqiziladi
3. Bemorni yonboshlatib qo'yib va qisman biroz qorni bilab yotqiziladi (o'ringa bemor qornining bir qismi tegib turadi)
4. Bemor boshiga yostiq qo'yiladi (bunda uning bo'yni egilib qolmaydi)

5. Bemor yuqoriga qo'lini 90^0 burchak ostida tirsakdan va yelkadan buklash uchun qo'li ostiga yostiq qo'yiladi, pastki qo'l bukilmagan holda o'rinda bo'ladi (shunda gavdaning to'g'ri biomexanikasi saqlanib qoladi)
6. Yuqorigi buklangan oyoq tagiga yostiq qo'yiladi (bunda pastki oyoqning boldiri, sonning pastki qismi yoziladi)
7. Oyoq panjalariga 90^0 burchak ostida tayanch o'rnatiladi.



Trendelburg vaziyatida yotqizish

O'quvchi bajarishi kerak: Trendelburg vaziyatida yotqizishni

Kerakli jihozlar: funksionalni krovat, oqliklar

Trendelburg vaziyati maxsus vaziyat bo'lib, bemor shok vaqtida va chanoq operatsiyalarida yotqiziladi.

Nemis olimi Fredrix Trendelburg (1844-1924) tomonidan kashf qilingan. Bu vaziyat 1885- yildan boshlab tibbiyotda keng qo'llanilgan.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Trendelburg vaziyati uchun operatsion stolni qiya qilib tayyorlanadi.
2. Bemorni 45^0 burchak ostida boshga nisbatan chanoq qismini yuqoriga ko'tariladi
3. Bemorni oyoqlarini tizzasidan 45^0 - 50^0 bukib, pastga siljib ketmasligi uchun oyoqlaridan oqlib bilan bog'lanadi.
4. Bemorni chap qo'li yon tomonga qo'yiladi
5. O'ng qo'lini bukib inyeksiya qilish uchun tayyorlanadi.



Eslatma: Agar bemorni arterial qon bosimi baland bo'lsa, qorin bo'shligida assit, qon, yiring yoki kistoma kuzatilsa Trendelburg vaziyatida yotqizish mumkin emas

Bemorlarni transportirovka qilish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorlarni transportirovka qilishni

Piyoda:

1. kasallik tarixini qo'lingizga oling;
2. bemorni bo'lingacha kuzatib boring;
3. kasallik tarixini bo'lim hamshirasi qo'lga topshiring.

Katalka yoki zambilda:

Kerakli jihozlar: katalka, choyshablar, odevalo, dezinfeksiyalovchi eritma, maxsus sochiq

1. choyshabni katalkaga to'shang;
2. bemorni katalkaga yotqizing;
3. bemor ustini odevalo bilan yoping;
4. bemorni bo'limga olib borib, kasallik tarixini bo'lim hamshirasiga topshiring.

Kreslo – katalkada:

Kerakli jihozlar: kreslo-katalka, choyshablar, odevalo, dezinfeksiyalovchi eritma, maxsus sochiq;

1. choyshabni kreslo-katalkaga to'shang;
2. kreslo-katalkaning maxsus oyoq tagligini oyoq bilan bosib turib bemorni o'tkazing;
3. bemor ustini odevalo bilan yoping;
4. bemorni bo'limga olib boring;
5. kasallik tarixini bo'lim hamshirasiga topshiring;
6. kreslo-katalkaga ishlov bering.

Dezinfeksiya: katalka, kreslo-katalka, zambillarni 2 marta (15 minut oraliq bilan) 3% li xlorli ohak eritmasida namlangan maxsus sochiq bilan artib, so'ngra toza suvda namlangan maxsus sochiq bilan artib chiqing.

Izoh: bemorni bo'limga transportirovka qilish usulini shifokor belgilaydi.





3-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Bemorning shaxsiy gigiyenasi.

Terini gigiyenik parvarish qilish

O'quvchi bajarishi kerak: terini gigiyenik parvarish qilishni

Kerakli jihozlar: zararsizlantiruvchi eritma, iliq suv, osh qoshiq, spirt, sochiq. *Muolajani bajarish algoritmi*

1. Zararsizlantiruvchi eritmani tayyorlang (0,5 l iliq suvga 1-2 osh qoshiq sirka kislotali solinadi, spirtidan foydalaniladi).


2. Sochiqning bir uchini zararsizlantiruvchi eritmada ho'llang.

3. Ozinga siqib tashlang.

4. Nam sochiq bilan bo'yin, quloqlar orqasi, ko'krak qafasi, qo'ltiq chov burmalari, sut bezlari ostini arting, so'ng terini quruqlab arting.

Eslatma: Og'ir ahvoldagi bemorlar terisi parvarishi hamshira tomonidan tushagida kuniga ikki marta amalga oshiriladi.


Yotoq yaralar holatini baholash va oldini olish



SamDTU

axborot-resurs markaz

Yotoq yaralar holatini baholash



Norton shkalasi

Yotoq yaralar holatini baholash ko'rsatkichlari					
Jismoniy holat	Ruhiy holat	Jismoniy faollik	Harakatchanlik	Peshob tutolmaslik	Umumiy ball
A'lo-1 O'rta-2 Qonqarli-3 Juda yomon-4	Hushi aniq-1 Apatiya-2 Karaxtlik-3 Stupor-4	Begona yordamisiz-1 Begona yordamida harakatlanish-2 Nogironlar aravacha-sida harakatlanish-3 Bemor harakatsiz-4	To'liq-1 Sust-2 Chegaralangan-3 Juda chegaralangan-4 (harakatsiz)	Kuzatilmaydi-1 Ba'zan-2 Vaqti-vaqti bilan kuzatiladi-3 Siydik va axlat tutolmaslik-4	
Ismi, sharifi, sana					
	3				

* 15-20 xavf yuqori emas 12-15 o'rta darajali 12 yuqori darajali xavf

Vaterlou shkalasi

Tana tuzilishi (vazni tananing bo'yga nisbati) O'rtacha -0 O'rtadan yuqori-1 Semirish-2 O'rtadan past-3	Harakatlanish To'liq-0 Bezovtalik-1 Apatiya-2 Chegaralangan-3 Inert-4 Harakatsiz-5	Alohida xavf omillari Teri oziqlantirishning buzilishi-8 Masalan, terminal kaxiksiyada Yurak yetishmovchiligi-5 Periferiya qon tomirlar Kasalliklari-5 Kamqonlik-2 Chekish-1
Peshob va axlat tuta olish To'liq tuta oladi Naycha orqali ajraladi-0 Vaqti vaqti bilan tutolmaydi-1 Naychadad axlat tutolmaslik-2 Siydik va axlat tutolmaslik-3	Jins/yosh Erkak-1 ayol-2 14-49: 1 50-64: 2 65-72: 3 75-80: 4 81 yoshdan katta: 5	Nevrologik o'zgarishlar Masalan, diabet Ko'plamchi skleroz Insult, harakat va sezish paraplegiyasi 4-6
Teri turi Teri ahvolini visual baholash Sog'lom-0, quruq-1 Shishgan-1 Yopishqoq (harorati ko'tarilgan)-1 Rangi o'zgargan-2 Yorilishlar/dog'lar-3	Ishtaha O'rtacha-0 Yomon-1 Nazogastral zond Faqat suyuqlik Ovqatni og'iz orqali qabul qilolmaslik Anoreksiya-2	Hajm jihatdan katta jarrohlik muolajalari/jarohat Ortopedik-beldan pastki qism, umurtqa pog'onasi-5 jarrohlik stolid-2 soatdan ortiq yotish-5
10 ball – xavf sohasida 15 ball – yuqori xavf sohasida 20 ball – juda yuqori xavf sohasida		Dori- darmonlar steroidlar, sitotoksik moddalar – 4 Yallig'lanishga qarshi dori vositalarini katta miqdorda qo'llash

Breyden shkalasi

Sezuvchanlik	1. to'liq chegara- langan	2. juda chegara- langan	3. chegaralanish qisman	4. buzilish yo'q	
Namlik	1. juda nam	2. nam	3. bazan nam	4deyarli kuzatilmaydi	
Jismoniy faollik	1. bemor harakatsiz	2.nogironlar arava-chasida harakat-lanadi	3.ba'zan o'zi yuradi	4.harakat chegara- lanmaydi	
Harakatchanlik	1. harakat- siz	2. juda chegara- langan	3.chegara- lanish qisman	4.chegara- lanish yo'q	
Ovqatlanish	1. juda yomon 3. yaxshi	2. yetishmaysi 4. a'lo darajada			
Ishqalanish va kesuvchi kuch	1. muammolar bor	2. muammolar paydo bo'lish ehtimoli bor	3. yaqqol muammo yo'q		
Umumy ball					

*16 balldan past hollarda maxsus individual parvarish rejasi tuziladi

I-II darajali yotoq yaralarni davolash

O'quvchi bajarishi kerak: I-II darajali yotoq yaralarni davolashni

Kerakli jihozlar: antiseptik eritma (kamfora spirti, sirkali suv, yarim spirtli eritma, odekolon, aroq) yoki xona haroratidagi qaynatilgan suv, salfetka, lotok, yotoq yaralariga qarshi rezina halqalari.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Hosil bo'lgan yotoq yaralar sohasini oching.
3. Salfetkani eritmada yoki suvda ho'llab siqing.
4. Aylana harakatlar bilan yengil qizarish paydo bo'lgunga qadar terini uqalang. (salfetkalarni almashtirib turing).
5. Bemor kiyimini tekislab yozing.
6. Yotoq yaralarga qarshi rezina halqani bemor ostiga tegishli soxalarga qo'ying.
7. Bemorni qulay joylashtiring.

Eslatma:

- a) Muolajani xar 2-3 soatda bajaring
- b) II- darajali yotoq yaralarda yuqoridagilardan tashqari UFN bilan ishlov beriladi.



I daraja II daraja

III- IV darajali yotoq yaralarni davolash

O'quvchi bajarishi kerak: III- IV darajali yotoq yaralarni davolashni.

Kerakli jihozlar: steril lotok, bog'lov materiallari, steril pinset, antisaptik eritma (kaliy permanganatning 5 – 10% li eritmasi, 70% spirt, 1:5000 furasillin, vodorod peroksidning 3% li eritmasi, brilliant yashili), steril skalpel, kleol yoki leykoplastir.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Muolaja vaqtida shifokorga yordam berib turing.
3. Ishlatilgan anjomlarga ishlov bering.



III daraja

IV daraja

Eslatma: I- darajali yotoq yaralarda regenerasiyani kuchaytiruvchi vositalar va antibakterial surtmalar tayyorlab quyting.

Gigiyenik vanna o'tkazish

O'quvchi bajarishi kerak: gigiyenik vanna o'tkazishni

Kerakli jihozlar: vanna qabuli uchun to'plam: bulutcha, sovun, cho'tka, suv termometri, taxta taglik, choyshab, sochiq, toza kiyim kechak

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorni oldindan o'tkazilgan muolaja xaqida ogohlantiring uning ahvolidan habardor bo'ling.
2. Qo'llaringizni yuving, quriting.
3. Fartuk, niqob va qo'lqoplarni kiying.
4. Vanna xonasidagi havo haroratini aniqlang.
5. Vannaga xloraminning 1% li eritmasi bilan 5-10 minut oraliqda 2 marta ishlov bering.
6. Vannani chotka va sovun yoki boshqa yuvuvchi bilan tozalab, issiq suv bilan chaying.
7. Vannani sovuq suv bilan keyin issiq suv bilan to'ldiring.
8. Bemorga vannada qulay joylashishga yordam bering. Suv xanjarsimon usimta sathigacha yetishi kerak.
9. Bemor oyoqlari ostiga taxta taglik qo'ying.
10. Bemorni mochalka va sovun yordamida yuving: avval boshini, keyin tanasini va oyoq – qo'llarini.



11. Iliq suv bilan chayintiring.
12. Bemorga vannadan chiqishiga va sochiq bilan artinishga yordam bering.
13. Bemorni kiyintiring va palatasiga kuzatib qo'ying.
14. Vanna va vanna anjomlariga ishlov bering.
16. Bemor kasallik tarixiga muolaja xaqida belgi qo'ying.

Gigiyenik dush o'tkazish

O'quvchi bajarishi kerak: gigiyenik dush o'tkazishni

Kerakli jihozlar: mochalka, sovun, vannaga ishlov berish uchun tuplam, vanna uchun o'rindiq, sochiq, toza kiyim kechak.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Vannani va o'rindiqlarni iliq suv bilan chaying.
3. Bemorni vannani ichida o'rindiqqa o'tqazing.
4. Bemorni mochalka va sovun yordamida yuvintiring.
5. Bemorga vannadan chiqishga yordam bering.
6. Bemorga artinishga va kiyinishga yordam bering.
7. Bemorni palatasigacha kuzatib qo'ying.
8. Vanna va dush anjomlariga ishlov bering.
9. Ifloslangan kiyim – kechaklarni yig'ib oling va maxsus xonaga olib boring.



Tanani tozalash

O'quvchi bajarishi kerak: tanani tozalashni

Kerakli jihozlar: Sochiq 2 ta, katta sochiq 2 ta, sochiqcha 2 ta yuz uchun, adyol, suv uchun idish, ko'za, lagancha 7 ta, plyonka suv o'tkazmaydigan, sovun, issiq suv 55⁰-60⁰ S, sovuq suv

Muolajani bajarish algoritmi

1. Yuz, ko'z, quloq, burun sohalari
2. Bo'yin.
3. Yelka, bilak, qo'l, sohalari (barmoq, tirnoq, tirsak)
4. Qo'litiq osti sohalari.
5. Ko'krak qafasi

6. Qorin sohasi
7. Oyoq (son, boldir, tovon, barmoqlar, tirnoq)
8. Ko'krak umirtqasi, bel umirtqasi
9. Dumg'aza
10. Jinsiy a'zolar artiladi.



Bemor oqliqlarini almashtirish

Agar bemorga yotoq rejim belgilangan bo'lsa (bemorga o'rnida o'girilishga ruxsat berilgan)

O'quvchi bajarishi kerak: bemor oqliqlarini almashtirishni

Kerakli jihozlar: toza choyshab, yostiq jildlari, ifloslangan o'rin to'shagini yig'ib olish uchun sellofan xalta.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Toza choyshabni uzunasiga yarmigacha o'rab boring.
2. Bemor boshini ohista ko'taring va yostiqni olib tashlang.

3. Bemorni yon boshiga yotqizib o'rin chetiga suring.
4. Ifloslangan choyshabni uzunasi bo'ylab bemorga tomon yo'nalishda o'rab boring.
5. To'shakning choyshabdan bo'shagan joyga o'ralgan choyshabni to'shang, bemorni orqasiga yotqizing, so'ngra boshqa yonboshiga (toza choyshab ustiga) yotqizing.
6. Ifloslangan choyshabni olib tashlang va toza choyshabni yozib yuboring.
7. Choyshab chetlarini matras ostiga qayirib qo'ying.



Agar bemorga qat'iy yotoq rejim belgilangan bo'lsa, (bemorni iloji boricha ehtiyotkorlik va yumshoqlik bilan o'girish mumkin)

O'quvchi bajarishi kerak: Bemor oqliqlarini almashtirishni

Kerakli jihozlar: toza choyshab, yostiq jildlari, ifloslangan o'rin to'shagini yig'ib olish uchun sellofan xalta.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Toza choyshabni bintga o'xshatib ko'ndalangiga o'rab qo'ying.
2. Bemor tanasining yuqori yarmi beligacha ko'taring.
3. Yostiqni olib tashlang.
4. Ifloslangan choyshabni tezda o'rinning bosh tomonidan o'rab oling va bo'shagan joyga toza choyshabni to'shang.
5. Toza choyshab ustiga yostiqni qo'ying va bemorni yotqizing.
6. Bemor tanasining pastki yarmini, so'ngra oyoqlarini ko'taring. Ifloslangan choyshabni olib tashlang va toza choyshabni yozib yuboring.
7. Bemor tanasining pastki yarmi va oyoqlarini tushiring.
8. Choyshab chetlarini matras ostiga qayiring.
9. Yostiq va ko'rpa jildlarini oldindan almashtiring.
10. Ifloslangan to'shakni yig'ib oling va kirxonaga olib boring.

Bemorga o'rin to'shash

O'quvchi bajarishi kerak: bemorga o'rin to'shashni

Kerakli jihozlar: tumbochka, krovat oldi devori, krovatga ishlov berish uchun xloraminning 1% li eritmasi, matras, matras gilofi, ikkita yostiq, ko'rpa (mavsumga qarab yengil yoki issiq), suvqog'oz, 2 ta toza yostiq jildi, choyshab, ko'rpa jildi.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Krovat, tumbochka, krovat oldi devorini 15 minut oraliq bilan xloraminning 1% li eritmasi bglan 2 marta ishlov bering.
3. G'ilofiga solingan matrasni krovatga qo'ying va suv qog'ozni to'shang.
4. Ustidan choyshab to'shang (choklari va yamoqlari bo'lmasligi kerak) va chetlarini matras ostiga qayirib qo'ying.
5. Yostiqlarga jildlarini kiydiring.
6. Pastki yostiqni to'g'ri-qo'ying, yuqorigisini bir oz balandroq (krovat suyanchig'iga tiralib turishi kerak) qo'ying.
7. Ko'rpaga jildini kiydiring.
8. Krovat suyanchig'iga ikkala sochiqni ilib qo'ying.



Bemor kiyim – kechaklarini almashtirish

O'quvchi bajarishi kerak: bemor kiyim – kechaklarini almashtirishni

Kerakli jihozlar: toza kiyim-kechak, ifloslangan kiyim-kechakni yig'ib olish uchun sellofan xalta.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Bemor tanasining yuqori qismini oxista ko'taring va ko'ylagini belidan bo'ynigacha yig'ib oling.
3. Bemor qo'llarini yelka sathigacha ko'taring.
4. Ko'ylakni boshi orqali yechib oling.
5. Yenglarini qo'lidan yechib oling.
6. Toza ko'ylakni quyidagi tartibda kiydiring:

Avval yenglarini, so'ngra boshi orqali kiydiring va bemor tanasida yozib yuboring. Bemor kiyim-kechagini almashtirish jarayonida ehtiyot bo'ling.

Eslatma:

- a) agar bemor qo'li shikastlangan bo'lsa, ko'ylakni avval sog'lom qo'lidan so'ngra shikastlangan qo'lidan yechib olinadi;
- b) agar bemor qo'li shikastlangan bo'lsa, ko'ylakni avval shikastlangan qo'lga, so'ngra sog'lom qo'lga va boshi ustidan kiygiziladi, gavdasi bo'ylab yozib yuboriladi.



4-Amaliy mashg'ulot mavzusi. Bemorlarni ovqantirishda hamshiralik parvarishi

Bemorlarni ovqatlantirishga tayyorlash va ularga qulay sharoit yaratib berish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorlarni ovqatlantirishga tayyorlash va ularga qulay sharoit yaratib berishni

Kerakli jihozlar: lotok, poilnik, salfetka, fartuk, qoshiq, piyola, sachuq

1. Ovqatlantirishga xonani tayyorlang (xona havosi tozalanadi, dorilar olib chiqiladi).



2. Bemorni ovqatlantirishga tayyorlang bemorni 90° burchak ostida o'tirg'izing, qulay o'tirishi uchun tirsak ostini ozgina buking va ostiga yostiqchalar qo'ying.



90° burchak ostida o'tira olmaydigan bemorni 30° burchak ostida o'tqizing.

3. Bemorga fartuk bog'lang yoki sochiq tuting.



Ovqatlanish jarayonida bemorga yordam berish

O'quvchi bajarishi kerak: ovqatlanish jarayonida bemorga yordam berishni

Kerakli jihozlar: sho'rva, qoshiq, fartuk, salfetka

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira ko'zi bilan bemor ko'zi bir tekislikda bo'lishi kerak



2. O'zingizga qulay vaziyatni egallang (o'ng qo'l bo'lsangiz, bemorning o'ng tomonidan; chapay bo'lsangiz bemorning chap tomonidan turing).



3. Bemor ko'ra oladigan joyga ovqatlarni qo'ying. Birinchi ovqatni sho'rva berish yoki suv ichirishdan boshlang.



4. Suyuq ovqatlar berilganda bemor boshini orqaga tashlash mumkin emas.



5. Og'izga ovqatni kam – kamdan solib, til ustiga qo'ying.



6. Ovqatlantirishda bemorni yutishini kuting va nimani yeyishini hohlashini so'rang.



7. Qoshiqni bemor og'zini yopgach oling.



8. Og'iz ichida ovqat qoldiqlarini qolganligini tekshiring.



9. Bemor og'zi atrofi va ichini tozalang, tish protezlari bo'lsa oling.



10. Fartukni yeching.



11. Bemorni qulay joylashtiring, boshini sal ko'taring.



12. Yegan ovqatlarini tekshiring.



Parhez asosida taomnoma tuzish

O'quvchi bajarishi kerak: parhez asosida taomnoma tuzishni

Kerakli jihozlar: kasallik tarixi, porsionnik toza blankalari

Muolajani bajarish algoritmi

1. Kasallik tarixida belgilangan parhezlarni yozib oling.
2. Palata raqami, bemor ismi sharifi, belgilangan parhez taomnomasi, qo'shimcha ovqatlanishlarni yozib talabnomani to'ldiring.
3. Porsionnikni katta hamshiraga bering.

Eslatma: a) porsionnikni post hamshirasi beradi; b) porsionnik har kuni keyingi kunga tuziladi.

Porsion talabnoma yozish

O'quvchi bajarishi kerak: porsion talabnoma yozishni

Kerakli jihozlar: post hamshirasi tayyorlagan porsionnik

Muolajani bajarish algoritmi

1. Ma'lum parhez taomnomasiga belgilangan bemorlar sonini jamlab porsion talabnomani tuzing.

2. Porsion talabnoma ostiga imzo cheking va bo'lim mudiriga imzo chekishga olib boring.

3. Oshxonaga olib boring.

Porsion talabnoma namunasi

Forma № 1 - 84

BEMORLAR OVQATLANISHI UCHUN TAOMNOMA

Sana _____

1. Bemorlar soni _____

(kunning 8⁰⁰ gacha bo'lgan holati)

Bo'limlar nomi	Bemorlar soni	Parhez raqami											
Palata №													
Palata №													
Bo'lim nomi	Bemor I.Sh.O.	Oziq mahsulotlari											

Palata 1	To'rayeva S.T.	Sutli kun					

Bo'lim mudiri _____ Dieta hamshirasi _____

Katta hamshira _____ tekshirdi:

Qabulxona katta hamshirasi _____

Tibbiy statistika _____

Eslatma:

1. Bemorlar parhezga rioya qilishini nazorat qilish
2. Bo'limga kirish joyida ruxsat berilgan va taqiqlangan oziq-ovqatlar ro'yxati osib qo'yiladi.
3. Post (palata) hamshirasi majburiyatlari:
 - a) quyidagilarni nazorat qilish:
 - bemorlarning belgilangan taomnomaga asosan ovqatlanishi;
 - qarindoshlari tomonidan olib kelgan ovqatlar tarkibi.
 - b) Bemor va uning qarindoshlari bilan belgilangan parhez taomnomasi haqida suhbatlashish.

Bemor tumbochkasi ozodaligini nazorat qilish

O'quvchi bajarishi kerak: Bemor tumbochkasi ozodaligini nazorat qilishni

Kerakli jihozlar: maxsus sochiq, dezinfeksiyalovchi eritmali va suv solingan idishlar.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'lqoplarni va xalatni kiying.
2. Tumbochkalarning ichini tekshirib ko'ring: oziq-ovqatlar sellofan xaltalarda bo'lishi kerak va shaxsiy gigiyena buyumlaridan aloxida joylashgan bo'lishi kerak.
3. Tumbochkani dezinfeksiyalovchi eritmada xo'llangan maxsus sochiq yordamida 15 daqiqa oraliq bilan 2 marta arting.
4. 15 daqiqadan keyin tumbochkani toza suvda xo'llangan maxsus sochiq bilan arting.

Eslatma:

- a) Tumbochkalarning sanitar holati ustidan nazorat kuniga 2 marta o'tkaziladi va joriy oqartuv ishlari bilan barobar amalga oshiriladi.
- b) Dezinfeksiyalovchi eritma konsentrasiyasi davolash bo'limining mutaxassisligiga bog'liq.



5-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Bemorlarni fiziologik chiqaruvlaida hamshiralik parvarishi.


Og'ir yotgan bemorlarni tagini yuvish

O'quvchi bajarishi kerak: og'ir yotgan bemorlarni tagini yuvishni

Kerakli jihozlar: iliq suv, idish, paxta sharchalari, siydikdon, kleyonka, qo'lqop, to'siq.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'l yuviladi va quritiladi.
2. Bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi.
3. Bemor oldi to'siq bilan to'siladi.
4. Bemor tagiga kleyonka yoziladi va siydikdon qo'yiladi.
5. Kerakli ashyolar qulay joyga qo'yiladi.
6. Qo'lqop kiyiladi.
7. Bemorga oyoqlarni bukishi va oyoqlar orasini ochishi so'raladi.
8. Son sohasi va chov burmalari yuviladi.
9. Katta jinsiy lablar orasi suv oqimi bilan tampon yordamida yuqoridan pastga qarab yuviladi. Tamponlar almashtirib turiladi.



Kichik jinsiy lablarni orasi siydik chiqarish yo'llari, suv oqimi bilan tampon yordamida yuqoridan pastga qarab yuviladi. Tamponlar almashtirib turiladi.

10. Jinsiy a'zolar salfetka bilan artiladi va quritiladi.

11. Orqa chiqaruv yo'llari ham yuviladi. Salfetka yordamida artiladi va quritiladi.

12. Siydikdon olinadi.

13. Qo'lqop yechiladi va zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.

14. Bemorga qulay sharoit yaratib beriladi.
15. Bemor o'rin – ko'rpasi tekislab solinadi.
16. Ishlatilgan ashyolar zararsizlantiriladi.
17. Qo'l zararsizlantiriladi.



6-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Umumiy salomatlikni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash

Intervyu olish

O'quvchi bajarishi kerak: intervyu olishni

Kerakli jihozlar: bemorni, qulay sharoit yaratish, qog'oz, ruchka.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorning shikoyatlarini yig'ing va aniqlang;
2. Bemorning asosiy shikotylarini aniqlang;
3. Umumiy shikoyatlarini yig'ing;
4. Bemorning umumiy ahvoli haqida so'rab-surishtirish:
 - a) umumiy holatdagi o'zgarishlarni (oriqlash, isitma, shishlar, bosh og'rig'i, charchash bor yo'qligini aniqlang);
 - b) nafas olish sistemasi holatini so'rab surishtirish (yurak urishi, nafas qisishi, yurak sohasidagi og'riqlar, oyoqdagi shishlar);
 - v) hazm a'zolari holatini so'rab surishtirish (ishtahasini, qusish bor yo'qligini, yutishidagi o'zgarishlarni, epigastral sohada og'riqlar bor yoki yo'qligini aniqlang);
 - g) asab tizimi holatini so'rab surishtiring (umumiy o'zini his qilishi, uyqusi, atrof-muhitga bo'lgan reaksiyasini, lanjlik yoki qo'zg'alish, bosh og'rig'i bor yoki yo'qligini aniqlang);
5. Kasallik anamnezini (anamnesis morbi) so'rab surishtiring:
 - a) kasalik qachon boshlangan?
 - b) qanday boshlangan?
 - v) kasallik qanday kelgan?
 - g) qanday tekshiruvlar o'tkazilgan va uning natijalari?
 - d) qanday davolangan va uning samaradorligi?
6. Hayot anamnezini (anamnesis vitae) so'rab surishtiring:
 - a) umumiy biografik ma'lumotlarni yig'ing;
 - b) umumiy yashash sharoiti haqidagi ma'lumotlarini yig'ing;
 - v) turar joyi, maishiy yashash sharoitlari haqida ma'lumotlarni yig'ing;
 - g) mehnat sharoitlari va ishlab chiqarishga aloqador zararli narsalar haqidagi ma'lumotlarni yig'ing;
 - d) zararli odatlar bor yoki yo'qligini aniqlang;
 - ye) jinsiy va oilaviy hayotning normal yoki normal bo'lmasligini aniqlang?
 - j) irsiyati haqida ma'lumot yig'ing.

Eslatma! Bemorga to'g'ri hamshiralik tashhisi qo'yib, parvarish amalga oshirish uchun bemordan intervyu olish muhimdir.

Bemorning bo'y uzunligini o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: bemorning bo'y uzunligini o'lchashni

Kerakli jihozlar: bo'y o'lchagich, toza zararsizlantirilgan kleyonka (30x30), zararsizlantiruvchi eritmali idish, 0,5% li gipoxlorid eritmasi

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorga muolajalar mohiyatini tushuntirib, bo'yini o'lchash uchun ustki kiyimlarini yechib, oyoqyalang bo'lishini so'rang.

2. Qo'llaringizni yuving va bo'y o'lchagich maydonchasiga toza kleyonka soling.

3. Bo'y o'lchagich surgichini taxminiy bemor bo'yi ko'rsatkichidan yuqoriroqqa ko'taring.

4. Bemorga bo'y o'lchagichning santimetrlarga bo'lingan vertikal tirgovuchiga orqasi bilan ensasi, kuraklari, dumbasi, tovonini tekkizib turishini so'rang.


5. Boshini tashqi eshituv yo'lini yuqori chekkasi va ko'z burchaklari bir tekis chiziqda turadigan holatda bo'lishi so'raladi.

b. Gorizontal surgichni bemor boshigacha suring.

7. Bemordan bo'y o'lchagich maydonchasidan tushishini so'rang.

8. Bemorning bo'yi surgichning pastki chekkasidagi shkaladagi bo'linmalar bo'yicha o'lchanadi.

9. Natija bilan bemorni tanishtiring va harorat varaqasiga qayd eting.



10. Bo'y o'lchagich maydonchasidan kleyonkani olib, 0,5% li gipoxloridli eritma bilan ikki marta artiring.

Eslatma: 1. Bo'y o'lchagichning vertikal tirgovuchi mustahkam va yaxshi muvozanatga keltirilgan bo'lishi, surgichi erkin harakatlanishi kerak.

2. 1 yoshgacha bulgan bolalarda bo'yini o'lchash uchun gorizontal bo'y o'lchagichdan foydalaniladi.

3. Bo'yni o'lchash asosan ertalab bajariladi.

4. Bemor bo'yini o'tirgan holda o'lchasangiz, bemor bo'yiga kursichadan polgacha bo'lgan masofani qo'shasiz.

Bemorning tana og'irligini aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: bemorning tana og'irligini aniqlashni

Kerakli jihozlar: tibbiy tarozi, toza zararsizlantirilgan kleyonka (30x30), zararsizlantiruvchi eritmalı idish, 0,5% li gipoxlorid eritmasi.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor og'irligini o'lchashni nahorga, yengil ich kiyimda, qovuq va ichaklar bo'shatilgan holda o'tkazing va bu haqida bemorni ogohlantiring.

2. Tibbiy tarozining kalitini tushuring.

3. Tarozi muvozanatga keltiring.

4. Kalitni ko'tarib, tarozi maydonchasiga zararsizlantirilgan kleyonka yozing.

5. Bemorni muvozanatga keltirilgan, kaliti ko'tarilgan tarozining maydonchasining o'rtasiga oyoq kiyimini yechib, ehtiyotkorlik bilan chiqazing.

6. Kalitni tushirib, tarozining yuqori va pastki yuklarini surib, tarozini muvozanatga keltiring.

7. Tana vaznini tarozining yuqori va pastki yuklari to'xtagan bo'linmalar yig'indisi bo'yicha aniqlang.


8. Kalitni ko'taring.

9. Bemordan tarozidan tushishini so'rang.

10. Natijani harorat varaqasiga yozing va bemorni tanishtiring.

11. Tarozi maydonchasidan kleyonkani olib, 0,5%li gipoxloridli eritma bilan ikki marta arting.

Asoratlari: Qattiq silkinish natijasida bemor yiqilib tushishi mumkin.



Eslatma: 1-1,5 yoshgacha bulgan bolalarda og'irlikni gorizonta tarozida o'lchanadi.

Ko'krak qafasi aylanasi uzunligini o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: ko'krak qafasi aylanasi uzunligini o'lchash

Kerakli jihozlar: santimetrli lenta, 70% li etil spirti yoki 1%li xloramin eritmasi, doka salfetkalar, qog'oz, ruchka, qo'lqoplar

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorga muolaja mohiyatini va maqsadini tushuntirib, roziligini oling.

2. Qo'llaringizni zararsizlantirib, qo'lqoplarni kiying.

3. Bemordan vertikal holatda, o'zingizga qarab, qo'llarini pastga tushirib turishini so'rang.

4. Santimetrli lentani oldingi tomondan 4-qovurg'a bo'yicha, ko'krak bezlari chizig'idan (erkaklarda) yoki ko'krak bezidan yuqori (ayollarda), orqa tomondan esa kuraklarning burchagi ostidan o'tkazing.

5. Ko'krak qafasi aylanasini tinch nafas olishi, maksimal nafas olish va chiqarish vaqtida o'lchang.

6. Natijani yozing:

Ko'krak qafasi aylanasi tinch holatda -

Ko'krak qafasi aylanasi nafas olganda -

Ko'krak qafasi aylanasi nafas chiqarganda -



7. Santimetrli lentani zararsizlantiring (salfetka yordamida shkala tamonini ikki marta 1%li xloramin yoki spirt bilan arting.

8. Qo'lqoplaringizni yechib, qo'llaringizni quriting.

Muscul kuchini o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: muscul kuchini aniqlashni

Kerakli jihozlar: stanli (asosga o'rnatilgan) dinamometr, individual karta, zararsizlantiruvchi eritma

Muolajani bajarish algoritmi

1. Dinamometrni ishlashini tekshiring.
2. Bemorga muolaja mohiyati va maqsadini tushuntiring.
3. Bemorni stavli dinamometr dastasini tizzalari qarshisida turgizing.
4. Bemordan dastakni qo'l va oyoqlarini bukmasdan zarbsiz cho'zib tortishini so'rang.
5. O'lchashni 3 marta takrorlang.
6. Dinamometr dastasini zararsizlantiruvchi eritma bilan ikki marta arting.

7. Dinamometr ko'rsatkichidagi maksimal natijani qayd qiling.

Eslatma:

1. Dastakli dinamometrda muscul kuchi o'lchaganda shkalasini yuqoriga qilib bemor panjasiga beriladi.

2. Jismoniy rivojlangan kishilarda muscul kuchi erkaklarda o'ng qo'lda 35-50 kg, chap qo'lda 32-46 kg, ayollarda o'ng qo'lda 25-33 kg, chap qo'lda 23-30 kg bo'ladi.

3. Nisbiy muscul kuchini topish uchun qo'l kuchini 100 ga ko'paytirib, tana og'irligiga bo'linadi. Masalan tana vazni 76 kg, o'ng qo'l kuchi 52 kg. O'ng qo'lning nisbiy kuchi - $52 \times 100 / 76 = 65,4\%$.



Bemorning bosh aylanasi o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: bemorning bosh aylanasi o'lchashni

Kerakli jihozlar: santimetr lentasi, 70% li etil spirti, doka salfetka, qog'oz, ruchka

Muolajani bajarish algoritmi

➤ Bola onasiga muolaja o'tkazish maqsadini va tartibini tushuntiriladi

➤ qo'llarni yuviladi

➤ santimetr lentasini spirtli salfetkada artiladi

➤ bola o'tqaziladi yoki yotqiziladi

➤ lentani old tomondan bolaning peshonasiga qosh yoyiga qo'yib, orqa tomonga

ensa do'mbog'i ostidan tortiladi

➤ hamshira barmoqlari lenta ustida bo'lishi kerak

➤ bosh aylanasi yozib qo'yiladi va onasiga ma'lum qilinadi.



7-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Hayot uchun zarur ko'rsatkichlarni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash

Termometriya o'tkazish va natijalarini qayd qilish

O'quvchi bajarishi kerak: termometriya o'tkazish va natijalarini qayd qilishni

Kerakli jihozlar: tibbiy termometr, sochiq, haroratni qayd qilish jurnali, dezinfeksiyalovchi eritma (xloraminning 1% li eritmasi) solingan idish

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Bemorga muolaja maqsadi va tartibini tushuntiring.
3. Bemorga qulay vaziyat egallashni taklif qiling.
4. Termometrni qo'lga oling, simobning rezervuarda ekanligiga ishonch hosil qiling, kerak bo'lsa silkitib simobni rezervuarga tushiring.
5. Haroratni o'lchash sohasida mahalliy yallig'lanish jarayoni bor-yo'qligi tekishirish uchun ko'zdan kechiring.
6. Haroratni o'lchash sohasini quruq sochiq bilan arting.
7. Termometrni teri burmasida shunday joylashtiringki, simob rezervuari har tomonlama teriga tegib turishi kerak.
8. Termometrii 10 minutdan keyin oling.
9. Termometr ko'rsatkichini simob ustuning balandligi bo'yicha baholang.
10. Termometr ko'rsatkichini haroratni qayd qilish jurnaliga kiriting.
11. Termometrni simob rezervuariga tushgunga yoki 35°S ko'rsatkichiga qadar tushguncha silkiting.
12. Termometrga ishlov bering.
13. Haroratni qayd qilish jurnalidagi ko'rsatkichni harorat varaqasiga grafik egrilik ko'rinishida kiriting.

Termometrlarga ishlov berish:

- quyidagi dezinfeksiyalovchi vositalar (xloraminning 2% li eritmasiga 30 minutga, vodorod peroksidining 3% li, eritmasiga 80 minut, dezoksonning 0,5% li eritmasiga 20 minutga) dan biriga solib qo'shing
- oqar suv bilan hidsizlanguncha yuving, quriting;
- termometllarni quruq holda ostida paxta bo'lgan idishda saqlang.

TERMOMETR VA ULARNING TURLARI



Suyuq kristalli termometr



Infraqizilli quloq termometr



Termo chiziqli termometr



Bolalar termometri




Shishali simobli termometr




Elektron termometr

Bemorlardan ma'lumot yig'ish va mulqot olib borish MULOQOT QOIDALARI



BEMORNI ESHITISH QOIDALARI




SAVOL BERISH USULLARI

Yo'naltiruvchi savollar- fikrni davom ettirishga undovchi savollar (balkim kiyimingiz issiq bo'lmagandir, balki havo sovib ketgandir

Ochiq savollar – izoh talab qiladigan savollar (sizga nima bo'ldi?, nimaga uxlay olmadingiz?

Yopiq savollar – izoh talab qilmaydigan savollar (ha, yo'q)

BEMOR MUAMMOSINI ANIQLASH TARTIBI



Tana harorati ko'tarilganda bemorni parvarish qilish
Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor muolajaga tayyorlanadi.
2. Tana harorati o'lchanadi, puls aniqlanadi, nafas olishi sanaladi, AB o'lchanadi.

3. Bemorning terisi ko'zdan kechiriladi.

4. Isitma davri aniqlanadi

Isitmaning birinchi davrida bemorga yordam berish

O'quvchi bajarishi kerak: isitmaning birinchi davrida bemorga yordam berishni

Kerakli jihozlar: krovat, ko'rpa, grelka (isitgich), shirin choy, sudno, bemorning tibbiy kartasi

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor o'ringa yotqiziladi.
2. Bemor usti ko'rpa bilan yopiladi.
3. Grelka (isitgich) qo'yiladi.
4. Issiq shirin choy beriladi.
5. Bemor kuzatiladi.
6. Bemorga kerak bo'lsa sudno tutiladi.
7. Ishlatilgan ashyolar zararsizlantiriladi.
8. Ko'rsatilgan natija bemor tibbiy kartasiga qayd qilinadi.

Isitmaning ikkinchi davrida yordam ko'rsatish

O'quvchi bajarishi kerak: isitmaning ikkinchi davrida yordam ko'rsatish

Kerakli jihozlar: krovat, ko'rpa, choyshab, muzli xaltacha, sochiq, doka, 3 litrgacha suyuqlik, vazelin, sudno, bemorning tibbiy kartasi

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor o'rniga yotqiziladi.
2. Bemor usti choyshab bilan yopiladi.
3. Bemor boshiga muzli xaltacha yoki sovuq suvda ho'llangan sochiq yoki doka qo'yiladi.
4. Tana haroratini pasaytirish uchun tanani ishqalash kerak.
5. 3 litrgacha suyuqlik beriladi.
6. Lab yorilsa vazelin surtiladi.
7. Sudno beriladi.
8. Bemor ahvoli kuzatib boriladi.
9. Ko'rsatilgan natija bemorning tibbiy kartasiga qayd qilinadi.
10. Ishlatilgan ashyolar zararsizlantiriladi.

Isitmaning 3- davrida bemorga yordam berish

O'quvchi bajarishi kerak: isitmaning 3- darajisida bemorga yordam berishni

Kerakli jihozlar: rezina isitgich (grelka), ko'rpa, bemor tibbiy kartasi, shprits va dori preparatlar

A. Haroratning litik tushib ketishi.

1. Bemor ahvoli kuzatib boriladi.
2. Ovqatlanishi va harakati kuzatiladi.
3. Natija bemor tibbiy kartasiga qayd qilinadi.
4. Ishlatilgan ashyolar zararsizlantiriladi.

B. Haroratning kritik tushib ketishi.

1. Vrach chaqiriladi.
2. Bemor o'rniga yotqiziladi.
3. Bemorga issiq choy, kofe beriladi.
4. Bemor quruq qilib artiladi.
5. Bemor usti ko'rpa bilan yopiladi va unga rezina isitgich (grelka) qo'yiladi.
6. Shprits va dori preparatlar tayyorlanadi.
7. Natija bemor tibbiy kartasiga qayd qilinadi.
8. Ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi.

Tana haroratini qo'ltiq ostidan o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: tana haroratini qo'ltiq ostidan o'lchashni

Kerakli jihozlar: termometr, sochiq, isitma jurnali, dezinfeksiyalovchi eritma

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'lni yuving va quriting.
2. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiring.
3. Bemorni qulay joylashtiring.
4. Termometrni olish va simobning 35°S dan pastda ekanligiga ishonch hosil qiling.
5. Termometr qo'yiladigan joyni ko'zdan kechiring.
6. Qo'yiladigan joyni sochiq bilan quriting
7. Termometrni qo'ltiq sohasiga shunday joylashtiringki u har tomondan teriga tegib tursin.
8. 10 daqiqadan keyin termometrni oling.
9. Termometr ko'rsatkichini ko'ring va temperatura jurnaliga belgilang.
10. Termometrni simob rezervuariga tushguncha silkiting.
11. Termometrni zararsizlantiring.

12.F-004 ga yozing.

Termometrni zararsizlantirish.

O'quvchi bajarishi kerak:

- Dezinfeksiyalovchi eritmalarining biriga joylashtiring (2 % li xloramin eritmasi – 30 daqiqa, 3 % li vodorod peroksidga 80 daqiqa)
- Oqar suv ostida hidi ketgungacha chayish.
- Termometrni quruq holda saqlang.



Tana haroratini chov burmasidan o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: tana haroratini chov burmasidan o'lchashni

Kerakli jihozlar: termometr sochiq, isitma jurnali, dezinfeksiyalovchi eritma

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'lni yuving va quriting.
2. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiring.
3. Bemorni qulay joylashtiring.
4. Termometrni olish va simobning 35°S dan pastda ekanligiga ishonch hosil qiling.
5. Termometr qo'yiladigan joyni ko'zdan kechiring.
6. Qo'yiladigan joyni sochiq bilan quriting.
7. Termometrni chov burmasiga oyoqlarni sondan bukkun holda joylashtiring.
8. 10 daqiqa dan keyin termometrni oling.
9. Termometr ko'rsatkichini ko'ring va temperatura jurnaliga belgilang.
10. Termometrni simob rezervuariga tushguncha silkiting.
11. Termometrni zararsizlantiring.
12. 12.F-004ga yozing.



Termometrni zararsizlantirish.

- Dezinfeksiyalovchi eritmalarning biriga joylashtiring (2 % li xloramin eritmasi - 30 daqiqa, 3 % li vodorod peroksidga 80 daqiqa)
- Oqar suv ostida hidi ketgungacha chayish.
- Termometrni quruq holda saqlang.

Tana haroratini og'iz bo'shlig'idan o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: tana haroratini og'iz bo'shlig'idan o'lchashni


Kerakli jihozlar: termometr, sochiq, isitma jurnali, dezinfeksiyalovchi eritma

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'lni yuving va quriting.
2. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiring.
3. Bemorni qulay joylashtiring.
4. Termometrni olish va simobning 35°S dan pastda ekanligiga ishonch hosil qiling.
5. Termometr qo'yiladigan joyni ko'zdan kechiring.
6. Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechiring.
7. Termometrning simobli uchini til ostiga qo'ying.
8. Bemordan lablarini yopishni so'rang, lekin tishlarini emas.
9. Termometrni 5 daqiqadan keyin oling.
10. Termometr ko'rsatkichiki ko'ring va temperatura jurnaliga belgilang.
11. Termometrni simob rezervuariga tushguncha silkiting.
12. Termometrni zararsizlantiring.
13. F. - 004 ga yozing va o'lchangan joyni ko'rsating!

Termometrni zararsizlantirish.

- Dezinfeksiyalovchi eritmalarning biriga joylashtiring (2 % li xloramin eritmasi - 30 daqiqa, 3 % li vodorod peroksidga 80 daqiqa).
- Oqar suv ostida hidi ketgungacha chayish.



Tana haroratini to'g'ri ichakdan o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: tana haroratini to'g'ri ichakdan o'lchash

Kerakli jihozlar: termometr, sochiq, isitma jurnali, dezinfeksiyalovchi eritma

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'lni yuving va quriting.
2. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiring.
3. Bemorni qulay joylashtiring.
4. Termometrni olish va simobning 35°S dan pastda ekanligiga ishonch hosil qiling.
5. Termometrning rezervuarli uchiga vazelin moyi surting.
6. Bemorni chap yonboshga yotqizing.
7. Bemorning orqa chiqaruv teshigiga termometrning vazelin surtilgan uchini 2 - 3 sm kiriting.
8. Dumbalarni qisib turing, 5 daqiqadan keyin oling.
9. Termometr ko'rsatkichiki ko'ring va temperatura jurnaliga belgilang.
10. Termometrni zararsizlantiring.
11. F. - 004 ga yozing va o'lchangan joyni ko'rsating!

Termometrni zararsizlantirish.

- Dezinfeksiyalovchi eritmalarning biriga joylashtiring (2 % li xloramin eritmasi - 30 daqiqa, 3 % li vodorod peroksidga 80 daqiqa).
- Oqar suv ostida hidi ketgungacha chayish.
- Termometrni quruq holda saqlang.



Bemor es-hushi darajasini aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: bemor es-hushi darajasini aniqlashni

Es-hush va ruhiy holatini baholash:

A) Stupor holat (Stupor) - karaxtlik holati

- atrof muhitda bemorning orentatsiyasi yomonlashadi.
- Savollarga kechikib javob beradi (bu holat kontuziyalarda, ba'zi bir zaharlanishlarda kuzatiladi).

B) Sopor holat (Sopor) - uxlash holati.

- bemor uyqu holatidek.
- Reflekslar yo'qolgan.
- Hayotiy muhim funksiyalar buzilgan.

Bemorni kuzatuv varaqasi

Ismi sharifi:										
Yoshi										
Oy. kun			1	2	3	4	5	6	7	8
Nafas 50	Puls 140	T ⁰ S 40								
40	120	39								
30	100	38								
20	80	37								
10	60	36								
0	40	35								
Oon bosimi										
Siy- dik	Marta									
	Miqdor									
Axlat marta										
Ovqatlanish miqdori										
Vazni (kg)										
№										
№										
№										
Ichiladigan dorilar										
Inyeksiyalar										
Laborator va klinik tekshiruvlar										
Parvarish chora tadbirlari										

Suv balansini aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: suv balansini aniqlashni

Ichilgan suyuqlik miqdori bilan ajratilgan suyuqlik miqdori o'rtasidagi nisbat suv balansi deyiladi.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira sutka davomida bemor iste'mol qilgan barcha suyuqliklarni (ovqat, meva, sabzavotlar, suyuqliklar, suyuq dori vositalarini) hosobga olib boradi

2. Shu davr ichida ajratgan axlati, siydigi, terlash xususiyatlarini ham aniqlaydi

3. Olingan nisbatga asoslangan holda xulosalar chiqariladi.

4. Ko'rsatkichlarini kasallik tarixiga aniq yozib qo'yiladi

Eslatma: Tana vaznining o'rta hisobda 65%ni (45% dan 75% igacha) suv tashkil etadi, bu miqdorning taxminan 71% ni hujayralar ichida, 19% hujayradan tashqari (to'qimalarda) va 10%i plazmada, orqa miya suyuqligida va limfada bo'ladi. Organizm 10% sivni yo'qotganda uning ahvolidagi og'ir o'zgarishlar ro'y beradi, 20-25 % suv yo'qotish esa uning o'limiga sabab bo'ladi. Odam kuniga o'rta hisobda 2.5 litr suyuqlik istemol qiladi, shundan taxminan 1.5 litrni turli suyuqliklar (sut, shurva, kisel, choy, kofe va boshqalar) ko'rinishida qabul qiladi va qariyb 1 litrini 40 foizini suvdan tashkil topgan ovqatdan oladi.



8-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Teri, limfa, sezish, harakat qilish va skelet tizimini baholash

Terini kuzatish

O'quvchi bajarishi kerak: terini kuzatishni

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llarni yuving va quriting.
2. Yorug'likning bemorga to'g'ri tushishini ta'minlang.
3. Bemor tanasini yechintiring.
4. Terining rangiga e'tibor bering
5. Terining elastikligini aniqlang.
6. Terining namligiga e'tibor bering.
7. Teridagi turli toshmalarni aniqlang.

Sochni palpasiya va ko'ruv asosida baholash

O'quvchi bajarishi kerak: sochni palpasiya va ko'ruv asosida baholashni

Kerakli jihozlar: kuzatuv rejasi, yetarli yorug'lik.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llarni yuving va quriting.
2. Boshdagi sochning qalin yoki yo'qligini aniqlang.
3. Bemorning tanasini sekin-asta oching va kuzating.
4. Sochlarning tana bo'ylab joylashuviga e'tibor bering.
5. Sochning o'sishini buzilishini aniqlang:
 - O'ta tuklilik (gersutizm, giperterxioz, buyrak usti bezi o'smalarida, jinsiy bezlar o'smalarida).
 - tukning kamayishi (miksedema, jigar serrozi, yevnuxoidizm, infantilizm)
 - teri kasalliklarida ham sochlarda o'zgarish kuzatiladi.



Tirnoqlarni palpatsiya va ko'ruv asosida baholash

O'quvchi bajarishi kerak: tirnoqlarni palpatsiya va ko'ruv asosida baholashni

Kerakli jihozlar: yetarli yorug'lik, kuzatuv rejasi.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llarni yuving va quriting.
2. Bemorni qulay joylashtiring (yorug'lik to'g'ri tushishini ta'minlang)
3. Barmoqlar shakliga e'tibor bering (barmoqlarning shakli kolbasimon-baraban tayoqchalariday)
4. Tirnoq yuzasining shaklini aniqlang.
5. Tirnoq yuzasining silliq yoki g'adir-budir ekanligini ko'ring va paypaslang (soat shishasiday)
6. Tirnoqning rangiga e'tibor qarating (oqargan, qazargan, ko'kargan).

Limfa tizimini palpasiya asosida baholash

O'quvchi bajarishi kerak: limfa tizimini palpasiya asosida baholashni

Kerakli jihozlar: kuzatuv rejasi, yetarli yorug'lik

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llarni yuving va quriting
2. Bemorni qulay vaziyatda joylashtiring
3. Limfa tugunlarini ko'zdan kechiring
4. Limfa tugunlarini II, III, IV barmoqlar bilan paypaslab tekshiring.
5. Limfa tugunlarining o'lchamiga, og'riqliligiga harakatchanligiga, konsistensiyasiga, teriga yopishganligiga e'tibor bering va baholang.
6. Limfa tugunlarini paypaslab tekshirish uchun qo'llar simmetrik tugunlar ustiga qo'yiladi va birdan tekshiriladi.

Bo'yin limfa tugunlarini paypaslab tekshirish

O'quvchi bajarishi kerak: bo'yin limfa tugunlarini paypaslab tekshirishni

Nodi cervicalis anterioris – bo'yin old limfa tugunlarini paypaslash uchun:

- a) bemorni to'g'ri o'tirg'izing
- b) bemorning orqa tomonida turing

v) barmoqlarni qizilo'ngachning ikki yon tomonidan qo'yib paypaslang.

Nodi cervicalis lateralis – bo'yin yon tugunlarini paypaslash uchun:

a) bemorni to'g'ri o'tirg'izing

b) bemorning orqa tomonidan turing;

v) Musculus sternocleidomastoideusning orqa sohasi bo'ylab ikkala qo'l barmoqlarini joylashtirish va paypaslab ko'ring.



Nodi supraclavicularis – o'mrov usti tugunlarini paypaslash uchun.

a) Bemorni to'g'ri o'tirg'izing

b) Bemorning orqa tomonidan turing

v) ikkala qo'lning II, III, IV barmoqlarini ikkala o'mrov suyagi ustidan qo'ying

g) barmoqlar bilan paypaslang va baholang.

Nodi paratoidie superficiales - quloq oldi so'lak bezining yuza tugunlari

a) Bemorni to'g'ri o'tirg'izing

b) Bemorning orqa tomonidan turing

v) ikkala qo'lning II, III, IV barmoqlarini Bemorning ikki qulog'ining old tomoniga qo'ying.

g) paypaslang va baholang.

Qo'l limfa tugunlarini paypaslab tekshirish

O'quvchi bajarishi kerak: qo'l limfa tugunlarini paypaslab tekshirishni

Nodi limfatici axillaris – qo'ltiq sohasidagi limfa tugunlarini paypaslash uchun



a) Bemorni turishi mumkin bo'lsa turg'izing;

b) bemordan qo'llarini boshiga ko'tarishini so'rang;

v) qo'l II, III, IV barmoqlarini qo'litiq chuqurchasiga qo'ying;

g) paypaslang va baholang;

d) bemor qo'llarini yonog'iga tushirishni so'rang.



***Nodi cubitalis* – tirsak bo'g'imi sohasidagi limfa tugunlarini paypaslash uchun.**

a) Bemor qo'lini tirsak bo'g'imidan buking;

b) tirsak bo'g'imining ikkala yon tomonidan barmoqlar bilan ushlang;

g) paypaslang va baholang.

Oyoq limfa tugunlarini paypaslab tekshirish

O'quvchi bajarishi kerak: oyoq limfa tugunlarini paypaslab tekshirishni

***Nodi lymphatici inguinales superficialis* - chovning yuza limfa tugunlarini paypaslash uchun.**

a) Bemorni yotqizing.

b) bemorni yechintiring

c) qo'l barmoqlarini chov sohasida joylashgan katta teri osti venasi yo'nalishida joylashtiring.

d) paypaslang va baholang.

***Nodi lymphatici poplitealis* - taqim osti limfa tugunlarini paypaslash uchun.**

a) Bemorni qulay joylashtiring

b) qo'l barmoqlarini taqim ostiga qo'ying

v) paypaslang va baholang.

Eslatma: limfa tugunlarning o'zgarishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

- o'tkir yallig'lanishda (limfadenit), surunkali kasalliklarda, immunitet o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda, yuqumli kasalliklarda, qon kasalliklarida, tugunlarning xavfli shikastlanishida.

1. Sezish funksiyalari tizimini aniqlash va baholash. (Glazgo shkalasi bo'yicha).\

GLAZGO KOMASI SHKALASI

No	Reaksiyalar	Baho
I	Ko'z ochiqligi	
	Ko'z birdaniga ochilib ketadi	4
	Ko'zlar tovushga nisbatan ochiladi	3
	Ko'zlar og'riqqa javoban ochiladi	2
	Ko'zlar ochilmaydi	1
II	Yaxshi og'zaki reaksiya	
	Orentatsiya: shaxsga, vaqtga, joyga	5
	Chalkashish: gapiradi, ammo chalg'igan	4
	To'g'ri kelmaydigan, aniq so'zlar	3
	Noaniq tovushlar, so'zlar talaffuz qilinmaydi	2
	Reaksiya yo'q	1
III	Eng yaxshi harakat reaksiyasi	
	Qimirlash haqidagi buyruqqa bo'ysunadi	6
	Og'riq stimullarini ko'rsatadi	5
	Og'riq stimullariga javob beradi	4
	Bukilgan notabiiy holat	3
	Egilgan notabiiy holat	2
	Harakat va gavdani tutish yo'q	1
	Mumkin bo'lgan belgilarning umumiy yakuni	3-15
	Boshning yirik zararlanishi	<8
	Boshning o'rtacha zararlanishi	9-12
	Boshning minimal zararlanishi	13-15

Bemorlarda sezuvchanlikni tekshirish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorlarda sezuvchanlikni tekshirishni

Kerakli jihozlar: paxta, igna.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Iгна uchi bilan boshning sochli qismi, yuzi, qo'llari, badani va oyoqlarining simmetrik o'ng va chap tomonida og'riq tekshiriladi.

2. Paxta bo'lagi yoki cho'tkacha bilan qo'l-oyoqlar, tananing o'ng va chap tomonidagi simmetrik nuqtalarida taktil sezgi tekshiriladi.


3. Probirkadagi issiq va sovuq suvni birma-bir bemor tanasi, qo'l oyoqlariga tegizib harakat sezgisi tekshirib ko'riladi.

4. Bo'g'in-muskul sezgisi passiv harakatlar (qo'l-oyoqlarda) qilib tekshiriladi.

5. Qo'l oyoq umurtqa pog'onasi aktiv harakatlari tekshiriladi.

6. Romberg pozasiga qo'yib, tizza tovon barmoq-burun sinamalari o'tkazib tekshiriladi.

7. Bemor bo'g'imlarini bemor ko'zi yumilgan holda harakatlantirib yo'nalishi so'raladi.



Pay reflekslarini tekshirish

O'quvchi bilishi kerak: pay reflekslarini tekshirishni

Kerakli jihozl ar: nevrologik bolg'acha.

Muolajani bajarish algoritmi

- I. a. Biseps (ikki boshli muskul) refleksi bemorning yotgan yoki o'tirgan holatida tekshiriladi.
b. Bemorning qo'li tirsak bo'g'imidan yarim bukiladi.
c. Ikki boshli mushak payiga nevrologik bolg'acha bilan uriladi, bunda bilak bukilib yoziladi.



- II. Triseps (uch boshli mushak) refleksini tekshirish uchun bemor qo'li tirsak yuqorisidan ushlanib, gorizontal holatda ko'tariladi. Uch boshli mushak payiga nevrologik bolg'acha bilan urilganda, bilak biroz yozib bukiladi.



- III. Tizza refleksi bemorning o'tirgan, bir oyog'ini ikkinchi oyog'i ustiga chalishtirgan yoki yotgan holda tekshiriladi. Yotgan bemor oyog' i tizza tagidan ko'tarilib nevrologik bolg'acha bilan sonning to'rt boshli mushak payiga uriladi, bunda oyoq tizza bo'g'imidan yozilib bukiladi.



- IV. Axil refleksi bemorning yotgan holatida yoki bemor stulga tizzasi bilan chiqib turganda tekshiriladi. Nevrologik bolg'acha bilan axil payiga urilsa, oyoq panjasi bukiladi.



Meningeal simptomlarni aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: meningeal belgilarni aniqlashni

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor krovatga (kushetkaga) yotqiziladi.
2. Hamshira qo'lini bemor boshi tomonga o'tkazadi va bemor boshini ko'kragiga qarab egiltiradi, bunda bemor boshi bilan ko'krak qafasi ham beixtiyor ko'tariladi- bu bo'yin mushaklari rigidmigi simptomi
3. Chalqancha yotgan bemorning oyog'i chanoq- son va tizza bo'g'imidan yozishga harakat qilinadi, bunda bemor oyog'i tizza bo'g'imidan yozilmaydi.
4. Hamshira yotgan bemor boshini ko'kragiga bukadi, bunda bemor oyoqlari beixtiyor qorniga qarab bukiladi bu ***Brudzinskiy*** yuqori simptomi.
5. Hamshira bemorning simfez sohasiga bosadi, bemor oyoqlari bukilib qorniga tortiladi.
6. Hamshira bemorning oyog'ini chanoq son va tizza bo'g'imidan bukadi, bunda bemorning ikkinchi oyog'i qorniga tortiladi.

Sezish va harakat tizimida o'zgarishi bo'lgan bemorlarni va uning oila a'zolarini hamshiralik ishiga o'qitish

O'quvchi bajarishi kerak: sezish va harakat tizimida o'zgarishi bo'lgan bemorlarni va uning oila a'zolarini hamshiralik ishiga o'qitishni

Muolajani bajarish algoritmi

1. Tayyorlang: parvarishda kerak bo'ladigan buyumlarni tayyorlang.
2. Bemorni kuzating:
 - a) umumiy ahvolini;
 - b) qaysi sohada sezish buzilganligini;
 - v) sezmaydigan sohadagi o'zgarishlarni aniqlang:
 - yara bormi, yo'qmi
 - qizarganmi yoki yo'qmi
 - g) chuqur yoki yuzaki sezgi buzilganligini aniqlang.
3. Tananing aniqlangan sezmaydigan sohani tushuntiring.
4. Sezish qobiliyatining pasayishi yoki paydo bo'lishini kuzatishni bemorga va oila a'zolariga ayting.
5. Sezmaydigan sohaning teridagi o'zgarishlarini har kuni kuzatish lozimligini bemorga va oilasiga tushuntiring.

6. Sezmaydigan sohani turli xil shikastlanishlardan asrash lozimligini bemorga va uning oilasiga ayting.

7. Sezmaydigan sohani bemor tagiga bosilib qolishi mumkin emasligini bemorga va oila a'zolariga tushuntiring.

8. Sezmaydigan sohasini isish yoki sovuqdan asrash lozimligini bemorga va oila a'zolariga tushuntiring.

Eslatma: Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish sezgilari buzilganda ham bemorlarni turli jarohat va shikastlanishlardan saqlash maqsadida bemorni va uning oila a'zolarini hamshiralik ishiga o'qitish lozim.

Harakati chegaralangan bemorlarni maxsus parvarish jihozlari bilan ishlashga o'rgatish

O'quvchi bajarishi kerak: harakati chegaralangan bemorlarni maxsus parvarish

jihozlari bilan ishlashga o'rgatishni

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qaysi sohada harakat buzilganligini aniqlang.
2. Harakat buzilishi miqdorini aniqlang.
3. Shifokordan harakat miqdorini aniqlang.
4. Harakat maqsadini bemor va uning oila a'zolariga o'rgating.
5. Harakat usullarini bemorga va uning oila a'zolariga o'rgating.
6. Suyanib va tayanib yuradigan maxsus asboblardan to'g'ri foydalanishga bemorni va uning oila a'zolarini o'rgating.
7. Reabilitasiya davomida ma'lum bir vaqtlarda shifokorga uchrashib, harakat miqdorini aniqlab turishni bemorga va oila a'zolariga o'rgating.

8. Bemor o'zini o'z parvarishlashi uchun unga qulay vaziyat yaratishni bemorga va uning oila a'zolariga o'rgating.

Eslatma! Harakati chegaralangan Bemorlarni va ularning oila a'zolarini parvarish jihozlaridan foydalanishga o'qitishdan maqsad, ularni turli xil shikastlanishlardan saqlashdir.

9-Amaliy mashg'ulot mavzusi: **Nafas olish a'zolari** tizimini baholash uchun fizikal tekshiruvlar o'tkazish

Nafas olish maromini aniqlash va natijalarni baholash

O'quvchi bajarishi kerak: nafas olish maromini aniqlash va natijalarni baholash

Kerakli jihozlar: krovat, sovun, sekundomer, F-003, F-004

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira qo'lini iliq suvda sovunlab, chutkalab yuvadi.
2. Nafasni sanash uchun bemor krovatda yotgan yoki stolda, stolda o'tirgan bo'lishi kerak.
3. Bemorning ko'krak qismida qalin kiyimlar bo'lmasligi kerak.
4. Bemor oldida joylashib o'tirib, uning fikrini gap bilan chalg'itasiz.
5. Shu bilan bir qatorda qo'lingizni uning tomir urishini aniqlamoqchi bo'lganday ushlaysiz.
6. O'zingizga esa sekundomerni belgilaysiz.
7. Ko'zingiz bilan bemorning ko'krak qafasi har bir ko'tarilib tushish harakatini sanaysiz.
8. Nafas harakati 1 minut davomida sanaladi va F-003 hujjatidagi F-004 hujjatiga yozib qo'yiladi.

Eslatma: Nafas olish soni yoshga, jinsga, tananing vaziyatiga qarab har xil bo'ladi.

Nafas soni: Chaqaloqlarda - 40-60 ta

1 yoshda – 30-35 ta

5 yoshda – 24-26 ta

10 yoshda – 18-20 ta

15 yoshda – 17-18 ta

Kattalar – 16-20 ta

Izoh: Nafas faoliyatini kuzatish. Nafas a'zolari organizmni kislorod bilan ta'minlash va karbonat angidrid gazini chiqarish uchun xizmat qiladi. Sog'lom odamda nafas harakatlari soni bir daqiqada 16-20 gacha o'zgarib turadi.

Nafasning ko'krak, qorin va aralash tiplari bo'ladi. Ko'krak tipidagi nafas olish asosan ayollarda uchraydi.



Erkaklarda qorin tipida nafas olish kuzatiladi. Aralash tipidagi nafas olish asosan bolalarda kuzatiladi. Og'ir hollarda Cheyn-Stoks, Biot va Kusmaul turidagi patalogik nafas olishlar kuzatiladi.

Cheyn-Stoks tipidagi nafas harakatining davriy paydo bo'lishi bilan bog'liq, ular orasidagi to'xtalishlarida nafas harakatlari toboro oshib borib, keyinchalik nafas olishning batamom to'xtashiga qadar pasayib ketadi. Biot nafasi bir daqiqa davom etishi mumkin bo'lgan katta to'xtalishlar bilan tariflanadi. Kusmaul nafasi bir tekis, siyrak nafas ketma-ketligi shovqinli va kuchli nafas chiqarish bilan ifodalanadi.

Nafas turlarini, usullarini va maromini aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: funksional holatni baholash:

Kerakli anjomlar: sekundomer, harorat varaqasi, ruchka

Muolajani bajarish algoritmi

1. Nafas turini aniqlash uchun hamshira qo'lini sovunlab yuvadi.
2. Bemor o'ng qo'l bo'lsa, hamshira bemorning o'ng tomonidan, chapaqay bo'lsa, chap tomonidan kelib o'tiradi.
3. Nafas turini aniqlash uchun bemor krovatda yotgan bo'lishi kerak.
4. Bemorning ko'krak qismida kiyimlari bo'lmasligi kerak.
5. Bemoro yonida o'tirib, uni fikrini gap bilan chalg'itasiz.
6. Shu vaqt bemor nafas olib chiqarganda ko'krak qafasi ekskursiyasiga e'tibor berasiz.
7. Nafas olishda qovurg'alar aro mushaklar qisqarib, ko'krak qafasi yuqori ko'tarilsa.
8. Nafas chiqarganda ko'krak qafasi torayib bir oz pastga tushsa, ko'krak tipidagi nafas olish deyiladi.
9. Agar nafas olganda diafragma qisqarib, pastga harakatlansa.
10. Nafas chiqarganda diafragma bo'shashib, tepaga ko'tarilsa, diafragma nafasi deyiladi.
11. Agar nafas olganda qovurg'alar aro muskul va diafragma qisqarsa, aralash nafas olish deyiladi.



Nafas olish tizimida uchraydigan patologik holatlarda bemorlarni parvarish qilish

O'quvchi bajarishi kerak: nafas olish uchraydigan patologik holatlarda bemorlarni baholash uchun paypaslash, dukkillatish va eshitish

Kerakli jihozlar: sochiq, o'rin jildlar, sekundomer, tonometr, fonendoskop.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qat'iy yotish rejimi belgilanadi.
2. Terini quruq sochiq bilan artish, o'rin jildlarni va ichki kiyimni tez-tez almashtirish zarur.
3. Yelvizakdan va haddan tashqari sovishdan saqlanish lozim.
4. Xonadagi havo toza bo'lishi kerak, xonani kuniga bir necha marta shamollatish lozim.
5. Nafas soni, puls, arterial bosimni kuzatib borish lozim.
6. Zarur bo'lganda bemorga kislorodli yostiqdan kislorod bilan nafas oldirish kerak.
7. Ovqatni bo'lib-bo'lib, kichik porsiyalar bilan berish; yengil hazm bo'ladigan, D va S vitaminlarga boy, energetik quvvati yuqori bo'lgan parhez.



Eslatma: Nafas olish a'zolari kasalliklarida nafas olishga quyidagicha ta'sir etish mumkin.

1. Nafas olish yo'llarining o'tkazuvchanligini qayta tiklash.
2. Balg'am ko'chishini ta'minlash.
3. Nafas olishning maxsus rejimlari.
4. Shaxsiy nafas olishning o'rnini bosuvchi o'pkalarni sun'iy va yordamchi ventilyasiyasi.
5. Kislorod bilan ingalyasiya qilish.

Parvarish va kuzatuv natijalarini tibbiy varaqaga qayd qilib borish

O'quvchi bajarishi kerak: nafas olish sonini qayd qilishni

Kerakli jihozlar: sekundomer, F-003, F-004, ruchka

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira bemorning kasallik tarixi F-003 ni olib, uning ichida temperatura varaqasi F-004 ni ochadi.

2. Temperatura varaqasida bemorning funksional holati haqida to'liq ma'lumot har kun uchun alohida belgilanadi.

3. Bemordagi nafas soni varaqada har kun uchun alohida *nafas soni* nomli grafaga yoziladi.

Eslatma: Og'ir bemorlarda nafas soni har 2 soatda sanaladi va alohida varaqaga belgilanadi.

O'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: o'pkaning tiriklik sig'imini aniqlashni.

Kerakli jihozlar: spirometr, kasallik tarixi bayoni, ruchka, bemor.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorga muolaja mohiyati va maqsadini tushuntiring.
2. Spirometrga zararsizlantirilgan uchlikni o'rnatish.
3. Bemordan chuqur nafas olib, spirometrga puflashini so'rang.
4. O'lchashni 3 marta takrorlang.
5. Bu vaqtda spirometr ko'rsatkichga qarab, o'pkaning tiriklik sig'imi o'lchanadi.
6. Maksimal natijani qayt eting.
7. Uchlikni zararsizlantiruvchi eritmali idishga tashlang.



10-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Qon aylanish tizimini baholash uchun fizikal tekshiruvlar o'tkazish.

Tomir urishini turli sohalarda aniqlash

O'quvchi bajarishi kerak: tomir urishini turli sohalarda aniqlash

Kerakli jihozlar: sekundomer, harorat varaqasi, ruchka.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Sekundomeri bor soat tayyorlab qo'ying.
3. Bemorga muolaja maqsadini tushuntiring.
4. Bemorga qulay vaziyat egallashni taklif qiling.
5. Bemorning kaftini bilak-kaft bo'g'imi sohasida barmoqlaringiz bilan ushlang.
6. Bilak arteriyasi pulsatsiyasini 2, 3, 4-barmoqlaringiz bilan paypaslab aniqlang.
7. Pulsning to'liqligini aniqlang.
8. Pulsning tarangligini bilak suyagiga bosib aniqlang.
9. Pulsning ritmini aniqlang.
10. Puls zarbining sonini aniqlang:
 - a) agar ritm noto'g'ri bo'lsa - 1 minut ichida;
 - b) agar ritm to'g'ri bo'lsa - 15 sekund ichida sanab, natijani 4 karra ko'paytiring, 20 sekund ichida sanab, 3 karra ko'paytiring.
11. Natijaga baho bering.
12. Natijalarni bemorning tibbiy varaqasiga kiriting: raqamli natijalarini kasallik tarixiga, puls sonini grafik ko'rinishida harorat varaqasiga qizil qalam bilan.
13. Qo'llaringizni yuving, quriting.

Eslatma:

1. Pulsni chakka, uyqu va son arteriyalaridan ham aniqlash mumkin;
2. Pulsni sanashda barmoqlar asta-sekin bosiladi.

Puls o'lchanadigan nuqtalar



Chov arteriyasida



Uyqu arteriyasida



Oyoq panjasining dorsal arteriyasida



Bilak arteriyasida



Chakka arteriyasi



Tupiq arteriyasidan



Tirsak arteriyasida



Taqim arteriyasida

Arterial bosimini (A/B) o'lchash

O'quvchi bajarishi kerak: arterial bosimini (A/B) o'lchash

Kerakli jihozlar: tanometr, fonendoskop, harorat varaqasi, ruchka.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Bemorga muolaja maqsadi va tartibini tushuntiring.
3. Bemorni shunday joylashtiringki, uning qo'li tekis yuzada joylashsin.
4. Bemorning ko'lini kaftini yuqoriga qaratib, tirsak bo'g'imida yozgan holda joylashtiring.
5. Yelkani shunday ochingki, bunda kiyim yelkani manjetdan yuqorida siqmasligi kerak.
6. Tonometr manjetini bemorning ochiq yelkasiga tirsak bo'g'imidan 2-3 sm yuqorida, manjeta va yelka oraligiga 1 barmoq sigadigan darajada bo'shliq qoladigan qilib joylashtiring. Bunda rezina naychalar yon tarafda krlishi kerak.
7. Tonometrii manjeta bilan ulang.
8. Tonometr mili shkalaning 0 belgisiga nisbatan to'g'ri joylashtiring.
9. Shu qo'lingiz bilan bilak arteriyasining pulsasiyasini aniqlang.
10. Bo'sh qo'lingiz bilan rezina nokdagi ventelni yopib, manjetga havoni arteriyadagi pulsasiya yo'qolgunga qadar damlang.
11. Tonometr ko'rsatkichini eslab qoling.
12. Ventilni oching va havoni chiqara boshlang.
13. Fonendoskop boshchasini tirsak chuqurchasiga qo'ying.
14. Rezina nokdagi ventelni yopib, manjetaga avvalgi ko'rsatkichgacha va 20-30 mm. sim. ust. ga ko'proq havo yuboring.
15. Ventilni oching va havoni asta-sekinlik bilan chiqara boshlang, tonometrning mili yoki simob ustuni bir tekisda pasayib borishi kerak.
16. Fonendoskopdagi tovushlarni diqqat bilan tinglang, birinchi puls zarbi paydo bo'lgan paytni qayd qiling — bu sistolik bosimdir, birinchi bor eshitgan zarbga to'g'ri kelgan raqamni eslab qoling.
17. Fonendoskopdagi tovushlarni diqqat bilan tinglang, puls zarbalarini tugash paytini qayd qiling - bu diastolik bosimdir. Pulsasiya to'xtagan paytdagi ko'rsatkichni eslab qoling.
18. Havoni chiqarib yuboring, manjetani yechib oling. Bemorni avvalgi holatiga keltiring.

19.O'lchash natijasini baqolang. Kerak bo'lsa, shifokor kelgunga qadar yordamini ko'rsating.


20.A/B o'lchash ko'rsatkichlarini bemorning tibbiy varaqasiga kiriting: kasr ko'rinishida (suratida sistolik bosim, maxrajida diastolik bosim) va harorat varaqasiga grafik ko'rinishida.

21.Qo'llaringizni yuving, quriting.

Eslatma:

1. Arterial bosimni yelka arteriyasidan Korotkov usulida aniqlanadi;

2. Juda baland bo'lgan arterial bosim bemorga aytilmaydi (nojo'ya ta'siri uchun).



Qon aylanish tizimini baholash

O'quvchi bajarishi kerak: qon aylanish tizimini baholash

Kerakli jihozlar: qog'oz, ruchka.

Bemorni paypaslab, dukillatib va eshitib ko'rish.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorni muloqot o'tkazishga tayyorlang.

1. a) bemorni tayyorlang.

b) suhbatlashishga qulay joy tanlang.

v) qog'oz, ruchka, tayyorlang.

2. Bemorning shikoyatlarini yig'ing va aniqlang.

a) hansirash.

b) yurak sohasida va to'sh orqasida og'riq.

v) qon tupurish.

g) shishlar paydo bo'lishi.

d) o'ng qovurg'a ostida og'irlik va dispeptik shikoyatlar.

3. Qon tomir tizimi kasalliklariga tegishli shikoyatlar.

a) hansirash

b) patologik nafas paydo bo'lishi.

v) yurak sohasida og'riq.

g) yurakni tez urishi

d) qon tupurish

ye) shishlar.

j) dispeptik shikoyatlar.

z) distal falangalarning yo'g'onlashuvi

II. Kasallik tarixini aniqlang.

a) kasallikning rivojlanishi va kechishiga e'tibor beriladi.

b) kasallikning paydo bo'lish sababi va vaqtini aniqlang (angina, jismoniy zo'riqish, stress)

v) kasalxonaga tushguncha qanday davo va laborator tekshiruvlar o'tkazilgan.

g) kasallik paydo bo'lganidan to tekshiruvga kelguncha kasallik kechishida qanday o'zgarish bo'lgan.

d) bemordan oxirgi vaqt ichida kasalning ahvoli og'irlashuvi kuzatildimi.

III. Bemorning hayot tarixini aniqlang

a) yoshligida boshdan kechirgan kasalliklari.

b) qon tomir tizimi tug'ma nuqsonlari bormi.

v) qarindoshlarda qon tomir tizimi kasalliklari bormi.

g) zo'riqishlarni (psixologik) boshdan kechirganmi.

IV. Umumiy ahvolini aniqlang.

1. Umumiy ko'zdan kechirish.

a) bemor majmubriy holatni olgan bo'ladi, ya'ni yarim o'tirish holati.

b) teri va shilliq qavatlaridagi sianoz yoki oqimtirlikni aniqlang.

v) teri osti yog' qavatidagi shishlarni aniqlang

g) yurak sohasini ko'zdan kechiring (yurak bukrisi, pulsasiya)

2. Yurak palpasiyasi.

- a) yurak cho'qqisi turtkisini aniqlash uchun o'ng qo'lingizning ichki kafti shunday qo'yingki, barmoqlaringiz cho'qqi turtkisi sohasiga tushsin.
- b) lokalizasiyasi, kengligi, maydonini kattaligi va kuchini aniqlash uchun o'rta barmoq uchini shu sohaga qo'ying
- v) tomir urishini paypaslang

Yurak klapanlari joylashgan sohalar



Aortal klapan



O'pka arteriyasi



Botkin-Erb nuqtasi



Mitral klapan

Uch tavaqali klapan

3. Yurak perkussiyasi (nisbiy to'mtoqlik chegarasi).

- a) bemorga vertikal holat bering.
- b) o'pkaning pastki chegarasini aniqlab, plessimetr barmoqni yurakni o'ng chegarasiga parallel ravishda I qovurg'a yuqorisiga qo'ying (4 qovurg'a sohasi) va o'rta perkutor kuch bilan yurakka qarab urib keling.
- v) yurakning chap nisbiy chegarasini aniqlash uchun yurak cho'qqisi turtkisini aniqlang yoki I. axilaris media dan 5 qovurg'a oralig'i bo'yicha perkussiya qilib keling.
- g) Yurakni yuqori chegarasini aniqlash uchun plessimetr barmoqni tushning chap tomonidan qovurg'alarga parallel qo'yib, I qovurg'a oralig'idan pastga perkussiya qilib keling.



4. Yurak auskultasiyasi.

- a) bemorga qulay vaziyatda joylashtiring.
- b) bemorga o'ng tomondan yondashing
- v) stetoskop yordamida yurak tonlarini eshiting
- g) to'sh suyagining o'ng qirrasi bo'ylab, 2-qovurg'a oralig'ida (aorta klapani)
- d) to'sh suyagining chap qirrasi bo'ylab, 2-qovurg'a oralig'ida (o'pka arteriyasi klapani)
- ye) to'sh suyagining chap qirrasi bo'ylab 4-qovurg'a orasi (uch tabaqali klapan)
- j) chap o'mroq o'rta chizig'i bo'ylab, 5-qovurg'a oralig'i (ikki tabaqali klapan)
- z) xanjarsimon o'simta sohasi (Botkin – Erbe nuqtasi).

YURAK TONLARINI ESHITISH JOYI





Muolaja vaqtida bemor ahvolini kuzatib borish
Salomatlikni baholash Yozuv varaqasi (qon aylanish a'zolari tizimi)

	Kuzatish punktlari	Kuzatuvlar bo'yicha dalillar		Baholash
		Bemor shikoyatlari	Hamshira kuzatuvidan dalillar	
Bemor bilan suhbat	– Ko'krak qismidagi og'riq – Yurakning tez urishi – Nafas olishning qiyinlashuvi, xansirash – Umumiy holsizlik – Bosh aylanishi – Yurak-kon tomir tizimida funksional buzilishlar - extimoli – Boshqa punktlar	“Unchalik og'riq sezmayapman” “Faol harakatlanganda yoki 5-chi qavatgacha ko'tarilganimda yuragim tez uradi” “Nafas olish qiyinlashmayapti” “Jismoniy yuklamada hansirash paydo bo'ladi”	Ko'kragini ushlamayapti, og'riqning tashqi belgilari yo'q Bugungacha tinch holatda yurakning tez urishini sezmagan Tinch holatda nafas olish qiyinlashuvi hissi yo'q, nafas olishda yordamchi mushaklar ishtirok etmayapti	Umumiy holati normal, chunki ko'krak qismidagi og'riq va tinch holatda yurak tez urishi yo'q. NYKAning funksional tasnifi bo'yicha kundalik faolligida yurakning tez urishi va nafas olish qiyinlashuvi yo'qligi sababli bemor ahvoli normal.

Ko'zdan kechirish	– Sianoz – Rangpar – Shish – Yurak uchi pulsasiyasi – Buyinturuq venalarining burtishi – Ortopnoe – Ko'krak qafasini kuzatish – Distal falangalarning yo'g'onlashuvi	"Menga doim tirnoqlaring rangi yaxshi deb aytishadi" "Yuzim rangi oqargan deb aytishdi. Lekin aslida bu tabiiy rangim"	Tirnoklar, lablar va quloq suprasida sianoz yo'q. Gavda qismida ham sianoz yo'q. Oz rangi oqargan, lekin patologik emas. Ko'zlarning shilliq pardasi qizil rangda.	Kamqonlikda sianoz paydo bo'lmaydi. Qovog'i va ko'z shox pardasi qizil rangda bo'lgani uchun kamqonlik yo'q. Qon aylanishi yaxshi, to'qimalarga yetarlicha kislorod yetkazilayapti. Markaziy sianoz yo'q, shuning uchun yurakda organik muammolar yo'q deb
Paypaslash	• Teri holati • Puls (tezligi, ritmi, yetishmovchiligi) • Puls to'liqligi (yelka va bilak arteriyasida) • Pulsni aniqlash joylari (7 ta) Chap va o'ng bilak arteriyalarini sinxron paypaslash			
Auskultasiya	Yurak tonlari: S1 va S2 tonlarining nisbati $<$, $>$, $=$ belgilar yordamida ko'rsatilsin. 1) Aorta klapani sohasi 2) O'pka arteriyasi klapani sohasi 3) Uch tavakali klapan sohasi - Ikki tavakali klapan sohasi			

11-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Ovqat hazm qilish tizimini baholash uchun fizikal tekshiruvlar o'tkazish

Ovqat va suv qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan belgilar

Simptom. Ishtaha

Ishtahaning pasayishi odatda me'da-ichak traktining muhim hazm qiluvchi bezlarining sekretor funksiyasi buzilishida kuzatiladi. Ba'zida ishtahaning buzilishi quvvatsiz bemorlarning muvoffaqiyatli tuzalishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday bemorlarni ovqatlantirishda harakatlar puxta o'ylangan, bemorning odatlarini aniqlash, ovqatlanish tartibi va kelib chiqqan stereotiplarni o'rganish talab qilinadi.

Ishtaha yo'qolishi (asabiy holatdan kelib chiqqan anoreksiya) — bu shunday ruhiy holatki, unda kishi (ko'proq yosh ayollar) semirib ketishdan qo'rqib ovqat yeyishdan bosh tortadi. Anoreksiyaga chalingan bemor ayol aslida ozg'in bo'lishiga qaramay, o'zini juda semiz deb his qiladi. Ozgan sari anoreksiyaga chalingan ayollarda hayz ko'rish to'xtadi, teri sariqroq tusga kiradi, badanda tuk paydo bo'ladi. Shifokorga vaqtida murojaat qilinmasa, bu holat hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Baland ishtaha organizmning energetik sarflanishi o'zgarmasdan yuqori energetik quvvatli ovqatlarni ko'p miqdorda iste'mol qilinishi va tana vazni oshishi bilan kechadi. Bu holat asabiy stresslar, homiladorlik, ba'zi bir dorivor preparatlarni qabul qilish, gormonal o'zgarishlar (endokrin sistemasi o'zgarishlari) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Asabiy holatlar natijasida paydo bo'lgan anormal baland ishtaha «ozish kasalligi», asab anoreksiyasi turini ifodalaydi. Odatda, oz miqdorda ovqatlanishdan so'ng oylar yoki yillar o'tib, semirib ketish qo'rquvi qolgan bo'lishiga qaramasdan, yosh ayolda ovqatga doim intilish yoki ochko'zlik rivojlanishi mumkin. Ba'zida bemorlar ko'p miqdorda surg'i dorini iste'mol qiladilar. Bunday bemorlarda ochko'zlik va qusish xurujlari kuniga bir marta yoki bir necha marta bo'lishi mumkin. Og'ir hollarda ushbu holat suvsizlanish, quvvatsizlik, tomir tortishishga olib kelishi mumkin. Davolanishni kasalxonada olib borish maqsadga muvofiqdir.

Simptom. Chanqov

Chanqov — bu organizmda suv yetishmovchiligi ko'rsatkichidir. U to'qimalarda suv ushlanib qolishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin (yurak va buyrak shishlari, ichki sekresiya bezlari faoliyati buzilishi). Vaqtincha holat sifatida chanqov og'iz bo'shlig'i va halqumning qattiq

qurishi, shuningdek ularning yuzasidagi namlik tez bug'lanishi natijasida paydo bo'ladi (og'izning doim ochiqligi, burundan nafas olish buzilganda). Keskin ifodalangan chanqov atrof-muhitning yuqori haroratida ishlovchi shaxslarda, kuchli terlash tufayli organizmda suv va mineral tuzlarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Chanqov qandli va qandsiz diabetda ham yuzaga keladi. Bemorni parvarish qilishda chanqov lablarning shilliq qavati va og'iz bo'shlig'ining ho'llanishi bilan bartaraf qilinadi, ba'zi hollarda og'izni chayishga ruxsat beriladi, shundan so'ng bemor suvni tuflab tashlaydi.

Yutish, tish va qizilo'ngach bo'yicha ovqatning o'tishi

Simptom, Disfagiya

Disfagiya — bu qizilo'ngach yo'li bo'yicha ovqat luqmasi o'tish yo'lida turli xil to'sqinlik oqibatida paydo bo'lgan yutish aktining buzilishidir. Disfagiya asosan halqum kasalliklari (travmatik yoki yallig'lanish), asab sistemasi buzilishi, yutish aktida ishtirok etuvchi muskullar shikastlanishi, qizilo'ngachning (torayishi) qisilishi (shishlar, limfatik tugunlarning kattalashishi), qizilo'ngachning shilliq qavati shikastlanishi (jarohatlar, kuyish, yallig'lanish) natijasida vujudga keladi. Disfagiyaning asosiy belgisi — avval qattiq, so'ngra esa suyuq ovqatni ham yuta olmaslikdir. Bemorni shoshilinch ravishda shifokorga ko'rsatish va avaylovchi ovqatlantirish zarur. Ba'zi vaqtlarda kasallik operatsiyani talab qilishi mumkin va bemorning ovqatlanishi me'da va qorinning old devorini biriktiruvchi operatsiya teshigi — gastrostoma orqali amalga oshiriladi.

Eslatma: tomog'da yot jism, masalan baliq qiltanog'i tiqilib qolganda ham yutish qiyinlashishi mumkin. Halqum tekshirilayotgan vaqtda yaqinroqda yot jism aniqlansa, uni qisqich yordamida ehtiyotlik bilan olib tashlash zarur. Yot jism ko'rinmasa, lekin bemor tomondan nimadir tiqilganni his kilayottanidan shikoyat qilsa, zudlik bilan shifokorga murojaat qilish lozim.

Oshqozonda ovqat hazm qilishning buzilishi

Simptom. Jig'ildon qaynashi

Jig'ildon qaynashi — qizilo'ngach yo'lida achishishni his qilish. Kizilo'ngachning shilliq qavatiga nordon me'da suyuqligi tushishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pincha me'yordan ortiq kislotali me'da shirasi haddan tashqari ko'payib ketganda, ba'zida esa pasaygan yoki normal kislotali odamlarda ham uchraydi. Ko'p hollarda jig'ildon qaynashi oshqozonning shilliq qavati yallig'lanishi — gastrit yoki oshqozon yarasi kasalligida paydo buladi. Jig'ildon qaynaganda uning sababini aniqlab, shifokorga murojaat qilish zarur. Jig'ildon qaynashini to'xtatish uchun

kichik-kichik qultum bilan sut, ozgina ichimlik sodasi yoki bir kecha-kunduzda 3-4 mahal 1 qoshiqdan almagel ichish mumkin.

Simptom. Hiqichoq tutishi

Hiqichoq tutishi — diafragmaning tortishib qisqarishi natijasida to'satdan tovush chiqarib nafas olish. To'xtamaydigan hiqichoq tutishi — tezkor yordamni talab qiladigan o'ta og'ir ahvoldir. Qisqa vaqtli hiqichoq tutishi — oshqozon ovqatga (ayniqsa quruq ovqat) tez to'lishi natijasida paydo bo'ladi. Davomli hikichoq o't pufagi kasalliklarida, qorin bo'shlig'idagi jarrohlik operasiyalardan so'ng, ichaklarning tutilib qolishi, nevrozlar, miyadagi qon aylanish buzilishida yuzaga keladi. Bemorga yordam berish vaqtida uni tinchlantirib, qulay holat yaratish, kisib turgan kiyimlarini yechish, toza havo kiritish, bemorga bir necha qultum suv berish, nafasni bir oz ushlab urishni iltimos qilish zarur. Hiqichoq uzoq vaqg davom etganda, valeriana, 1—2 osh qoshiq 0,5 foizli novokain eritmasini ichish tavsiya qilinadi.

Simptom. Kekirik

Kekirik — qizilo'ngach orqali me'dadan gazlarning chiqishi. Kekirishda yutish vaqtida oshqozonga kirgan havo, shuningdek gazlar (oqsil parchalanishi va bij-g'ish natijasida hosil bo'lgan karbonat angidrid, serovodorod va metan) chiqi-shi mumkin. Bunday hollarda kekirik ko'pincha noxush hidli bo'ladi. Kekirik me'da va qorin pardasining refleksleri oqibatida paydo bo'ladi. Soglom kishida kekirik me'da ovqat bilan to'lib ketishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Me'da kasalliklarida kekirik nordon, o't pufagi kasalliklarida — hidlangan, me'da-da ko'p miqdorda havo yig'ilib qolganda — havoli bo'lishi mumkin. Kekirik kasallikning belgisi bo'lganligi sababli bemorga bezovtagarchilik yetkazayotgan ko'p kekirishda asosiy kasallikni davolash zarur. Agar kekirik ko'p ovqat yeyish oqibatida paydo bo'li, bir marta yeyiladigan ovqat miqdorini cheklash zarur. Ovqatdan so'ng yotmasdan, bir oz yurish kerak. Uyqudan oldin ovqat yeyilmaydi.

Simptom. Ko'ngil aynishi

Ko'ngil aynishi — to'sh osti sohasi va halqumda sodir bo'ladigan o'ziga xos noxushlik hissi. Ba'zida yuz terisi oqarishi, ter ajralishi kuchayishi, yurak urishi, sulak ajralishi va nafas olish harakatlarining sekinlashishi bilan kechadi. Ko'pincha qusish bilan tugaydi. Ko'ngil ayniganda kislotaliligi pasaygan bemorlarga ovqat vaqtida 1 osh qoshiq tabiiy me'da suvi yoki 1 dona serukal tabletkasi tayinlanadi. Alkogodsan

zaharlangan vaqtda oshqozonni yuvish, jigar kasalliklarida — o't haydash samarasini (shifokor maslahatidan so'ng) ta'minlash zarur.

Eslatma: Ko'ngil aynish xurujlari qiynayotgan bo'lsa, hеч narsa yemang, kichik-kichik qultumlar bilan oddiy qaynagan suvni ho'plang va yoting (ko'ngil aynish o'tib ketmaguncha yoki qusish ahvolingizni yaxshilamaguncha).

Simptom. Qusish

Qusish — me'da muskullari, diafragma, old krrin pardasi, shuningdek kichik til va yumshoq tanglay ishtirokidagi murakkab reflektor akt bo'lib, uning natijasida qusuq massalari me'dadan tashqariga og'iz orqali chiqariladi. Qusish asab sistemasi kasalligi, arterial gipertenziya, zaharlanish, til, halqum, yumshoq tanglay, me'da-ichak traktining shilliq qavati ta'sirlanishining belgisi bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda atayin qustirish zarur bo'lib qoladi, buning uchun til ildizini barmoq yoki shpatel bilan ta'sirlantirib, reflektor ta'sirdan foydalaniladi.

Qusishda birinchi yordam ko'rsatish

O'quvchi bajarishi kerak: qusishda birinchi yordam ko'rsatish

Kerakli jihozlari: kleyonkali fartuk, salfetka, tog'ora, chelak, og'izni chayish uchun suv, lotok.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorni tinchlantiring, uni o'tqazib, fartuk kiydiring yoki salfetka o'rang, oyoqlari ostiga tog'ora yoki chelak qo'ying.

2. Bemor qusayotganda bemorning peshanasiga qo'lingizni qo'yib, boshini ushlab turing.

3. Qusishdan keyin bemorga ogizni chayish uchun suv bering, yuzini, qo'lini yuvishga va yotishga yordam bering.

4. Tog'orani olib keting, zarur hollarda shifokorga qusuq massalarini ko'rsating. Bemorning holati: ahvoli og'ir bo'lsa, yonboshga yotqizib qo'ying (bemor hushsiz).

Bajarilishi:

1. Yostiqlar yordamida bemorni yonboshga o'giring yoki holatini o'zgartirish mumkin bo'lmaganda, qusuq massalari nafas yo'llariga tushmasligi uchun uning boshini yon tomonga o'giring; bemor doim nazorat ostida bo'lsin.

2. Bemorning bo'yni va ko'kragini salfetka yoki kleyonka bilan yoping.

3. Bemorning og'zi yoniga buyraksimon lotokni tuting.

4. Qusish tugagandan so'ng bemorning og'zini suv yoki 2 foizli natriy gidrokarbonat eritmasi bilan tozalang, zarur hollarda noksimon ballon bilan og'iz bo'shlig'idan qusuq massalarini maxsus asbob yordamida tortib oling.

5. Lotokni olib keting, zarur hollarda shifokorga qusuq massalarini ko'rsating.

Mumkin bo'lgan asoratlari: kofe quyqasi yoki to'q qizil qon (qon ketish belgilari)li qusuq massalari paydo bo'lganda bemorni zudlik bilan yotqizib, qorinning tepa qismiga muz solingan xaltachani qo'yib, shifokorni chaqiring.

Bemorga tavsiyalar: agar sizda xavf tug'dirmaydigan qusish bo'lganda, quyidagi maslahatlardan foydalaning:

- 1.Ko'ngil aynish va qusish o'tib ketmaguncha suyuq ovqat yemang.
- 2.Qusishni to'xtata olmasangiz ham ko'proq suyuqlik iching.
- 3.Chekmang.
- 4.Dori ichmang.

5.Ahvolingizni kuzatib turing, hayotingiz uchun xavotirlansangiz, shifokorni chaqirtiring.




12-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Hamshiralik jarayonini tahlil qilish, parvarish rejasini tuzish

Hamshiralik ishi jarayoni – bu inson oila jamiyatning jismoniy, ruhiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ilmiy asoslangan va amaliyotda bajariladigan bemorlarga yordam ko'rsatish bo'yicha harakatlari yig'indisidir. Uning maqsadi – bemorning ma'naviy darajasi va xulqiy qadriyatlarini hisobga olgan holda kasallik vaqtida imkon qadar jismoniy, ruhiy – ijtimoiy qulaylik yaratish orqali uning uchun odatiy hayot sifatini ta'minlash.

Hamshiralikning ish jarayoni bemorni parvarishlash vaqtida hamshiradan yuqori malakali amaliy ko'nikmalar bilan birgalikda, jonkuyarlikni ham talab qiladi. Bemorga muolaja obykti emas, balki shaxs sifatida munosabatda bo'lish lozim.

Hozirgi vaqtda hamshiralik ishi jarayonida quyidagi 5 bosqich tafovut etiladi:

1. Hamshira tekshiruv
2. Bemor muammolarini aniqlash va hamshiralik tashxisini qo'yish
3. Hamshira parvarishi maqsadlarini aniqlash va hamshiralik faoliyatini rejalashtirish.
4. Rejalashtirilgan maqsadlarni amalga oshirish.
5. Hamshira parvarishi samaradorligini baholash.



Eslatma: - asosiylari - yordamchi -

hamshiralik jarayoni

Hamshira tekshiruv.

Ushbu bosqichda tibbiyot hamshirasi bemor salomatligi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlaydi va bemorni kasallik varaqasiga qayd etadi.

Bemorni tekshirishdan maqsad u haqida va uning yordam so'rab murojat qilgan vaqtdagi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, asoslash va o'zaro uzviy bog'lash.

Mazkur tekshiruvlar sub'ektiv va obektiv xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Sub'ektiv ma'lumot manbalari:

1. Bemor salomatligi va holati to'g'risida o'z taxminlarini aytib beradi.

2. Bemorni yaqinlari va qarindoshlari.

Ob'yektiv ma'lumot manbalari:

1. Bemorni a'zo va tizimlar bo'yicha ob'yektiv tekshiruvlar

2. Kasallik tarixi va ambulatory kartasi bilan tanishuv

Bemor ahvolini umumiy baholash uchun tibbiyot hamshirasi quyidagilarni aniqlashi shart.

1. Bemorning umumiy ahvoli


2. Bemorning yotoq vaqtidagi holati

3. Bemorning es -hushi va holati

4. Bo'yi- vazn o'lchamlari to'g'risidagi ma'lumotlar

Tibbiyot hamshirasi bemor bilan muloqot jarayonida kasallik bilan kurashish uchun zarur bo'lgan ishonchli, iliq munosabatlarni o'rnatishga harakat qilishi lozim.

I bosqich Bemorning ahvolini baholash



Bemor muammolarini aniqlash va hamshiralik tashxisi qo'yish

Hamshiralik tashxisi (hamshiralik muammolari) tushunchasi ilk bor AQSHda 1973-yilda tan olingan va huquqiy kuchga kirgan. Amerikaning hamshiralar uyushmasi tomonidan tasdiqlangan hamshiralik muammolari ayni vaqtda 114 ta asosiy holatlarni o'z ichiga oladi.

Jumladan tananing yuqori harorati (Gipertermiya) og'riq ruhiy zo'riqish ijtimoiy yakkalanish shaxsiy tozalikka yetarlicha etiborsizlik, bezovtalanish, jismoniy faollikning sustlashishi va boshqalar.

Hamshira tashxisi – hamshira tekshiruvi natijalarida bemorda aniqlangan va hamshira aralashuvini talab etuvchi salomatlik holatidir.

Bu ko'p hollarda bemor shikoyatlariga asoslangan belgi yoki uning holatini ifoda etuvchi tashxisdir.

Hamshiralik muammolarini jismoniy, ruhiy ma'naviy va ijtimoiy sinflarga bo'lish mumkin. Undan tashqari, hamshiralik muammolarini quydagi turlari farqlanadi:

Mavjud – bemorni ayni vaqtda bezovta qilayotgan muammolar (masalan, og'riq, hansirash, shishlar)

Ehtimolli – bu ayni vaqtda mavjud emas, lekin ma'lum vaqt o'tgach yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar (masalan, harakatsiz bemorda yotoq yaralar paydo bo'lish, tez-tez ich ketish va qayd qilishda suvsizlanishning rivojlanish xavfi).

Muammolarning 2 turini aniqlagach, hamshira ularning rivojlanishiga sharoit yaratuvchi yoki paydo bo'lishiga olib keluvchi omillarni, shuningdek, bemordagi muammolarga qarshi qo'ya olish mumkin bo'lgan kuchli tomonlarni aniqlaydi.

Bemorda aksariyat hollarda bir nechta muammo bo'lishi sababli hamshira ulardan ustuvorlarini farqlay bilishi kerak. Bunda birlamchi, ikkilamchi va oraliq muammolar farqlanadi. Ustuvorlari bemorda mavjud eng muhim muammolarning ketma ketligi bo'lib, ular hamshira aralashuvida navbatma-navbat amalga oshirilishi lozim bo'lgan muolajalarni aniqlash uchun zarur hamda 2-3 tadan oshmasligi kerak.

Bemor davolanmaganda, uning hayotiga taxdid soluvchi muammolar asosiy, ya'ni ustuvor hisoblanadi.

Oraliq- bemor hayoti uchun xavfsiz bo'lgan muammolar.


Bemor kasalligi yoki uning oqibatiga bevosita aloqasi bo'lmagan muammolar ikkilamchi ustuvorlikka ega (masalan, umurtqa pog'onasi jaroxati mavjud bo'lgan bemorda birlamchi muammo – og'riq, oraliq – harakat cheklanishi, ikkilamchi muammo – bezovtalanish hissi).

Ustuvor muammolarni tanlash mezonlari:

- Barcha shoshilinch holatlar masalan, yurakda o'tkir og'riq, o'pkadan qon ketish rivojlanish xavfi va boshqalar.
- Ayni vaqtda u bemor uchun eng og'ir uni ko'p bezovta qilayotgan muammodir. Masalan, yurak xastaligi mavjud bo'lganda to'sh ortidagi og'riqlar, bosh og'rig'i, shish, xansirash hurujlari bezovta qilayotgan bemor, hansirashning o'zini asosiy muammosi sifatida ko'rsatishi mumkin. Bu holatda "hansirash" hamshira uchun bemorlarning ustuvor muammosi hisoblanadi.
- Bemor ahvolining og'irlashishiga va turli asoratlarga olib kelishi mumkin bo'lgan muammolar. Masalan, harakatsiz bemorda yotoq yaralar rivojlanish xavfi.
- O'zi bartaraf etilganda boshqa bir qator muammolarning hal etilishiga olib keluvchi muammolar. Masalan, bemorda muvaffaqiyatli o'tkazilgan jarroxlik amaliyoti qo'rquvning susayishi, uyqu, ishtaxa va kayfiyatning yaxshilanishiga olib keladi.

Hamshiralik jarayoning ikkinchi bosqichi, yani navbatdagi vazifasi hamshiralik tashxisi – bemorning kasallik va o'z ahvoliga nisbatan reaksiyasini aniqlashdan iboratdir.

Muayyan kasallik yoki patologik jarayon mohiyatini aniqlashga qaratilgan vrachlik tashxisidan farqli o'laroq, hamshira tashxisi har kuni hattoki, kasallikka nisbatan organizm reaksiyasiga ko'ra kun davomida bir necha marta o'zgarishi mumkin.



Hamshira parvarishi maqsadlarini aniqlash va hamshiralik faoliyatini rejalashtirish

Bemor tekshirilib, tashxis qo'yilib, ustuvor muammolar aniqlangach, hamshira parvarishi maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning muddati, shuningdek, qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan hamshiralik harakati va uslubi ishlab chiqariladi.

Kasallik tabiiy kechishi uchun to'g'ri parvarish yo'lini tanlash orqali asoratlarga olib keluvchi barcha omillarni bartaraf etish.

Ustuvor muammoni hal qilishni rejalashtirishda bemorni parvarishlashning maqsad va rejasi yaratiladi. Qo'yilgan maqsadning 2 turim farqlanadi.

Qisqa muddatli (odatda 1-2 hafta ichida bajarilishi lozim), uzoq muddatli ularga uzoq vaqt moboynda erishilib kassaliklarning qaytalanishi, asoratlarning oldini olish, profilaktika, reabilitatsiya va ijtimoiy ko'nikmalar paydo qilish va tibbiy bilimlarni egallashga yo'naltirilgan.


Har bir maqsad 3 tarkibiy qismdan iborat.

1. Harakatlar
2. Mezonlar – sana, vaqt, masofa.
3. Sharoit – birorta shaxs (yoki narsa ko'magida).

Maqsadlar belgilangach, hamshira bemorni parvarishlash rejasini tuzadi va unda erishish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlar to'liq sanab o'tiladi.

Hamshira parvarishining maqsadi vrach darajasi emas, balki hamshiraga tegishli vazifalarni bajarishi lozim.

Hamshira maqsadni belgilagach va parvarish rejasini tuzgach o'z harakatlarini bemorga tushuntirishi, uning roziligini va hayrixoxligini olishi, qo'llab quvvatlashishiga erishishi zarur. Ushbu harakatlari orqali u maqsadga erishish mumkinligini isbotlab hamda ularga erishish yo'llarini birgalikda aniqlab bemorni ijobiy natijalarga yo'naltiradi.



13- Amaliy mashg'ulot mavzusi: Hamshiralik jarayonini amalga oshirish, natijani baholash

Hamshiralik jarayonini amalga oshirish natijani baholash maqsadi kasalliklar profilaktikasi bemorlarni tekshirish, davolash va reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiyot hamshirasi qo'llaydigan tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Hamshiralik aralashuvining 3 ta toifasi mavjud: Mustaqil, qaram, o'zaro qaram.

Toifa bemor ehtiyojidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Mustaqil – umumiy amaliyot vrachi yoki boshqa mutaxassislar tomonidan ko'rsatma berilmagan bo'lsa ham tibbiyot hamshirasi shaxsiy faollik ko'rsatib o'z mulohazalaridan kelib chiqib, amalga oshiradigan harakatlar yig'indisi ko'zda tutiladi. (Masalan tana harorati, A/B, tomir urishini o'lchash).

Qaram – vrachning yozma ko'rsatmalari va uning bevosita nazorati ostida bajariladi. (masalan, inyeksiyalar, asbobiy va laborator tekchiruvlar o'tkazish).

O'zaro qaram – tibbiyot hamshirasining umumiy amaliyot vrachi va boshqa mutaxassislar bilan birgalikdagi faoliyati (masalan, jarroxlik amaliyoti vaqtida hamshira harakati).

Bemorning tibbiy yordamga ehtiyoji vaqtincha, doimiy va tiklash (reabilitatsiya) xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

Vaqtincha – o'zini parvarishlash imkoniyati cheklangan, oyoq va qo'llari shikastlangan, mayda jarroxlik amaliyotlari o'tkazgan kishilarga.


Doimiy - bemorga butun hayoti davomida yordam talab etiladi. Ushbu holatlarga oyoqlar amputatsiyasi, umurtqa pog'onasi va tos suyaklarining asoratli jarixatlari va boshqalar kiradi.

Tibbiy tiklash, yani reabilitatsiya yordami – uzoq muddat davom etuvchi jarayon. Masalan, davolovchi jismoniy tarbiya, uqalash, nafas gimnastikasi, bemor bilan suxbat va boshqalar.

Hamshira rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirishda quyidagi 2 ta muhim muammoni hal etadi:

1. Vrach ko'rsatmalariga nisbatan bemor reaksiyasini kuzatish va nazorat qilish, olingan natijalarni hamshiralik kasallik tarixiga (kartaga) qayd etish;

2. Hamshiralik tashxisi bilan bog'liq harakatlarga nisbatan bemorning reaksiyasini kuzatish, nazorat qilish, olingan natijalarni hamshiralik kasallik tarixiga (kartaga) qayd etish.



Hamshira parvarishi samaradorligini baholash

Hamshira parvarishi samaradorligini baholash asosiy maqsadi hamshiralik parvarishiga bemorning reaksiyasi va olingan natijalarni baholash, ko'rsatgan yordam tahlili hamda xulosa chiqarishdan iborat. Hamshira parvarishini baholashda quyidagi omillar manba va mezon bo'lib xizmat qiladi:

1. Hamshira parvarishini, maqsadiga erishish darajasini baholash.
2. Bemorning hamshira muolajalariga, tibbiyot xodimlari davolashga nisbatan reaksiyasini kasalxonadan qoniqish hissi va istaklarini baholash.
3. Hamshira ko'rsatgan yordamning bemor ahvoliga ta'sir samaradorligini baholash.
4. Bemorning boshqa mavjud muammolarini faol izlab topish va baholash.

Zarurat tug'ilgan hollarda hamshiralik tadbirlari rejasi qayta ko'riladi, ba'zan u to'xtatiladi yoki o'zgartirishlar kiritiladi. Aniq maqsadga erishilmagan hollarda, baholash ularga erishish uchun to'sqinlik qilayotgan ayrim omillarni qayta ko'rish imkonini yaratadi. Hamshiralik jarayonining yakuni samarasiz tugagan holda kamchiliklarni aniqlash va hamshiralik tadbirlari rejasini o'zgartirish uchun jarayon takroran bosqichma bosqich qayta amalga oshiriladi.

Erishilgan va kutilgan natijalarni bir-biri bilan taqqoslash hamshiradan chuqur fikrlash qobiliyatini talab etadi. Maqsadlarga erishilgan, ya'ni muammo hal qilingan hollarda, hamshira maxsus kartada monand yozuvlarni qayd etadi, imzo chekadi va sanani yozib quyadi. Barcha bajarilgan muolajalar hamshiraning hujjatlarida aks etishi lozim.

Muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini yuritish.

1 – MASALA

61 yoshdagi erkak kishi. 2016 yil 5 mart kuni soat 17⁰⁰ atrofida shifoxonaga "kofe quyqasi" ga o'xshash qusuq bo'lganligi uchun kelgan. Bemorda quyidagi shikoyatlari bor: epigastral sohada ko'proq kechasi "och qorin" holatida bezovta qiladigan og'riq, uning ovqatlangandan so'ng 2-3 soatga yo'qolishi va yana boshlanishi aniqlandi.

"Kofe quyqasi"ga o'xshash qusgandan so'ng og'riq to'xtagan, ammo bemorda umumiy bo'shashishlik (lanjlik) boshlangan, boshi aylangan.

Kasallikning dastlabki belgilari 6 yil oldin boshlangan. Bemor bir yil oldin gastroenterologik bo'limda eroziya gastriti bilan davolangan. Kasallikning oxirgi qaytalanishi bundan bir hafta oldin asab-ruhiy zo'riqishga boshlanmoqda.

Obyektiv tekshirishlarda: teri va shilliq qavatlar oqargan. Tilni oq karash bog'lagan, nam holda. Puls minutiga 89 marotaba, arterial bosim 107/63 mm sm ustuniga teng. Qorin palpasiya qilinganda yumshoq, epigastral sohada sezilarli holda qorin muskullari taranglashgan.

Qon tahlili: eritrositlar $4,5 \times 10^{12}$ g/l, nv – 103 g/l.

Xotini bilan birga qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Xotini 38 yoshda, ularning 3 tasi qiz 2 tasi o'g'il. Kichkina qizidan tashqari barcha farzandlari oilali bo'lib alohida yashaydi.

Uch kishi bo'lib yashaydi. Qizi maktabda dars beradi. Bemorning xotini yuragi yomonligi sababli tez charchaydi va xo'jalikdagi ishlarni to'la bajara olmaydi. Oilaning iqtisodiy ahvoli unga yaxshi emas, juda oddiy hayot kechiradilar. Daromadlar ham kechirish uchun zo'rg'a yetadi. Oziq-ovqat bilan qiyinchilik yo'q, chunki oilaning o'z xo'jaligi bor.

Asosiy davolash vositalari:

1. Kalsiy xlor eritmasi 10% - 10,0 v/v.
2. Vikasol eritmasi 1% - 1,0 muskul orasiga
3. Aminokapronat eritmasi 5% - 200,0 vena ichiga tomchilab

1. Hamshira tashhisini qo'ying.

2. Hamshiralik yozuvini yuriting.

2 – MASALA

Shifoxonaga 2016 yil 10 aprel soat 11 da quyidagi shikoyatlar: isitma, nafas olishning qiyinlashuvi, o'ng ko'krak sohasidagi og'riq, yo'tal, darmonsizlik bilan bemor murojaat qildi. Bemor Sultanova Sanobar Qurbonova 1964 yil 29 martda tug'ilgan. Millati o'zbek. Yashash manzili Samarqand shahar A.Temur ko'chasi 9-uy. Tel: 299-65-56

Samarqand shahrining O'zbekiston ko'chasi 75-uyda joylashgan Xalq bankida hisobchi bo'lib ishlaydi. Oilali, eri va 2 farzandi bilan yashaydi.

Bemorning so'ziga qaraganda 1 hafta oldin yo'tala boshlagan, holsizlanib, yaxshi ishlay olmagan. Nafas olishi qiyinlasha boshlagan. Uyda besiptol, analgin, doktor Mom dorilarini mustaqil ichgan, lekin samarasi bo'lmagan.

Dori ichganiga qaramasdan bemorning tana harorati ko'tarilib, nafas olishi qiyinlashgan, yurishga madori qolmagan, kuchli ter bosib, hansiray boshlagan. Yuqori isitma natijasida alahsiray boshlagan. Shuning uchun shifoxonaga eri olib kelgan.

Boshdan kechgan kasalliklari: virusli gepatit A, qizamiq.

Obyektiv tekshirganda: umumiy ahvoli og'ir, bo'yi 164 sm, vazni 80 kg, harorati 39,5°S. Yuz terisi qizargan, lablari ko'kargan ko'zdan yosh oqayapti. Puls 100 marta daqiqada, qon bosimi 130/90 mm sm ust. Nafas olish maromi 26 marta daqiqada. Kuniga 1 marta axlat, 4 marta siydik ajratadi. Harakatlanishda yordamga muhtoj, uyqusi yomon, ishtahasi yo'q. Sezuvchanligi buzilmagan, orasta, zararli odatlari yo'q. O'ng ko'krak qafasida kuchli og'riq uni havotirga solayapti.

Klinika-laboratoriya tekshiruv natijalari:

1. Qon tahlili – gemoglobin 90 mg/%, leykositoz 11000, EChT 25 mm/s;
2. Siydik tahlili – normada;
3. Rentgenologik tekshiruv xulosasi – o'ng o'pka o'rta bo'lagi oldingi bo'lagida qora dog'.

1. Hamshira tashhisini qo'ying.

2. Hamshiralik yozuvini yuriting.

3 – MASALA

Bemor S.A. 43 yoshda erkak kishi.

2016 yil 15 mart kuni ertalab soat 8⁰⁰ da tez tibbiy yordam mashinasida shifoxonaning qabul bo'limiga olib kelindi. Shikoyatlari:

qattiq bosh og'rish, yurak o'ynashi, yurak sohasida va to'sh orqasidagi og'riq, hansirash, o'lim vahimasini sezayotgani.

Obyektiv tekshirganda: bemor betoqat, rangi oqargan, arterial bosimi 260/140 mm sm ust ga teng. Puls minutiga 120 marotaba, guruhli ekstrasistoliya aniqlanmoqda. EKG natijasida – T – tishga chuqur manfiy holatda, qorinchalar guruhli ekstrasistoliyasi. Nafas olish minutiga 20 marotaba.

Bemor 6 yildan beri gipertoniya kasalligi bilan dispanser hisobida turadi. Gipotenziv preparatlardan enam ichib yuradi. Shifoxonada faqat bir marta yotib davolangan.

Sanitariya – kurortlarida davolanmagan. Yoshligida qizamiq, parotit kasalligini boshdan kechirgan.

Katta bir korxonada rahbar bo'lib ishlaydi. Oilali xotini 40 yoshda, 4 ta bolasi bor, 2 ta qiz 2 ta o'g'il, 2 ta qizi turmushga chiqqan. Alohida yashaydi. Oilada 4 talasi birga yashaydi. Iqtisodiy jihatdan juda yaxshi ta'minlangan.

Ziyofatni juda yaxshi ko'radi. Bir kun avval mehmondorchilikda do'stlari bilan spirtli ichimlik ichgan, qo'y go'shtli ovqat yegan.

Bemor o'z kasalidan ya'ni tuzalib ketamanmi? deb va korxona ishidan juda havotirda, reja bo'yicha taftish o'tkazilishi yaqin kunlarga belgilangan edi.

1. Magniy sulfat
2. Furosemid
3. Klofelin
4. Dibazol
5. Eufillin
6. Obzidin
7. Bemorni tinchlantirish
8. Chalg'ituvchi vositalar (yoqa sohasiga gorchichniklar oyoqqa issiq vannalar) ni qo'yish.
9. So'rg'ichsimon o'simtaga zuluklar qo'yish.
1. Hamshira tashhisini qo'ying.
2. Hamshiralik yozuvini yuriting.

14-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Dezinfektsiyalovchi vositalarni tayyorlash va ishlashda texnika xavfsizligi

Dezinfektsiyalovchi eritmalar bilan ishlash qoidalarini

O'quvchi bajarishi kerak: dezinfektsiyalovchi eritmalar bilan ishlash qoidalarini

Kerakli jihozlar: zararsizlantiruvchi eritma, fartuk, niqob, qo'lqop, satil, yog'och kurakcha, ruchka.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Zararsizlantiruvchi vositalarning saqlash qoidalariga amal qilish.
2. Quruq va salqin joyda, qorong'u joyda saqlash kerak.
3. Davolash-profilaktika muassasalarida zararsizlantiruvchi vositalar qulflangan holda saqlanadi.
4. Hamshira bemorlar va hodimlar uchun mo'ljallangan tibbiy anjomlarni sterilizasiyadan oldin tozalash lozim.
5. Hamshira ehtiyot havsizligiga belgilangan qoidalarga rioya qilish kerak.
6. Hamshira texnika havsizligi va kimyoviy moddalar bilan ishlashni bilishi shart.
7. Hamshira dezinfektsiyalovchi moddalarni tayyorlash, idishlarga quyish, alohida ventilyasiya uskunasini bilan jihozlangan xonada o'tkazishi shart.
8. Hamshira dezinfektsiyalovchi eritma tayyorlashda qo'lga rezina qo'lqop kiyishi kerak.
9. Hamshira yuzga niqob yoki universal respirator (RU-60) tutilib, fartuk taqilishi shart.
10. Ish tugagach qo'llar yuvilib quritiladi, krem surtiladi.

Eslatma: Dezinfektsiyalovchi vositalarni bemor tegmaydigan, alohida xonada saqlash lozim.

Xlorli ohak eritmalarini tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: xlorli ohak eritmalarini tayyorlashni

Kerakli jihozlar: 1 kg xlorli ohak, tarozi, 10 litrli bak, yog'och kurakcha.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Oldindan kerakli narsalarni tayyorlar olinadi.
2. Tarozidan 1 kg xlorli ohakni tortib olib, uni osti zich yopiladigan idishga ya'ni bakka solinadi.
3. Uning ustiga 10 litr suvni 2-3 litri solinadi.

4. Keyin suvning qolgan qismi solinadi va yaxshilab aralashtiriladi.
5. Bu eritmali idish og'zi zich yopilgan holda qorong'i joyda saqlanadi, 1 sutkaga qo'yiladi.
6. 1 sutkadan so'ng idishdagi eritma, boshqa idishga quyib olinib, cho'kmasidan ajratiladi.
7. Bu eritma 10% li xlorli ohak eritmasi bo'lib, undan har xil kerakli ishchi eritmalar tayyorlanadi.
8. 1% li eritma tayyorlash uchun 10% li, ohakdan 500 ml olinib 0,5ml suv qo'shiladi.
9. 1% li eritmani 10 litr hisobida tayyorlash uchun, ishchi eritmadan 1 litr olinib ustiga 9 litr suv qo'shiladi.
10. 2% li eritmani 1 litr suv hisobida tayyorlash uchun asosiy eritmadan 200 ml olib, 800 ml suv qo'shiladi.
11. 2% eritmani 10 litr hisobida tayyorlash uchun asosiy eritmadan 2 litr olib 8 litr suv qo'shiladi.
12. 3% li eritma 1 litr hisobida tayyorlash uchun ishchi eritmadan 300 ml olinib, 700ml suv qo'shiladi.
13. 3% li eritma 10 litr hisobida tayyorlash uchun ishchi eritmadan 3 litr olib 7 litr suv qo'shiladi.

Eslatma: Sifatli xlor ohagidan kuchli xlor hidi kelib turadi. 10% li xlorli ohak eritmasini 6 sutkagacha saqlash mumkin.

Xlorli ohak eritmalarini tayyorlash

Xlorli ohak eritmasini 1 litr suv hajmida tayyorlash

Kam foizli eritma	10% li tiniq xlorli ohak eritmasi	Suv	Tayyor eritma
0,5%	50 ml	950 ml	1 litr
1%	100 ml	900 ml	1 litr
2%	200 ml	800 ml	1 litr
3%	300 ml	700 ml	1 litr
5%	500 ml	500 ml	1 litr

Xlorli ohak eritmasini 10 litr suv hajmida tayyorlash

Kam foizli eritma	10% li tiniq xlorli ohak eritmasi	Suv	Tayyor eritma
0,5%	500 ml	9,5 litr	10 litr
1%	1 litr	9 litr	10 litr
2%	2 litr	8 litr	10 litr
3%	3 litr	7 litr	10 litr
5%	5 litr	5 litr	10 litr

Xloramin eritmasini tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: bo'limda kundalik va joriy tozalash ishlarini o'tkazish.

Kerakli jihozlar: xloramin poroshogi, 10 litrli bak, tarozi, menzurka.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Xloramin poroshogidan eritmalar tayyorlash uchun 0,2 % li eritma tayyorlashda 2 gr xloramin olinib 1 litr suv qo'shiladi.

2. 0,3% li eritma tayyorlash uchun 3 gr xloramin olinib 1 litr suv qo'shiladi

3. 0,5% li eritma tayyorlash uchun 5 gr xloramin olib 950 ml suv qo'shiladi

4. 1% li eritma tayyorlash uchun 10 gr xloramin olinib 990 ml suv qo'shiladi.

Eslatma: Xloramin poroshogi tarkibida 24 - 28% gacha aktiv xlor bo'ladi. Xloramin eritmaları bevosita ishlatishdan oldin tayyorlanadi. Idishlarga eritma foizi va tayyorlangan vaqti yozib qo'yiladi

Xloramin eritmasini tayyorlash jadvali

Kam foizli eritma	1 litr suv hisobida	5 litr suv hisobida	10 litr suv hisobida
0,5%	5,0 gr xloramin	25,0 gr xloramin	50,0 gr xloramin
1%	10,0 gr xloramin	50,0 gr xloramin	100,0 gr xloramin
2%	20,0 gr xloramin	100,0 gr xloramin	200,0 gr xloramin
3%	30,0 gr xloramin	150,0 gr xloramin	300,0 gr xloramin
5%	50,0 gr xloramin	250,0 gr xloramin	500,0 gr xloramin

Xloramin eritmasini tayyorlash formulasi

$$\text{Suvning umumiy miqdori } (H_2O) = \left(\frac{\% \text{ konsentrat}}{\% \text{ eritma}} \right)$$

$$\text{Suvning umumiy miqdori } (H_2O) = \left(\frac{5,0 \%}{0,5 \%} \right) - 1 = 10 - 1 = 9$$

Bir qism konsentratga 9 qism suv qo'shiladi 0.5% li xloramin eritmasi hosil bo'ladi (5%li konsentratdan)

Xloramin eritmani quruq parashokdan tayyorlash formulasi

$$\text{Gramm/litr} = \left(\frac{\% \text{ eritma}}{\% \text{ konsentrat}} \right)$$

$$\text{Gramm/litr} = \left(\frac{5 \% \text{ eritma}}{35 \% \text{ konsentrat}} \right) \times 1000 = 14,2 \text{ Gramm/litr}$$

0.5 % li xlor eritmasini 35% li quruq parashokdan tayyorlash uchun 1 litr suvga 14.2 gramm poroshok qo'shiladi.



Qo'lni gigiyenik yuvish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: qo'lni gigiyenik yuvishni

Kerakli jihozlar: suyuq sovun, suv, steril salfetka

Muolajani bajarish algoritmi

1. Kaft bir-biriga ishqalanadi



2. O'ng qo'l kafti chap qo'l kaftining ustki tomoniga, chap qo'l kafti esa o'ng qo'l kaftining ustki tomoniga



3. Ikkala qo'l bir biriga, barmoqlar bir-birini changallagan va bo'sh qo'ygan holda



4. Bir qo'lning barmoqlari yig'ilgan holatda ikkinchi qo'l kafti tozalanadi



5. O'ng qo'l bosh barmog'ini chap qo'l kaftining aylanma harakatlari bilan, chap qo'l barmog'ini esa o'ng qo'l aylanma harakatlari bilan



6. Barmoqlar uchini qarama-qarshi qo'l kaftiga aylanma harakatlar yordamida ishqalab tozalash



7. Qo'lni paxta sochiq bilan quritib, kranni yopish lozim

Eslatma: Agarda paxta sochiqlar bo'lmasa, zinxor umumiy sochiqdan foydalanish mumkin emas. Paxta sochiqlar o'rniga har bir kishi uchun aloxida, kattaligi 30X30 sm bo'lgan toza mato bo'laklari ishlatilishi mumkin, foydalanilgandan so'ng ularni yuvish uchun maxsus idishga tashlanadi.

Muolaja xonasini tozalash

O'quvchi bajarishi kerak: muolaja xonasini tozalashni

Kerakli jihozlar: 0,5 xloramin eritmasi, satil, salfetka

Oldindan yig'ishtirib tozalash.

1. Hamshira kiyimlarini almashtiradi.
2. Steril stolni ishga tayyorlaydi.

3. 0,5% xloramin eritmasiga ho'llangan latta bilan gorizontal sathlarni artadi.

4. Jihozlarni ustini nam latta bilan artib chiqadi.

5. Muolaja xonasi shamollatiladi.

6. Bakteriosid lampani 1 soatga yoqib qoldiriladi.

Kundalik tozalash.

1. Muolaja xonasi havosi almashtiriladi.

2. Polga tushgan paxta bo'lakchalari terib olinadi.

3. Dezinfeksiyalovchi eritmaga ho'llangan latta bilan qondan ifloslangan joy artiladi.

4. Xona nam latta bilan changdan tozalanadi.

5. Hamshira qo'llarini yuvadi.

6. Kvars lampasi 45 daqiqaga yoqiladi.

Yakuniy tozalash.

1. Kun oxirida muolaja xonasi jihozlari dezinfeksiyalovchi eritma bilan yuviladi.

2. Steril stol tozalanadi.

3. Ishlatilgan shprislar qismlarga bo'linib, tashlanadi.

4. Devorlar odam bo'yi yetadigan joygacha artiladi.

5. Pol yuviladi.

6. Kvars lampasi yoqib qo'yiladi.

Batamom tozalash.

1. Jihozlar (yuviladi) dezinfeksiyalovchi eritma yordamida yuviladi.

2. Shift artiladi.

3. Devorlar yuqoridan pastga qarab yuviladi.

4. Deraza oynalari va romlari yuviladi.

5. Pol yuviladi.

6. Kvars lampasi 2 soat davomida yoqib qo'yiladi.

Eslatma: Kvars lampasi yoqilgan vaqtda xonada hych kim bo'lmasligi kerak.



Parvarish ashyolarini dezinfeksiya qilish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: parvarish ashyolarini dezinfeksiya qilishni

Kerakli jihozlar: dezinfeksiyalovchi eritma, idish, suv, cho'tka.

Muolajani bajarish algoritmi

Rezina buyumlarni dezinfeksiya qilish

1. Qo'larini yuving va quruting.
2. Idish va suv tayyorlab qo'ying.
3. Buyumni idishda yuving, ichki kanallari bo'lsa ulardan suv o'tkazib yuboring.
4. Yuvindi suvlarga quruq xlori ohak (1 l suvga 200 gr hisobidan) tashlang va 1 soatdan so'ng to'kib tashlang.
5. Rezina buyumlarni quyidagi usullardan birini qo'llab dezinfeksiya qiling.

Eslatma: Rezina buyumlar yoki ularning bemor shilliq qavatiga tegmaydigan qismlari dezinfeksiyasi dezinfeksiyalovchi eritma bilan 2 marotiba artish bilan amalga oshiriladi.

Qonga tegadigan tibbiy asboblari, shprislar va ignalarni dezinfeksiya qilish

O'quvchi bajarishi kerak: qonga tegadigan tibbiy asboblari, shprislar va ignalarni dezinfeksiya qilish

Kerakli jihozlar: dezinfeksiyalovchi eritma, idish, suv, cho'tka

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'larni yuving va quriting.
2. Idish va suv tayyorlab qo'ying.
3. Qon bilan ifloslangan asboblarni, idishlarni ichki kanallari orqali suv o'tkazish yo'li bilan yuvib tashlang.
4. Yuvindi suvlarga quruq xlori ohak (1 l suvga 200 gr hisobidan) tashlang va 1 soatdan so'ng to'kib tashlang.
5. Asboblari, shprislar va ignalarni quyidagi usullarning biridan foydalanib sterillang.

Tibbiy asboblarni dezinfeksiya qilish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: tibbiy asboblarni dezinfeksiya qilishni

Kerakli jihozlar: dezinfeksiyalovchi eritma, idish, suv, cho'tka

Muolajani bajarish algoritmi

Qaynatish yo'li bilan sterillash

1. Asboblari (masalan shpris va ignalarni) idish ichiga soling.
2. Asboblari yuzasi yopilguncha distilangan suv quying.
3. Qaynating va qaynatishni 30 minut davom ettiring.

Eslatma: Ichimlik sodaning 2% eritmasidan qaynatish 15 minut davom ettiriladi.

Bug'latish yo'li bilan sterillash

1. Asboblari, shprislar, ignalar qismlarga ajratilgan holda quti yoki idish (lotok) larga joylang.

2. Avtoklavga joylang va dezinfeksiyalang:

Bosim R - 0,05 mPa.

Harorat t - 110°C.

Vaqt - 20 daqiqa

Havo bilan sterillash

1. Asbob, shprislar, ignalar qismlarga ajratilgan holda idish (lotok) larga joylang.

2. Idishlarni quruq issiqlik shkaflariga joylashtiring.

3. Dezinfeksiyalang:

Harorat t - 120°C

Vaqt - 45 daqiqa.

Steril stolni ishga tayyorlash algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: steril stolni ishga tayyorlash

Kerakli jihozlar: steril anjomlar, choychablar, steril salfetka

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira qo'llarini yuvadi.

2. Asboblari turadigan maxsus stolga steril kleyenka soladi.

3. Ustidan ikkita buklangan steril choyshab yoziladi.

4. Choyshabning pastki yarmiga tikish uchun ishlatiladigan bog'lov ashyolarini terib chiqiladi.

5. Choyshabning ustki cheti qaytarilib, asboblari teriladi.

6. Steril salfetka bilan usti yopib qo'yiladi.

Eslatma! Steril stolga jihozlarni berganda, hamshira steril qo'lqop kiyishi lozim.

15-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Sterilizasiya o'tkazish va steril ashyolar bilan ishlash. Bog 'lov ashyolarini va steril stolni tayyorlash

Rezina asboblarni sterilizasiya qilish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: rezina asboblarni sterilizasiya qilish

Kerakli jihozlar: avtoklav, bikslar, indikator.

Muolajani bajarish algoritmi

Bug'lash usuli.

1. Rezina buyumlarni kraf-paket yoki buzga urang.
2. Bikslarni tayyorlang.
3. Biks darchalarini ochib qo'ying.
4. Buyumlarni biksga joylang.
5. Bikslarni va sterillik indikatorlarni avtoklavga soling.
6. Harorat 120°C , bosim 0,11 mPa, vaqti - 45 daqiqa davomida sterilizasiya qiling.

Bug'lash yo'li bilan sterilizasiya usuli

1. Avtoklavga soling.
2. Bosim - 0,2 mPa, harorat - 132°C da 20 daqiqa davomida sterilizasiya qiling.



Bikslar orasiga sterillik indikatorini solib qo'ying.

Havo bilan sterilizasiya usuli

1. Bikslarni quruq issiq shkaf ichiga soling.
2. Shkaf ichiga sterillik indikatorini solib qo'ying.
3. Harorat 180°C bo'lganda 60 daqiqa davomida sterilizasiya qiling.

Eslatma: ochiq idishda sterilizasiya qilishda igna va shprislarning qismlarga ajratib solinmaydi.

Kimyoviy usulda sterilizasiya qilish

Quyidagi eritmalarining biri solingan idishga ignalar va shprislarni qismlarga ajratib soling:

1. vodrod preoksidining 6% li eritmasiga harorat 18°C bo'lganda 360 daqiqaga;
2. vodrod peroksidining 6% li eritmasiga harorat 50°C bo'lganda 180 daqiqa;
3. dezoksonning 1% li eritmasiga 45 daqiqagaga.
4. Sterillikka biosinama o'tkazing.
5. Idishlarni steril suv bilan yuving.
6. Steril choyshab to'shalgan steril qutiga soling.

Kimyoviy usul

Rezina buyumlarni quyidagi eritmalarining biriga soling:

1. vodrod preoksidining 6% li eritmasiga harorat 18°S bo'lganda 360 daqiqaga;
2. vodrod peroksidining 6% li eritmasiga harorat 50°S bo'lganda 180 daqiqa;
3. dezoksonning 1% li eritmasiga 45 daqiqagaga.
4. Buyumlarni steril suv bilan yuving.
5. Buyumlarni steril bikslarga joylang.

Optik asboblarni sterilizasiya qilish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: optik asboblarni sterilizasiya qilish

Kerakli jihozlar: sovunning iliq eritmasi, sulema (simob oksisianidi) ning 1:1000 eritmasi, spirtning 90% li eritmasi, distillangan suv

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llaringizni yuving, quriting.
2. Qismlarga ajratilgan asbob qismlarini: sonunning iliq eritmasi bilan yuving.
3. Har bir qismga spirt bilan ishlov bering.
4. Qismlarni sulema eritmasiga 20 daqiqaga solib qo'ying.
5. Asboblarni ishlatishdan oldin organ va to'qimalarga tegadigan yuzalarini distillangan suv bilan yuvib tashlang.

Hamshiralik ishi faoliyati davomida sterillikka amal qilish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: shifoxonada infeksiya tarqalishining oldini olish va sterillikka amal qilish.

Kerakli jihozlar: himoyalovchi kiyim, sovun, ko'zoynaklar, qo'lqoplar, niqoblar, ignalar, skalpel, skarifikatorlar.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llarini muolajadan oldin va keyin yuving.
2. Infeksiya saqlovchilarni yo'qotish (sovun qutisidagi achigan sovun qoldiqlari).

3. Himoya to'siqlaridan foydalanish (halatlar, ko'zoynaklar, qo'lqoplar, niqoblar).

4. Kesuvchi va sanchuvchi asboblari (ignalar, skalpel, skarifikatorlar) dan to'g'ri foydalanish.

5. Jarohatlar va qismlarga ishlov berish.

6. Tibbiy asbob uskuna va jihozlarga sterilizatsiya oldi ishlovini berish sterilizatsiya va dezinfeksiya qilish ishlarini to'g'ri olib borish.

Eslatma: Tibbiy xodim texnika xavfsizligiga amal qilishi shart.

Steril xalatni kiyish algoritmi

O'quvchi bajarishi kerak: steril xalatni kiyish

Kerakli jihozlari: steril xalat, steril sochiq, salfetka, suyuq sovun, qo'lqop.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira qo'llarini yuvadi va quritadi.

2. Hamshira qo'lni zarasizlantiradi.

3. So'ngra sterillangan sochiqni olib qo'lni quritadi.

4. Spirtga ho'llangan salfetka bilan ishlov beradi.

5. Xalatni olib atrofdagi ashyolarga, kiyimlarga tegib ketmasligini oldini olib ohista ochadi.

6. Xalatni yoqasidan ushlab turib o'ng qo'li va yelkaga ohistalik bilan tashlaydi.

7. Shu holatni chap tomon bilan takrorlaydi.

8. Hamshira qo'llarini oldinga va yuqoriga ko'taradi.

9. Kichik hamshira esa orqa tomondan bog'ichlarini bog'laydi.

10. Hamshira xalat yengidagi bog'ichlarini o'zi bog'laydi.

11. Hamshira belbog'ni olib, kichik hamshiraga uzatadi.


12. U esa xalat sterilligini buzmaganda belbog'ni bog'laydi.

Eslatma: Steril xalatni hamshira o'zgalar yordamida kiyadi.





STERIL QO'LQOPNI KIIYISH TEXNIKASI



Tibbiy maqsadlarda qo'llaniladigan buyumlarni sterilizatsiya oldi tozalash

O'quvchi bajarishi kerak: tibbiy maqsadlarda qo'llaniladigan buyumlarni sterilizatsiya oldi tozalashni

Kerakli jihozlar: 0,5%li yuvuvchi eritma, cho'tkalar. idishlar, buyumlar qismlarga ajratilgan holda.

Muolajani bajarish algoritmi

- Buyumlarni yuvuvchi eritmaga to'liq botiring.
- Har bir buyumni chutka yordamida yuvib chiqing.

- 10 daqiqa davomida oqar suv ostida chaying.
- Sterilizasiya oldi tozalash sifati nazoratini o'tkazing, natijani baholang.
- Distillangan suvda chaying.
- Quruq issiqli shkafda $t = 85^{\circ}\text{S}$ da quriting.
- Kraft-paketga solib biksga joylashtiring.

Sterilizasiya oldi tozalash sifati nazorati

O'quvchi bajarishi kerak: sterilizasiya oldi tozalash sifati nazoratini

Kerakli jihozlar: amidopiriniing 5% li eritmasi, sirka kislotasining 30% li eritmasi, vodorod peroksidinisht 3% li eritmasi, spirtli fenolftaleinning 1% li eritmasi. azopiram, pipetkalar, shprislar - jami sonidan 10% ni tashkil qilishi kerak.

Amidopirinli sinama

1. Qo'llaringizni yuving, quriting
2. 5 % li amidopirin, 30 % li uksus kislota, 3 % li perekis vodorod teng miqdorda olinadi.
3. Bu eritmalar aralashmasi pipetkaga olinadi.
4. Eritma pipetka yordamida shprits silindriga tomiziladi.
5. Agar shpritsda ko'k-yashil rang paydo bo'lsa sinama manfiy hisoblanadi va tibbiy asboblari qayta yuvish bosqichlaridan o'tqaziladi.
6. Agar shprits silindrida hych qanday o'zgaish, rang paydo bo'lmasa, sinama musbat hisoblanadi va sterillash mumkin.

Fenolftolinli sinama

1. Qo'llaringizni yuving, quriting
2. Shprits olinadi va silindrga 1 % li fenolftolein eritmasi tomiziladi.
3. Agar shpritsda pushti rang hosil bo'lsa, sinama manfiy hisoblanadi. Shpritslar qayta oqar suvda chayiladi.
4. Agar shpritsda o'zgarish bo'lmasa sterillash davom ettiriladi.

Azopiramli sinama

1. Qo'llaringizni yuving, quriting
2. 3 % li pyeryekis vodorod va azopiram eritmasi teng miqdorda olinadi.
3. Eritma shprits silindriga tomiziladi.
4. Agar shpritsda ko'k-yashil, ko'k-binafsha rang paydo bo'lsa, sinama manfiy hisoblanadi va tozalash bosqichlari qaytariladi.


Salfetkalar tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: salfetkalar tayyorlashni

Kerakli jihozlar: dokalar, qaychi, biks.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira qo'larini yuvadi va quritadi.
2. Dokalar 50\70, 50\35, 25\35 sm kattaliklarda qaychida qirqib olinadi.
3. Dokaning chetlari 2 sm dan qaytarilib, ikki chekasi o'rtasiga buklanadi.
4. Doka uchidagi iplari kiritiladi.
5. Tayyor bo'lgan salfetkalar biksga joylashtiriladi.
6. Sterillash uchun jo'natiladi





Tamponlar tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: tamponlar tayyorlashni

Kerakli jihozlar: dokalar, qaychi, biks, paxta.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira qo'larini tozalab yuvadi.
2. Dokalar 50\50 sm kattaliklarda qaychi bilan qirqib olinadi.
3. Doka chetlaringi 2 sm ichiga qaytarilibchiqiladi.
4. Chetlari qaytarilgan doka ikkiga bo'linadi.
5. Dokaning o'rtasiga chap qo'lingizning 2-barmog'ini qo'yib dokaning 2 uchi qaytariladi.
6. Dokaning qaytarilgan 2 uchi barmoq turgan joyga tiqib qo'yiladi.

Eslatma: Ishlatiladigan tamponlar bikslarga joylanib, sterillanadi.

Turundalar tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: turundalar tayyorlashni


Kerakli jihozlar: dokalar, qaychi, biks, paxta.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Doka 25 sm, 35sm kenglikda 1-2 metr uzunlikda qirqib olinadi (uni keng bintlardan tayyorlash oson bo'ladi).
2. Doka yoki bint uzunligida yoyiladi.
3. Dokaning bintlari 2 chekkasi 2 sm ichkariga qayriladi.
4. Dokantng ichkariga qaytarilgan chekkasi 2 tomondan ichkarisiga uzunasiga buklanadi, yana buklanadi

5. Tayyor bo'lgan trunda 1-2 sm uzunlikda buladi, bundan kerakli uzunlikda kesib olinib ishlatiladi.

6. Tayyor trundalar biksga joylanadi va avtoklavga sterillash uchun yuboriladi, trunda eng ingichka tampondir.



Sharchalar tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: sharchalar tayyorlashni

Kerakli jihozlar: dokalar, qaychi, biks, paxta.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Hamshira qo'lini yuvadi va quritadi.
2. Gigroskopik paxta olinib stol ustiga qo'yiladi.
3. Chap qo'lini mushtlab ushlaydi.
4. O'ng qo'li bilan paxtadan ozgina uzib oladi.
5. O'ng qo'lidagi paxtani 2-barmoq bilan chap qo'lga mushtiga kiritadi.
6. Chap qo'l mushtini 1-2 daqiqa siqib turiladi.
7. Ustidan yana paxta soladi.
8. Oldingi solingan paxtalar chap qo'li mushti ostidan chiqarilib turiladi.
9. Tayyor bo'lgan sharchalar bikslarga joylanib avtoklavga sterillash uchun yuboriladi.



Eslatma. Dokaning uchlari ko'rinmasligi uchun doka bir necha marta bukiladi. Ishlatilgan salftkalar, tamponlar, sharchalarni qayta ishlatish mumkin emas

Sterillanadigan vositalarni universal usulda bikslarga joylash

O'quvchi bajarishi kerak: sterillanadigan vositalarni universal usulda bikslarga joylash

Kerakli jihozlar: biks, bog'lov materiallari, steril anjomlar, choyshablar

Muolajani bajarish algoritmi

1. Biksning postki katlamiga okliklar solinadi.
2. Bog'lov materiallari bo'limlarga ko'ndalang qilib joylashtiriladi:
 - a. o'ng tarafda har xil o'lchamdagi salftkalar (30 dona) joylashtiriladi;
 - b. yonidan uch xil o'lchamdagi tamponlar joylashtiriladi (30 dona);
 - v. old qismiga turundalar bir xil o'ram qilib joylashtiriladi;
 - g. doka sharchalari birinchi qavatining ustki qismiga joylashtiriladi (50 dona).
3. Ikkinchi qatlamiga operasiya oqliklari ko'ndalang qilib joylashtiriladi
 - a. o'ng tarafdin 5 ta oqlik joylashtiriladi;
 - b. yonidan 6 ta sochik joylashtiriladi;
 - v. 2 ta bint qarama-qarshi tarafdin joylashtiriladi;
 - g. chap tomondan 4 ta xalat, 5 ta belbog' va 4 ta niqob solinadi.
4. So'ng biksga indikator solinadi.

Eslatma: Sterillanadigan anjomlarni biksga joylashning 3 xil usuli bor.

Sterillanadigan vositalarni maqsadga muvofiq usulda biksga joylash

O'quvchi bajarishi kerak: sterillanadigan vositalarni maqsadga muvofiq usulda biksga joylashni

Kerakli jihozlar: biks, bog'lov materiallari, steril anjomlar, choyshablar

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.
2. Biks tubiga oqliklar tushaladi.
3. Devorlariga salftka tushaladi.
4. Birinchi qavatiga operasiya oqliklari taxlab joylashtiriladi.

5. Ikkinchi qavatiga xirurgik asboblari salftkaga o'ralib joylashtiriladi.

6. Uning ustidan xalat, ustidan belbog' taxlab joylanadi.

7. So'ngra niqob, doka salftkalar va qo'l uchun sochiqlar taxlanadi.

8. Qatlam ustiga indikatorlar solinadi.

9. So'ngra qopqoq yopiladi, biks yonbosh teshiklari ochiladi.

10. Zararsizlantirish vaqti, hamshira familiyasi yozilgan belgi biksga bog'lanadi.

Eslatma: Sterilizasiya bo'limidan biksni olib kelishda qopga solib olib kelish lozim.

Biksni yuqumsizlantirishga tayyorlash

O'quvchi bajarishi kerak: biksni yuqumsizlantirishga tayyorlashni

Kerakli jihozlar: bikslar, xirurgik asboblari.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Biks qismlarining zich yopilganligi tekshirilib aniqlanadi
2. Qopqoqning mahkam yopilganligi tekshiriladi.
3. Metall belbog'ning qisqich moslamasi asosiga mahkamlanganligi aniqlanadi.
4. Asos teshigi ochilgan xolda belbog' mahkamlanadi.
5. Biksning ichki va tashki tarafi 5%li nashatir spirti bilan artiladi.
6. Biks tubiga va devorlariga salftka yoki oqlik to'shaladi
7. Biksga bog'lov materiallari va operasiya uchun oqliklar joylashtiriladi.
8. Biksga buyumlarning zararsizlanganligini tekshirish uchun indikatorlar solinadi.
9. Bikslar tang'alanadi.

Eslatma: Bikslarning asosida yonbosh teshiklari bo'lib, avtoklavlarda zararsizlantirishda bug' teshiklar orqali kiradi. Bu teshiklar asosiga o'rnatilgan maxsus metall so'rg'ichlar yordamida ochilib yopiladi.

Sterillikni nazorat qilish

Kristall moddalarning erishi va ularning quyuq cho'ziluvchan massa hosil qilish xususiyatiga asoslanib nazorat qilish

1. Amalda erish nuqtasi 120°S atrofida bo'lgan kristall moddalardan birini (benzoy kislotasi 120°S, rezorsin 119°S) oling.



2. 2-3 ta shisha probirka olib 0,5 gr kukun solin (kerakli moddalar solingan maxsus ampulalardan foydalanish ham mumkin).

3. Probirka og'zini paxta tiqin bilan bekiting.

4. Tayyorlangan probirkalardan 1 tasini biksning ichiga joylashtirilgan materiallar orasiga, bittasini esa yuza qismiga qo'ying.

5. Biksning qopqog'ini yoping va sterillash uchun avtoklavga qo'ying.

6. 1 ta probirkani esa biksdan tashqariga qo'ying.

7. Sterillang.

Eslatma: Agar avtoklavdagi harorat ko'rsatilgan erish nuqtasiga yetgan bo'lsa, sterilizasiya to'g'ri o'tkazilgan hisoblanadi va probirkadaga kristall modda batamom eriydi.

Sterillikni nazorat qilishning bakteriologik usuli

1. Sterillanadigan buyumlardan bir parcha oling.

2. Uni probirkaga solib, og'zini paxta tiqin bilan bekiting.

3. Probirkani biksga joylashtiring.

4. Biksni avtoklavga joylashtiring va sterillang.

5. Sterillash tugagandan so'ng probirkani bakteriologik laboratoriyaga jo'nating.

Eslatma: Yuborilgan materialdan ekma ekib nazorat qilinadi. Ekma natijalari 2-3 kundan keyin olinadi. Ko'rsatilgan vaqtdan keyin bakteriya, mikrob turi o'sib chiqmasa, demak sterillik to'g'ri o'tkazilgan hisoblanadi.

16-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Me'da ichak yo'llari muammolarida bemorlarga hamshiralik parvarishi

Me'dani yuvish (zaharlanganda yordam ko'rsatish)

O'quvchi bajarishi kerak: me'dani yuvishni (zaharlanganda yordam ko'rsatish)

Kerakli jihozlar: steril, yo'gon me'da zondi, voronka, 1 chelak yuvish uchun eritma (0,1% li kaliy permanganat eritmasi, 4,2% li natriy gidrokarbonat eritmasi, suv), 1 litrli ko'zacha, kleyonkali fartuk, kleyonka, suv solish uchun tog'ora, sochiq, «Jane» shpritsi, qo'lqop.


Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Qo'l yuviladi va quritiladi.
3. Fartuk va qo'lqop kiyiladi.
4. Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi (kamar, protez tish, galstuk yechiladi).
5. Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyanganda holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi.
6. Bemorning bo'yin va ko'kragiga kleyonka fartuk tutiladi.
7. Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oralikda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi.
8. Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi.
9. Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo'yiladi.
10. Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi.
11. Zondning ikkinchi uchiga varonka kiygiziladi.
12. O'rnatilgan varonka bemorning tizzasigacha tushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan to'ldiriladi.
13. Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan ko'tariladi.
14. Voronka yana asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik tog'oraga tushuriladi.
15. Muolaja me'dadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi.
16. Salfetka bilan zond uchi o'raladi.
17. Asta-sekinlik bilan zond me'dadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi.

18. Bemor oldidan kleyonka olinadi va ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi.

19. Qo'lqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi.

20. Me'da yuvilgandan so'ng bemor ahvoli kuzatiladi.



Tozalash huqnasini o'tkazish

O'quvchi bajarishi kerak: tozalash huqnasini o'tkazishni

Kerakli jihozlar: esmarx krujkasi, uchlik. shtativ, vazelin moyi, tuvak, (sudno), kleyonka, qo'lqop, bemor tagini yuvish uchun ishlatiladigan ashyolar, choyshab, fartuk, niqob.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'l yuviladi va quritiladi.
2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
3. Qo'lqop va fartuk kiyiladi.
4. Esmarx krujkasiga 1-1,5 litr iliq (20°C)li suv quyiladi.
5. Krujka shtativga osiladi.
6. Krujkadagi rezina vintel ochiladi va suv bilan to'ldiriladi. Vintel yopiladi.
7. Kushetkaga kleyonka yopiladi. Uchlikka vazelin moyi surtiladi.
8. Bemor oyoqlarini bukkagan holda chap yonboshiga yotqiziladi.
9. Chap qo'l bilan bemorning orqa teshigi ochiladi (dumbasi keriladi) va o'ng qo'l bilan orqa chiqaruv teshikka uchlik kiritiladi.
10. Vintel ochiladi va suv sekin oqishi kuzatiladi.
11. Suv tugaganidan so'ng vintel yopiladi va uchlik asta - sekin chiqariladi.

12. Bemordan bir necha daqiqa o'rinda yotish so'raladi.
13. Sudno qo'yiladi va bemor bo'shanadi.
14. Sudnoda faqat suv bo'lsa, tozalash huqnasi qaytariladi.
15. Muolajadan so'ng bemor tagi yuviladi.
16. Ishlatilgan asboblari zararsizlantiriladi.
17. Qo'lqop yechiladi va zararsizlantiriladi.



Sifonli huqna o'tkazish


O'quvchi bajarishi kerak: sifonli klizma o'tkazish

Kerakli jihozlar: uzunligi 1 metr bo'lgan yo'g'on me'da zondi, 1 litr suv sig'adigan voronka, xona haroratidagi 10 litr suv, ko'zacha, chelak, kleyonka, fartuk, vazelin moyi, qo'lqop, bemor tagini yuvish uchun ishlatiladigan asboblari

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Qo'l yuviladi va quritiladi.
3. Qo'lqop va fartuk kiyiladi.
4. Kushetkaga kleyonka solinadi. Bemor oyoqlarini bukkan holda chap yon boshiga yotqiziladi.
5. Zondning yopiq uchi 30-40 sm uzunlikda vazelin moyi surtiladi.
6. Bemor dumbalari keriladi va orqa teshikka 30-40 sm ichkariga zond kirgiziladi.
7. Bir uchiga varonka kiygiziladi.

8. Varonka pastga tushiriladi va kerakli suyuqlik bilan to'ldiriladi.
9. Varonka asta-sekin ko'tariladi.
10. Asta-sekin voronka pasga tushiriladi va ichidagi suyuqlik chelakka quyiladi.
11. Bu muolaja bir necha marta takrorlanadi (toza suv tushguncha).
12. Voronka olinadi. Rezina naycha qoldiriladi, rezina naychaning bir uchi tog'oraga tushiriladi (qolgan suyuqlik va gaz chiqishi uchun).
13. Muolajadan so'ng bemor tagi yuviladi.
14. Ishlatilgan asboblari zararsizlantiriladi.
15. Qo'lqop yechiladi va zararsizlantiriladi.



Moyli huqna qilish texnikasi

O'quvchi bajarishi kerak: moyli klizma qilish texnikasini

Kerakli jihozlar: nokchasimon rezina balon yoki Jane shpritsi, gaz chiqaruvchi naycha, 100-200 ml o'simlik moyi yoki vazelin, 21⁰-28⁰C ilitilgan holda, kleyonka choyshab

Muolajani bajarish algoritmi

Qo'l yuviladi va quritiladi.

1. Qo'lqop va fartuk kiyiladi.
2. Tayyorlangan moy bilan nokchasimon rezina balon to'ldiriladi.
3. Bemor chap yon boshiga, oyoqlarini bukkan holda yotqiziladi.

4. Gaz chiqaruv nayiga vazelin moyi surtiladi va orqa chiqaruv teshigiga kiritiladi (15-20 sm).

5. Gaz chiqaruvchi naychani ikkinchi uchiga balon Jane shpritsi o'rnatiladi va moy yuboriladi.

6. Gaz chiqaruvchi naycha asta-sekin olinadi va zararsizlantiriladi.

7. Bemorga ertalabgacha o'rinda yotish kerakligi ogohlantiriladi.

8. Qo'lqop yechiladi va zararsizlantiriladi.

9. Ertalab bemorga sudno beriladi.

10. Bemor tagi yuviladi.




Dorili huqna

O'quvchi bajarishi kerak: dorili huqna o'tkazish texnikasini

Kerakli jihozlar: Shifokor ko'rsatma bergan dori moddasi (100-200 ml), rezinali balon yoki Jane shpritsi, gletsirin, vazelin, salfetka, sudno, kleyonka, tozalash klizmasi uchun kerakli asboblari.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'l yuviladi va quritiladi.
2. Rezina qo'lqop kiyiladi va fartuk taqiladi.
3. Tozalash klizmasi o'tqaziladi.
4. Bemor tagi yuviladi.
5. Dori moddasi rezina balon yoki Jane shpritsi yordamida olinadi.
6. Bemor chap yon boshiga oyoqlarini bukkagan holda yotqiziladi.
7. Uchlikka gletsirin yoki vazelin surtiladi.
8. Chap qo'l bilan dumbalar keriladi va o'ng qo'l bilan 7-8 sm ichkariga uchlik kiritiladi.
9. Dori moddasi asta - sekin yuboriladi.
10. Uchlik ichakdan chiqariladi va bemor 20-25 daqiqagacha o'rinda yotgan holatda qoldiriladi.
11. Bemorning qorin sohasi kaft bilan har 5 daqiqada soat millari bo'yicha silanadi.
12. Ishlatilgan asboblari zararsizlantiriladi.



13. Bemorni ertalabgacha o'rindan turmaslik ogohlantiriladi.

Oziqli huqna

O'quvchi bajarishi kerak: oziqli huqna o'tkazish texnikasini

Kerakli jihozlar: 5% li glyukoza eritmasi, 0,9% li natriy xlorid eritmasi, iliq suv, tozalash klizmasi uchun asboblari, sistema (tomchilab yuborish uchun).

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
2. Qo'l yuviladi va quritiladi.
3. Qo'lqop va fartuk kiyiladi.
4. Bemorga tozalash qilinadi va tagi yuviladi.
5. Tomchilab yuborish uchun sistema yig'iladi va flakon orqasiga isitgich mahkamlanadi (40°C).
6. Sistema uchlik bilan birlashtiriladi.
7. Bir daqiqada 60-80 ta tomchi tushishi aniqlab olinadi.
8. Tozalash huqnasidan 30-60 daqiqa o'tgandan so'ng bemor chap yon boshiga yotqiziladi.
9. Uchlikka vazelin surtiladi va orqa chiqaruv teshigiga 3-4 sm ichkariga va 5-8 sm yuqoriga kiritiladi.
10. Qisqich ochiladi. 1 daqiqada 60-80 ta tomchi tomiziladi.
11. Bemor bu muolajadan so'ng 1-2 soat tinch yotishi kerak.
12. Ishlatilgan asboblari zararsizlantiriladi.
13. Qo'lqop yechiladi va zararsizlantiriladi.

Gaz chiqarish naychasini qo'llash

O'quvchi bajarishi kerak: gaz chiqarish naychasini qo'llashni

Kerakli jihozlar: steril gaz chiqarish naychasi, kleyonka, sudno, vazelin moyi va salfetka.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemor chap yonboshiga oyoqlarini bukkan holda yotqiziladi. Tagiga kleyonka solinadi.
2. Sudno bemor tagiga qo'yiladi.
3. Qo'l yuviladi va quritiladi.
4. Qo'lqop kiyiladi.
5. Gaz chiqarish naychasiga vazelin moyi surtiladi.
6. Chap qo'l bilan dumbalar keriladi va o'ng qo'l bilan naycha 20-30 sm ichkariga aylanma harakat bilan kiritiladi.
7. Naychaning ikkinchi uchi sudnoga tushiriladi.
8. Gaz chiqarish naychasi bir soatga qo'yiladi.
9. Naycha asita-sekin olinadi va bemor tagi yaxshilab artilib, vazelin moyi surtib qo'yiladi.
10. Ishlatilgan asboblari zararsizlantiriladi.
11. Qo'lqop yechiladi va zararsizlantiriladi.



17-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Sun'iy ovqatlantirishda hamshiralik parvarishi

Og'ir ahvoldagi bemorlarni ovqatlantirish

O'quvchi bajarishi kerak: og'ir ahvoldagi bemorlarni ovqatlantirishni

Palatani ovqatlanish uchun tayyorlang:

1. o'tkir hidli dori moddalarini olib quying;
2. ovqatlanish paytida kerak bo'lmagan parvarish buyumlarini chetga olib quying;
3. palata havosini almashtiring.

Bemorni ovqatlanishga tayyorlang:

1. diagnostik va davolash muolajalarini yakunlang;
2. zaruriyat bo'lsa hojatini ravon qiling;
3. bemorga ovqatlanish uchun qulay holat egallashga yordam bering;
4. bemorga qo'lini yuvishda yordam bering yoki qo'lini yuvib qo'ying;
5. ko'krak va bo'ynini sochiq bilan yopib qo'ying;
6. krovat oldiga stolni suring.

Palataga ovqatni issiq holda olib keling va stolga quying.


1. Bemorga ovqatni oz – ozdan berib, ovqatlantiring.
2. Ovqatlanishdan keyin bemorga og'zini chayishga yordam bering.
3. Bo'ynidagi sochiqni olib quying va bemor to'shagini tartibga keltiring.
4. Idishlarni olib keting va qoidasi bo'yicha ularga ishlov bering.

Eslatma

- og'ir ahvoldagi bemorlar birinchi navbatda ovqatlantiriladi;
- suyuq ovqatlarni maxsus idish yordamida berish mumkin, quyuq ovqatni tovoqdan qoshiqlab berish mumkin;
- bemorni sabr-toqat va mulozamat bilan ovqatlantirish kerak.



а



б



Og'ir ahvoldagi bemorlarni zond orqali ovqatlantirish

O'quvchi bajarishi kerak: og'ir ahvoldagi bemorlarni zond orqali ovqatlantirishni

Kerakli jihozlar: steril nazogastral zond, 20 yoki 50 ml.li shpris, isitilgan (1- 38,8-39°S) suyuq ovqat, salfetaklar, og'iz kengaytirgich, steril shpatel

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorni va palatani ovqatlantirishga tayyorlang (Og'ir ahvoldagi bemorlarni ovqatlantirish standartiga qarang).

2. Qo'llaringizni yuving, quriting.

3. Qo'lqoplarni kiying.

4. Zondning tumtoq uchini iliq suvda ho'llang.

5. Zondni pastki burun yo'li orqali kerakli uzunlikda kiriting.

6. Zond kiritish paytida bemorning nafas olishini nazorat qiling.

Bemor yuzi rangining o'zgarishi, hiqichoq tutishi, yo'tal, qayt qilish harakatlari paydo bo'lganda zond kiritishni to'xtating.

7. Zondning to'g'ri kiritilayotganini shpatel va og'iz kengaytirgich yordamida tekshiring.

8. Zondning erkin uchiga shprisni ulang.

9. Zondning oshqozonga tushganligini tekshirish uchun shpris porshenini tortib ko'ring (oshqozon suyuqligi chiqishi kerak).

10. Tayyorlangan ovqatni oz-oz miqdorda asta-sekinlik bilan yuboring.

11. Shprisni zondan ajrating.

12. Zondning erkin uchini salfетка bilan o'rang.


13. Zondni salfетка orqali asta-sekinlik bilan tortib oling.

14. Bemor va uning to'shagini tartibga keltiring.


15. Ovqatlantirish paytida ishlatilgan buyumlarni chetga olib qo'ying va ishlov bering.

16. Qo'lqoplarni yeching va ishlov bering.

17. Bemorni ahvolini nazorat qilib turing.



a



b



v



g



d



a



b



d



e



v



z



zh



z



u

ME'DA ZONDI ORQALI OVQATLANTIRISH UCHUN KERAKLI JIHOZLAR:



Nazogastral zond

50 gr. shpris

Suyuq ovqat

Salfetka

Steril shpatel

Kergich


SUN'IY OVQATLANTIRISH TURLARI:



Me'da zondi
yordamida

Gastrostoma
orqali

Parenteral

Huqna orqali





Bemorni gastrostoma orqali ovqatlantirish

O'quvchi bajarishi kerak: bemorni gastrostoma orqali ovqatlantirishni

Kerakli jihozlar: 20 ml. li shpris, buyurilgan miqdordagi isitilgan gomogen suyuq ovqat, qaynatilgan suvli ($t=37-38^{\circ}\text{S}$) stakan, gastrostomaga ishlov berish uchun to'plam (steril dokali salftkalar, antiseptik eritmalardan biri – kaliy permanganatining 1% li eritmasi, furasillinning 0,02% li eritmasi, steril shpatel, Lassar pastasi).

Qizilo'ngachdan ovqat o'tmasligi (o'smalar, shikastlanishlar, kuyishlar), oshqozondagi va qizilo'ngachdagi operatsiyalar.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Bemorni va palatani ovqatlantirish uchun tayyorlang (og'ir ahvoldagi bemorlarni ovqatlantirish standartiga qarang).

2. Qo'llaringizni yuving, quriting.

3. Qo'lqoplarni kiying.

4. Gastrostomani bog'lamlardan bo'shating.

5. Zondning erkin uchiga shpris ulang.

6. Mor qisqichini bo'shating.

7. Isitilgan ovqatni oz-ozdan 2-3 daqiqa oraliq bilan yuboring. Zondga havo kirishiga yo'l qo'ymang.

8. Zondni tayyorlangan suv bilan (30 ml. gacha) yuving.

9. Zondning erkin uchiga yaqin joyida qisqich o'rnatish.

10. Shprisni zondan ajrating.

11. Gastrostoma atrofidagi terini tayyorlangan antiseptik eritmalardan birida ho'llangan dokali salftka bilan arting.

12. Terini ehtiyotlik bilan dokali salftka yordamida quriting.


13. Gastrostomaga Lassar pastasi bilan steril salftkadan bog'lam quying. Leykoplastir yoki yumshoq bog'lam bilan mahkamlang, bunda zondning erkin uchi bemor uchun qulay vaziyatda turishi kerak.

14. Ovqatlantirish vaqtida ishlatilgan buyumlarni chetga olib qo'ying va ishlov bering.

15. Qo'lqoplarni yeching va ishlov bering.

16. Ovqatlantirishdan keyin bemor ahvolini nazorat qiling.

Eslatma: Lassar pastasi o'rniga shifokor tavsiyasi bilan ruxli yoki gidrokortizonli surtmadan foydalanish mumkin.



Bemorni zond orqali ovqatlantirish



Bemorni gastrostoma orqali ovqatlantirish

Rektal sun'iy ovqatlantirish

O'quvchi bajarishi kerak: rektal sun'iy ovqatlantirish

Kerakli jihozlar: Esmarx krujkasi, shtativ, uchlik, vazelin yoki gliserin, 5% li glyukoza eritmasi, 0,85% li natriy xlorid eritmasi, opiy nastoykasi.

Muolajani bajarish algoritmi

1. Qo'llarni tozalash.
2. Tozalash huqnasini qilish.
3. 1 soatdan so'ng yuboriladigan eritmani 37-38 °S gacha isitish.
4. 5 – 10 tomchi opiy nastoykasini qo'shish.
5. Eritmani Esmarx krujkasiga solish va shtativga osish.
6. Vintni ochib rezina naychadagi havoni chiqarish.
7. Uchlikka vazelin surtish.
8. Uchlikni to'g'ri ichakka kiritish.
9. Suyuqlikni tomchilab yuborish.

Eslatma:

1. Kam miqdordagi oziqli eritma rezina nokchada yuboriladi.
2. Ovqatli huqnalarni tez – tez qilish tavsiya qilinmaydi.

Parenteral sun'iy ovqatlantirish

O'quvchi bajarishi kerak: parenteral sun'iy ovqatlantirishni

Kerakli jihozlar: infuzion terapiya uchun sistema, jgut, yostiqcha, spirt 96°, paxta, eritmalar; gidromezin, fibrinosol, alvezin, levomin, poliamin, lipofundin, intralipid, 10% - glyukoza.

Muolajani bajarish algoritmi


1. Qo'llarni tozalash.
2. Eritmalarni 37-38 °S gacha isitish.
3. Sistemani yig'ish.
4. Qo'l venasiga sistemani ulash.
5. Eritmani tomchilab yuborish.
6. Spirtga botirilgan paxta sharcha bilan terini artib, ignani venadan olish.
7. Bemorni ahvolini so'rab, qulay vaziyat yaratish.

Eslatma:

1. Poliamin – birinchi 30 daqiqa davomida 1 daqiqada – 10-20 tomchi tezlikda, keyin 25-35 tomchiga yetkaziladi. Tez yuborilganda aminokislotalar hal qilinmaydi va siydik bilan tez ajralab chiqib ketadi.

2. Lipofundin S – 10% eritma birinchi 10-15 min da bir daqiqada 15-20 tomchi, so'ngra 60 tomchiga yetkaziladi. 500 ml preparatni 3-5 soat davomida yuboriladi.

Asoratlari: oqsil moddalarini tez yuborganda bemorda qichish hissi, yuzining qizarishi, nafas olishning qiyinlashuvi kuzatiladi.



Bemorni parenteral ovqatlantirish

18-Amaliy mashg'ulot mavzusi: Dori moddalarni qo'llash usullari dori moddalarini qabul qilish

O'quvchi bajarishi kerak: Dori preparatlarni qabul qilishni.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Dori moddalarini yozish.
2. Dori moddalarini olish, bo'limlarga tarqatish.
3. Dori moddalarini tarqatish.
4. Dori moddalarini enteral qabul qilish.
 - a) Poroshoklarni;
 - b) Tabletkalar va kapsulalarni;
 - c) Miksturalarni;
 - d) Qaynatma va damlamalarni;
 - e) Til ostiga qo'yiladigan dorilarni;
 - f) Shamchalarni.
5. Teri tashqi yuzasiga ishlatiladigan dori moddalari:
 - a) Dori moddalarini qo'yish;
 - b) Dori moddalarini surtish;
 - c) Qaynatma qabul qilish;
 - d) Plaster qo'llash (yopishtirish);
 - e) Quloqqa tomchi dori tomizish;
 - f) Burunga tomchi dori tomizish;
 - g) Ko'zga tomchi dori tomizish;
 - h) Ko'zga malham surtish;
6. Ingalyatsion davo o'tkazish, cho'ntak ingalyatoridan foydalanish.
7. Shprisni "kraft paket" ichidan olib yig'ish.
8. Ampuladan dori moddalarini tortib olish.
9. Flakondan dori moddalarini tortib olish.
10. Teri orasiga inyeksiya qilish texnikasi.
11. Teri ostiga inyeksiya qilish texnikasi
12. Mushak orasiga inyeksiya qilish texnikasi
13. Dori moddalarini venaga- tomirga yuborish texnikasi.
14. Venaga tomchi dori moddalarini yuborish uchun sistema yig'ish texnikasi.
15. Venaga tomchilatib dori yuborish texnikasi.
16. Antibiotiklarni suyultirish texnikasi va bitsilin yuborish texnikasi.

17. Insulinni yuborish texnikasi.
18. Yog'li eritmalarini yuborish texnikasi.
19. Anafilaktik shokda yordam ko'rsatish.

Bemorlarga dori moddalarini tarqatish

O'quvchi bajarishi kerak: Bemorlarga dori moddalarini tarqatishni.

Kerakli jihozlar: dori moddalari, suv solingan idish, menzurka, pipetka, qaychi, ko'rsatma jurnal.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Qo'l yuviladi va qurutiladi.
2. Tayyorlanadi: dori moddalari, suv solingan idish, menzurka, pipetka, qaychi, ko'rsatma jurnal.
3. Buyurilgan dori moddalari tarqatiladi.
4. Ko'rsatma jurnaliga qarab bemorga dori tarqatiladi.
5. Bemorga dorilarning ta'sir kuchi haqida ma'lumot beriladi.
6. Hamshira oldida bemorlar dorilarni iste'mol qilishi lozim.
7. Qolgan dori moddalari o'z joyiga joylashtiriladi.
8. Asboblari zararsizlantiriladi.
9. Qo'llar yuviladi.
10. Dori moddalari bemorlarga tarqatilganligini yozib qo'yiladi.



Dori moddalarini yozib olish, qabul qilish va tarqatish

O'quvchi bajarishi kerak: Dori moddalarini yozib olish, qabul qilish va tarqatishni.

Kerakli jihozlar: dori moddalari.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Dori moddalarini o'sha zahoti olinadi, tayyorlangan dori moddalari ertasiga olinadi.
2. Buyurtirilgan dorilarnitekshiriladi.
3. Dori moddalarining nomi, soni, amal qilish muddatitekshiriladi.
4. Dori moddalari bo'limlarga taqsimlanadi

DORI MODDALARI

Postda		Muolaja xonasida	
A va B shkaflarda saqlanadigan dorilarning hisoboti	A va B shkaflarda saqlanmaydigan dorilarning hisoboti	A va B shkaflarda saqlanadigan dorilarning hisoboti	A va B shkafidagi saqlanmaydigan dorilarning hisoboti
Jurnalga qayt etish	Tez buziladiganlarni muzlatkichda saqlash	Jurnalga qayt etish	Tez buziladiganlarini muzlatgichda saqlash
Seyf		Seyf	Tibbiy shkafda
Tashqi qo'llash	Ichki qo'llash	Flakonlar uchun javon	Antibiotiklar uchun javon
	Ta'sir mexanizmiga qarab paket joylash	200.0 ml 400.0 ml	Ampulalar: Venaga, mushakka, teriga yuboriladigan dorilar uchun javon

Malhamli bog'lam qo'yish

O'quvchi bajarishi kerak: Malhamli bog'lam qo'yishni.

Kerakli jihozlar: malham, shpatel, steril salfetka, qaychi, bint, paxta, qo'lqop.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Malhamli bog'lam uchun shpatel, steril salfetka, qaychi, bint, paxta tayyorlang.
2. Malhamni nomini o'qing.
3. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering.

4. Unga muolajaning kechishini tushuntiring.
5. Qo'llaringizni yuving.
6. Steril shpateldan foydalangan holda, steril salfetskaga zaruriy malham miqdorini surting.
7. Malhamli salfetskani bemor terisiga qo'ying, agar malham o'tkir hidli, kiyimni ifloslaydigan bo'lsa, salfetka ustidan qavatli paxta qo'yish ham mumkin.
8. Bog'lamli salfetskani (va paxtani) bint bilan mahkamlang.
9. Bog'lam qo'yilgandan so'ng bemor o'zini noqulay his qilmayotganini so'rang.
10. Qo'llaringizni yuving.
11. Bemorni malhamli bog'lam qancha vaqt turishi haqida ogohlantiring.



Teriga malham surtish

O'quvchi bajarishi kerak: teriga malham surishni.

Kerakli jhozlar: malham, salfetka, shpatel, malham surtish uchun maxsus moslama.

1. Malham nomini o'qing;
2. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering;
3. Bemorga muolaja uchun qulay vaziyatni egallashda yordam bering;
4. Qo'lingizni yuving;

5. Tubikdan shisha kurakchaga bemor uchun zarur bo'lgan malham miqdorini siqib chiqaring (yoki katta idishdan shpatel bilan oling).

6. Malhamni shisha kurakcha bilan teriga yupqa qatlamda surting, buni qo'lib bilan qilmang, chunki ba'zi malhamlar shikastlanmagan teri orqali ham so'riladi.

7. Bemordan malham surtilgan joyni 10-15 daqiqa ochiq holda ushlab turishini so'rang.

8. Undan muolaja natijasida noqulaylik sezmayotganligini so'rang.

9. Qo'lingizni yuving.

10. Terini ko'zdan kechirib, malham so'rilganiga ishonch hosil qiling.

Tomchilarni quloqqa tomizish

O'quvchi bajarishi kerak: Tomchilarni quloqqa tomizishni.

Kerakli jihozlar: dori vositali flakon, steril tomizgichlar, lotok, steril doka, antiseptik eritma, qo'lqop.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Dori moddasining nomini o'qing.
2. Dori eritmasini tana haroratida isiting.
3. Tomizgichni tayyorlang.
4. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering.
5. Qo'lingizni yuving.
6. Bemorga muolaja yo'nalishini tushuntiring.
7. Unga yomboshlashga yordam bering.
8. Tomizgichga 6-8 tomchili dori moddasidan oling.
9. Quloq surpasini orqaga burib tepaga ko'taring.
10. Tomchini quloqqa tomizing.
11. Bemordan 10-15 daqiqa yoni bilan yotishini so'rang.
12. Bemorga o'tirishiga yordam bering.
13. Undan ahvoli haqida so'rang.
14. Qo'lingizni yuving.




Ko'zga tomchi tomizish

O'quvchi bajarishi kerak: Ko'zga tomchi tomizishni.

Kerakli jihozlar: dori vositali steril flakonlar, steril tomizg'ich, rezina qo'lqoplar, paxta pilliklar, antiseptik eritma, lotok.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Tomchili flakon etiketkasini o'qing.
2. Tomizgich steril sharchalarini tayyorlang.
3. Bemorga muolaja yo'nalishini tushuntiring.
4. Unga dori moddasi haqida ma'lumot bering.
5. Bemorni o'tqizib yoki turg'izib qo'ying.
6. Qo'lingizni yuving.
7. Tomizgichdagi kerakli tomchi miqdorini torting, chap qo'lingizga paxta sharchani oling.
8. Bemordan boshini ozroq orqaga egib, yuqoriga qarashini so'rang.
9. Pastki qovoqni paxta sharcha bilan pastga torting.
10. Pastki konyuktiva burmasiga 2-3 tomchi dori tomizing.
11. Bemordan ko'zini yumishini so'rang.
12. Tomchi qoldiqlarini ko'zning ichki burchagiga suring.
13. Ikkinchi ko'zga ham tomchi tomizish lozim bo'lsa, 7-12 bandlardagi harakatlarni takrorlang.
14. Muolajadan so'ng bemor o'zini qulay his qilayotganligiga ishonch hosil qiling.
15. Qo'lingizni yuving.



DORI ERITMASINI KO'ZGA TOMIZISH



Bemorga muolaja maqsadi va ketma-ketligi tushuntiriladi.



Ko'zni qarab chiqing. Chap qo'lingizga steril paxta (doka) pilik oling. Uni pastki qovoqqa qo'ying.



Paxta pilik yordamida pastki qovoqni torting.



Pastki konyunktival qopchaga 1-2 tomchi dori eritmasini tomizish.



Tomchillar qoldig'ini doka pilik bilan ko'zning ichki burchagl sohasida artib oling.



Xuddi shunday usulda ikkinchi ko'zga ham dori tomizing.



Pastki qovoqqa pilik qo'yib, ubilan pastgi qovoqni torting.



O'ng qo'l bilan malhamni tyubik ichidan bosib chiqara borib, uni pastgi qovoq ichki yuzasiga tushiring.



Malhamni ko'zning ichki burchagidan tashqarisi tomon tushiriladi.



Ko'zni yumib, malham qoldiqarini paxta pilik bilan artib olinadi.

KO'ZGA MALHAMNI SHISHA TAYOQCHA VOSITASIDA QO'YISH



Shisha tayoqchaning keng qismiga tyubik ichidan malhamni kerak miqdorda bosib chiqariladi.



Pilik bilan pastki qovoqni tortiladi.



Shisha tayoqcha bilan undagi malhamni pastgi qovoq o'rtasiga tushuriladi.



Pilik yordamida ehtiyotlik bilan, pastki qovoq bo'ylab quloqdan burunga yo'nallishda aylanma uqalovchi harakatlar bajarilg.

Dori moddalarini enteral yo'l orqali qabul qilish

O'quvchi bajarishi kerak: Dori moddalarini enteral yo'l orqali qabul qilishni.

Kerakli jihozlar: kukun, suv, qoshiq, menzurka.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

(bemor o'zi qabul qiladi).

1. Kukun (poroshok) holdagi dori olinadi.
2. Suv solingan qoshiqqa (menzurkaga sepiladi).
3. Bemordan suyuqlikni ichish so'raladi.
4. Ustidan ma'lum miqdorda suv ichiladi.

(bemorga hamshira yordam beradi).

1. Kukun holdagi dori olinadi.
2. Bemorning boshi ko'tariladi va til ostiga kukun sepiladi.
3. Ustidan bir stakan suv beriladi.

Kapsula, tabletka qabul qilish

O'quvchi bajarishi kerak: Kapsula, tabletka qabul qilishni.

Kerakli jihozlar: kapsula yoki tabletka, suv.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Bemordan kapsula yoki tabletka til ustiga qo'yish so'ralladi.
2. Ustidan 1 stakan suv beriladi.
3. Tabletka yoki kapsulani bemor yutganligitekshiriladi.

Eslatma: kapsulalar bo'linmaydi, tabletkalar maxsus qoplamda bo'lsa bo'linmaydi.



Mikstura qabul qilish

O'quvchi bajarishi kerak: mikstura qabul qilishni.

Kerakli jihozlar: mikstura, menzurka, suv.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Mikstura aralashtiriladi va menzurkada kerakli miqdorda solinadi, 1 choy qoshiq-5ml losh qoshiq-15 ml.
2. Bemorga menzurka beriladi va ichish so'raladi.



Qaynatma qabul qilish

O'quvchi bajarishi kerak: qaynatma qabul qilishni.

Kerakli jihozlar: qaynatma, menzurka, suv.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Kerakli miqdordagi qaynatma menzurkaga solinadi.
2. Menzurkaga qaynatma bilan teng miqdorda suv solinadi.
3. Bemordan dori moddasi ichish so'raladi.

Damlama (nastoyka) qabul qilish

O'quvchi bajarishi kerak: damlama (nastoyka) qabul qilishni.

Kerakli jihozlar: nastoykali flakon, pipetka, suv.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Nastoykali flakon ochiladi.
2. Tomizgichka (pipetka) kerakli miqdorda nastoyka olinadi.
3. Suv solingan menzurkaga kerakli miqdordagi nastoyka tomiziladi.
4. Tayyorlangan eritmani bemorga ichiriladi.

Bemorga suppozitoriyni kiritish

O'quvchi bajarishi kerak: Bemorga suppozitoriyni kiritishni.



Kerakli jihozlar: suppozitoriy, to'siq, qo'lqop.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Muzlatkichdan suppozitoriylarni taxlamini oling va nomini o'qing.
2. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering.
3. Unga suppozitoriy kiritish texnikasini tushuntiring.
4. Bemorni to'siq bilan o'rab qo'ying.
5. Undan yonboshiga yotib oyoqlarnitizzadan bukishini so'rang.
6. Qo'qoplarni kiying.
7. Suppozitoriy taxlangan qobiqni oching.
8. Bemordan o'zini bo'sh tutishini so'rang.
9. Birqo'lbilan bemor dumbalarini kerib, ikkinchisi bilan suppozitoriyni anal teshigiga kiriting.
10. Bemordan o'ziga qulay bo'lgan holatda yotishini so'rang.
11. Qo'lqoplarni yeching.
12. To'siqni olib tashlang.
13. Bir necha soatdan so'ng bemordan ichi kirgan kirmaganligini so'rang.



IN'EKSIYALAR UCHUN SHPRISLAR



Uch qismli (a) va ikki qismli shprislar.



MAXSUS SHPRISLAR



Teri orasiga inyeksiya qilish

O'quvchi bajarishi kerak: teri orasiga inyeksiya qilishni.

Kerakli jihozlar: dori moddasi, shpris, steril paxta, lotok, spirt, steril qo'lqop.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Shprisga kerakli miqdorda dori moddasini torting.
2. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering.
3. Unga zaruriy holatni egallashiga yordam bering.
4. Qo'lqoplarni kiying, inyeksiya qilinadigan joyni bir xil yo'nalishda spirt bilan arting.
5. Inyeksiya qilinadigan joy terisini torting.
6. Igna kesimini yuqoriga qaratib teri bilan parallel qilib uchini teriga kiriting.
7. Ikki barmoq bilan ignani teriga bosing.
8. Chap qo'lni porshenga o'tkazib, uni bosibdori moddasini yuboring.
9. Spirtga ho'llangan steril paxtani bosmasdan ignani chiqaring.
10. Qo'lqoplarni yeching.
11. Bemorga ma'lum vaqt mobaynida, inyeksiya qilingan joyga suv tekkizmasligi lozimligini tushuntiring.

Teri ostiga inyeksiya qilish

O'quvchi bajarishi kerak: teri ostiga inyeksiya qilishni.

Kerakli jihozlar: dori moddasi, shpris, steril paxta, lotok, to'siq, spirt, steril qo'lqop.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Shprisgadori moddasini torting.
2. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering.
3. Bemordan to'siq bilan o'rash kerakmi yo'qligini so'rang.
4. Unga kerakli holatni egallashda yordam bering.
5. Qo'lqoplarni kiying, inyeksiya qilinadigan joyni spirtga namlangan ikkita paxta tampon bilan ketma-ket arting.
6. Inyeksiya qilinadigan joyni chapqo'l bilan ko'rsatilgandek ushlang.
7. Ignani 45° burchak ostida burmalangan terining yuza qismiga 15 mm chuqurlikda kiriting, barmoq bilan ignaning konyulasidan ushlab turing.
8. Chap qo'lni porshenga o'tkazib dori moddasini yuboring. Shprisni qo'ldan-qo'lga o'tkazmaslikka harakat qiling.

9. Ignani konyulasidan ushlab chiqaring, teshilgan joyga spirtga namlangan steril paxta bosing.

10. Paxta bilan inyeksiya qilinadigan joyni sekin uqalang.

11. Bemordan o'zini qanday his qilayotganligini so'rang, qo'lqoplarni yeching.

TERI ORASI IN'EKSIYALARI



1 In'eksiya sohasini spirt bilan artish



2 Ignani teri orasiga kiritish



3 Dori moddasini teri orasiga jo'natish




4 Dori moddasi hosil qilgan do'mboqcha



5 In'eksiya sohasini spirt bilan artish



TERI OSTI IN'EKSIYALARI



6 Ignani teri orasiga kiritish



7 Dori moddasini teri ostiga jo'natish



8 Ignani chiqarib olish



9 In'eksiya o'rniga spirt shilmdirilgan paxta qo'yish

Mushak orasiga inyeksiya qilish

O'quvchi bajarishi kerak: mushak orasiga inyeksiya qilishni.

Kerakli jihozlar: dori moddasi, to'siq, shpris, steril qo'lqop, spirt, lotok, paxta sharcha.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Bemorga dori moddasi va qilinadigan inyeksiya haqida ma'lumot bering.

2. Undan inyeksiya qilish vaqtida to'siq bilan o'rash kerakmi yo'qligini so'rang.

3. Qo'lingizni yuving.

4. Dori moddasini shprisga torting.

5. Bemorga qilinadigan inyeksiya uchun qulay vaziyatni egallashga yordam bering.

6. Inyeksiya qilinadigan joyni belgilang, qo'lqop kiying.

7. Inyeksiya qilinadigan joyni spirtga namlangan paxta sharcha bilan arting.

8. Inyeksiya qilinadigan joyni fiksatsiya qiling.

9. Ignani 2-3 mm teri ustida ushlab, 90 ° burchak ostida mushakka kiriting.

10. Chap qo'lni porshenga o'tkazib dori moddasini yuboring. Iltilgan moyli eritmani kiritishdan oldin porshenni yuqoriga torting, shprisga qon tushmayotganligiga ishonch hosil qiling va shundan so'ng eritmani yuboring.

11. Ignani odatdagidek chiqaring.

12. Paxtani teridan olmasdan turib inyeksiya qilingan joyni sekin uqalang, qo'lqoplarni yeching.

13. Bemorga qulay vaziyatni egallashiga yordam bering.

14. To'siqni olib qo'ying.

Infiltrat-ko'proq teri osti va muskul orasiga qilingan inyeksiyalardan so'ng sodir. Bunga;

a. O'tmas igna

b. Ingichka igna

Absess- bu yumshoq to'qimalarning yiringli yallig'lashi bo'lib, buning sabablari yuqoridagidek.

Ignaning sinib ketishi- inyeksiya bajarish vaqtida eski ignadan foydalanishdir.

Medikomentoz emboliya- moyli eritmalarning teri ostiga va muskul orasiga yuborish vaqtida ularning tomir bo'shlig'iga tushib, tiqilib qolishi natijasida yuzaga keladi.


Havo emboliyasi- ineksyalarni, asosan, venaga oqma va tomchi ustida yuborilganda sodir bo'ladi.

Nerv tolalarning shikastlanishi- asosan muskul orasiga va vena ichiga ineksiya qilinganda sodir bo'ladi. Bu ineksiya uchun noto'g'ri joyini tanlash yoki dori moddalari ma'lum qismining teri ostiga ketishi va nervini oziqlantiruvchi tomirning dimlanib qolishi sababli paydo bo'ladi.

Tromboflebit—vena tomirining tromblar tiqilib qolishi oqibatida yallig'lanishidir. o'tmas ignalarni qo'llash va venaning bir qismiga tez-tez ineksiya qilish sababli paydo bo'ladi.

Nekroz-ko'pincha venopunksiyada kuchli ta'sir etuvchi dori moddalari ma'lum miqdorining adashib teri ostiga ketishidir.

MUSHAK ORASI IN'EKSIYALARI



Qo'yimchga in'eksiya qilish sohasini aniqlash

Ignani sanchgach, shpris porshenini ortga tortib qo'yil



Son sohasida in'eksiya o'rnini aniqlash



Dori moddasini jo'natish



Igna va shprisning to'g'ri joylanishi,
Dori moddasini jo'natish.



Deltasimon mushakda in'eksiya sohasini aniqlash

FLAKONDAN IN EKSIYA UCHUN ERITMANI TORTISH



Flakonni qopqoqini ochish



Tayyor eritmani shprisga tortish



Rezina tiqinni spirtli paxta bilan artish



Shpris ignasini yuqoriga qilib, havosini chiqarib yuborish



Flakon rezina qopqoqini teshib, erituvchini flakonga kiritish



Ignaga steril qopqoqchani kiydirish




Shprisni flakondan chiqarib, flakonni silkitish



Tayyor eritmali shprisni lotokka solish


SISTEMA VA SHTATIV



- 1 Himoya qopqog'i
- 2 Havo o'tkazgich
- 3 Qisqich
- 4 Igna
- 5 Filtr
- 6 In'eksion igna
- 7 In'eksion bo'g'in



SISTEMA TAYYORLASH



1 Sistemaning distal qismi.



2 Rolikli qisqich



3 Flakonning alyuminiy qopqog'ini ochish



4 Rezina tiqinni spirt bilan artish.



5 Sistema paketini ochish



6 Sistemaning proksimal uchi bilan flakon tiqinini teshish



7 Rolikli qisqichni berkitish



8 Sistema filtrini bosib, yarmigacha eritma bilan to'ldirish



9 Sistema havoo'tkazgichini ochish



10 Flakonni to'ntarish va shtativga osish



11 Filtr



12 Rolikli qisqichni ochib, sistemanl eritmaga to'ldirish.

Vena ichiga inyeksiya qilish

O'quvchi bajarishi kerak: vena ichiga inyeksiya qilishni.

Kerakli jihozlar: dori moddasi, spirt, steril paxta sharchasi, shpris, klyonka yostiqcha, jgut, lotok, steril qo'lqop.

Muolajaning bajarilish algoritmi:

1. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot bering.
2. Shprisga dori moddasini torting.
3. Bemorga qulay vaziyatni egllashga yordam berung.
4. Bemorning tirsagi ostiga kleyonka yostiqcha qo'ying, qo'lqoplarni kiying.
5. Yelkaning o'rta qismiga rezina jgut bog'lang, bunda bilak arteriyasidagi puls uzgarmasligi lozim. Jgutni shunday bog'lash kerakki, unun g ikki uchi yuqoriga, halqasi esa pastga yo'nalgan bo'lsin.
6. Bemordan kaftini bir necha marotaba siqib ochishini so'rang, bir vaqtning o'zida tirsak bukiminispirtga namlangan steril paxta bilan arting. Pereferiyadan markazga harakat qilib, tomirlar to'liqligini aniqlang.
7. Shprisni oling, ko'rsatkich barmoq bilan igna kalunasini, boshqa barmoqlar bilan esa silindr yuqorisidan ushlang.
8. Ignaning o'tkazuvchanligini va shu shprisda havo yo'qliginitekshiring.
9. Chap qo'lingiz bilan tirsak bukimidagi terini torting.
10. Shpris holatini o'zgartirmasdan, igna kesimini yuqoriga va teriga parallel ushlab venaga kiriting.
11. Chap qo'lingiz bilan venani aniqlagan holda ignaning yo'nalishini nisbatan o'gartirib bo'shliqqa tushganingizni his qilguncha, asta-sekinlik bilan venani teshing.
12. Igna venada ekaligiga ishonch hosil qiling, porshenni o'zingizga torting(shpretsda qon hosil bo'lishi lozim).
13. Jgutni chapqo'l bilan bir uchidan tortib yeching, bemordan mushtini ochishi so'rang.
14. Shpris holatini o'zgartirmasdan chap qo'l bilan porshinni bosing va dorini asta-sekinlik bilan yuboring.
15. Inyeksiya qilingan joyga spirt da namlangan paxta sharcha bosib, ignani chiqaring, qo'lqoplarni yeching, qon bilan ifloslangan paxta sharchani bemorda qoldirmang.

VENA ICHI IN'EKSIYALARI



1 Bemordan in'eksiya sohasini
kiyimlardan hollash so'raladi.



2 Rezina burovni ko'ylak yengi ustidan
venalar devorini bosadigan qilib qo'yiladi.



3 Punksiya sohasini ko'zdan kechirib
venani paypaslanadi.



4 Tirsak buklami terisini spirt shimdirilgan soqacha
bilan in'eksiya o'rnini aylanma shaklda ishlanadi.



5 Shprisni o'ng qo'lga olinadi.



6 Ignani venaga parallel ozroq burchak
ostida vena devori teshib o'tiladi.



7 O'ng qo'l bilan porshen ortga tortilganda shprisda qon paydo bo'lishi kerak.



VENA ICHI IN'EKSIYALARI

(davomi)



Burovni (jgut) chap qo'l bilan bir uchidan bo'shatiladi va bemordan mushtini yozib yuborish so'raladi.



O'ng qo'l shprisni fiksatsiyalangan holda ushlab turishi kerak. Chap qo'l bilan shpris porsheniga bosib, eritmani seklnlik bilan jo'natiladi.



Eritmani jo'natish paytida bemorning holatini nazorat qilib turiladi.

In'eksiya o'miga spirtli paxta soqachani qo'yib 1gnani venadan chiqarib olinadi.



Qo'lni tirsak buklamidan spirtli soqacha qo'yib buklanadi va bemordan bir muddat qo'lini shu holatda ushlab turish so'raladi (qon ketish profilaktikasi).

AMPULADAN ERITMANI TORTIB OLISH



Kerak anjomlar


Flakonni ochib, dori
moddasini shprisga
tortishni bevosita
bemorning ko'z o'ngida
bajariladi.



Ampula tor qismiga arracha bilan chiziq tortish



Ampuladan eritmani shprisga tortib olish



Paxtaga spirt shimdirish



Ampula bo'g'zini spirt bilan artish



Shpris ignasini yuqoriga qilib,
havosini chiqarib yuborish



Ampulani bo'g'zidan paxta bilan
ushlab sindirish



Ignaga steril qopqoqchani kiydirish



Mavzularga oid test savollari

1.Hamshira so'zining lug'aviy ma'nosi qanday?

- A. shafqatli inson;
- B. vatanparvar inson;
- C. parvarish qiluvchi;
- D. "ham"birga, "shira"sut.

2.Xalqaro hamshiralik ishining asoschisi kim?

- A. F. Naytingeyl;
- B. V. Xenderson;
- C. D. Orem;
- D. A. Maslou.

3.Xalqaro hamshiralar kuni qachon nishonlanadi?

- A. 12 may;
- B. 16 aprel;
- C. 30 sentyabr;
- D. 1 yanvar.

4.Florens Naytingeyl medali qachon ta'sis etilgan??

- A. 1905 yil
- B. 1925 yil
- C. 1912 yil
- D. 1935 yil

5.Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari nechta kitobdan iborat?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- C. 4 ta
- D. 5 ta

6.Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining birinchi kitobi nima haqida yozilgan?

- A. tabobatning nazariy asoslari, hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida;
- B. tabobatda qo'llaniladigan o'sha davr dori – darmonlari haqida;

C. tabobat ilmining ta'rifī va inson tanasining boshidan tovonigacha bo'lgan a'zolarida yuz beradigan xususiy va maxalliy kasalliklari haqida;

D. tabobat ilmining ta'rifī va kishi a'zolaridan birontasiga xos bo'lmagan kasalliklar haqida.

7.Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining ikkinchi kitobi nima haqida yozilgan?

A. tabobatning nazariy asoslari, xamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida

B. tabobatda kullaniladigan usha davr dori – darmonlari haqida

C. tabobat ilmining ta'rifī va inson tanasining boshidan tovonigacha bulgan a'zolarida yuz beradigan xususiy va maxalliy kasalliklari haqida

D. tabobat ilmining ta'rifī va kishi a'zolaridan birontasiga xos bulmagan kasalliklar haqida

E. tabobat ilmining ta'rifī, xamda farmakopeya va murakkab tarkibli dori – darmonlar tayyorlash va undan foydalanish haqida

8. Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining uchinchi kitobi nima haqida yozilgan?

A. tabobatning nazariy asoslari, xamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida

B. tabobatda kullaniladigan usha davr dori – darmonlari haqida

C. tabobat ilmining ta'rifī va inson tanasining boshidan tovonigacha bulgan a'zolarida yuz beradigan xususiy va maxalliy kasalliklari haqida

D. tabobat ilmining ta'rifī va kishi a'zolaridan birontasiga xos bulmagan kasalliklar haqida

E. tabobat ilmining ta'rifī, xamda farmakopeya va murakkab tarkibli dori – darmonlar tayyorlash va undan foydalanish haqida

9.Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining to'rtinchi kitobi nima haqida yozilgan?

A. tabobatning nazariy asoslari, xamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida

B. tabobatda kullaniladigan usha davr dori – darmonlari haqida

C. tabobat ilmining ta'rifī va inson tanasining boshidan tovonigacha bulgan a'zolarida yuz beradigan xususiy va maxalliy kasalliklari haqida

D. tabobat ilmining ta'rifī va kishi a'zolaridan birontasiga xos bulmagan kasalliklar haqida

10. Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining beshinchi kitobi nima haqida yozilgan?

A. tabobatning nazariy asoslari, xamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida;

B. tabobat ilmining ta'rifi va inson tanasining boshidan tovonigacha bo'lgan a'zolarida yuz beradigan xususiy va maxalliy kasalliklari haqida

C. tabobat ilmining ta'rifi va kishi a'zolaridan birontasiga xos bo'lmagan kasalliklar haqida

D. tabobat ilmining ta'rifi, hamda farmakopeya va murakkab tarkibli dori – darmonlar tayyorlash va undan foydalanish haqida

11. «Etika» so'zining ma'nosi qanday?

A. yunoncha - yurish turish, axloq;

B. lotincha - yurish turish, axloq;

C. yunoncha - yurish turish, zapvp;

D. lotincha - yurish turish, burch.

12. Axloqiy tushunchalarga qaysilar kirmaydi?

A. burch, qo'pollik, qadr - qimmat ;

B. burch, sharaf, baxt;

C. burch, sharaf vijdon;

D. burch, sharaf or – nomus.

13. Axloqiy tushunchalarga qaysilar kiradi?

A. burch, sharaf, or - nomus ;

B. burch, sharaf, qo'pollik ;

C. burch, sharaf, befarqlik ;

D. burch, sharaf, jaxldorlik.

14. Bemorlarning kasalligi tufayli o'zoro bir - biriga ijobiy yoki salbiy ta'siri nima deyiladi?

A. egogeniya ;

B. egrotogeniya ;

A. yatrogeniya ;

C. emotsiya.

15. Tibbiyot xodimlarining xatti -harakatlari va munosabatlari natijasida kelib chiqadigan bemorlardagi holat bu:

- A. egrotogeniya ;
- B. yatrogeniya;
- C. emotsiya ;
- D. egogeniya.

16. Xardi «Shifokor, hamshira, bemor » degan kitobida necha xil hamshiralarni ta'riflab bergan ?

- A. 6 xil ;
- B. 7 xil;
- C. 2 xil;
- D. 3 xil.

17. “Qotib qolgan” hamshirani ko‘rsating

- A. o‘ziga berilgan vazifani aniq, quruq va puhta bajaradilar lekin bemor uchun qaygurmeydilar;
- B. o‘ziga berilgan vazifani bajarishda sini’ylik, ko‘zbo‘yamachilik ko‘zga tashlanib turadi;
- C. o‘ziga berilgan vazifani bajarishdan bosh tortib turli sabablarni bohona qiladilar;
- D. o‘ziga berilgan vazifani keskin, qatiyatli holda bajaradilar, lekin saromjon – sarishtalik kuzatilmaydi.

18. “Yodlab olgan rolni ijro etuvch” hamshirani ko‘rsating

- A. o‘ziga berilgan vazifani aniq va puhta bajaradilar lekin bemor uchun qayg‘urmaydilar;
- B. o‘ziga berilgan vazifani bajarishda sini’ylik, ko‘zbo‘yamachilik ko‘zga tashlanib turadi;
- C. o‘ziga berilgan vazifani bajarishdan bosh tortib turli sabablarni bohona qiladilar;
- D. o‘ziga berilgan vazifani keskin, qatiyatli holda bajaradilar, lekin saromjon – sarishtalik kuzatilmaydi.

19. “Asabiy” hamshirani ko‘rsating

- A. o‘ziga berilgan vazifani aniq va puhta bajaradilar lekin bemor uchun qayg‘urmaydilar;

B. o'ziga berilgan vazifani bajarishda sini'ylik, ko'zbo'yamachilik ko'zga tashlanib turadi;

C. o'ziga berilgan vazifani bajarishdan bosh tortib turli sabablarni bohona qiladilar;

D. o'ziga berilgan vazifani keskin, qatiyatli holda bajaradilar, lekin saromjon – sarishtalik kuzatilmaydi.

20.Erkaklarga o'xshash hamshirani ko'rsating

A. o'ziga berilgan vazifani aniq va puhta bajaradilar lekin bemor uchun qayg'urmaydilar;

B. o'ziga berilgan vazifani bajarishda sini'ylik, ko'zbo'yamachilik ko'zga tashlanib turadi;

C. o'ziga berilgan vazifani bajarishdan bosh tortib turli sabablarni bohona qiladilar;

D. o'ziga berilgan vazifani keskin, qatiyatli holda bajaradilar, lekin saromjon – sarishtalik kuzatilmaydi.

21.Jonkuyar hamshirani ko'rsating

A. o'ziga berilgan vazifani fidoyilik va mexribonlik bilan hamma ishga ulgurgan holda bajaradilar;

B. o'ziga berilgan vazifani bajarishda sini'ylik, ko'zbo'yamachilik ko'zga tashlanib turadi;

C. o'ziga berilgan vazifani bajarishdan bosh tortib turli sabablarni bahona qiladilar;

D. o'ziga berilgan vazifani bajarishda ma'suliyatin his etgan holda o'z qiziqishlari va malakalarini ko'rsatadi.

22.Mutaxassis hamshirani ko'rsating

A. o'ziga berilgan vazifani fidoyilik va mexribonlik bilan hamma ishga ulgurgan holda bajaradilar;

B. o'ziga berilgan vazifani bajarishda sini'ylik, ko'zbo'yamachilik ko'zga tashlanib turadi;

C. o'ziga berilgan vazifani bajarishdan bosh tortib turli sabablarni bohona qiladilar;

D. o'ziga berilgan vazifan bajarishda ma'suliyatin his etib, aniq va puhta, o'z qiziqishlari va malakalarini ko'rsatgan holda bajaradilar.

23. Verbal muloqot qanday amalga oshiriladi?

- A. ma'lumotlarni yozma, nashr qilingan holda uzatish;
- B. axborotlarni hurmat va samimiylik, qayg'udoshlik orqali namoyon qilish;
- C. imo-ishora, qo'l va gavda harakati bilan muomalada bo'lish;
- D. bir shaxsdan ikkinchi shaxsga muomala davrida so'z bilan uzatiladigan axborot.

24. Noverbal muloqot qanday amalga oshadi?

- A. imo-ishora, qo'l va gavda harakati bilan muomalada bo'lish;
- B. bir insonning ko'p kishilik guruh bilan suhbat;
- C. og'zaki muloqot;
- D. muloqotni samarali olib borish.

25. Eshitish samarali bo'lishi uchun nima qilishi kerak?

- A. gapirishdan to'xtab, bemorga e'tiborni jamlash, uning gapini bo'lmashlik, chalg'ituvchi omillarni bartaraf etish: (telefon qo'ng'irog'i, boshqa odamlar, shovqin) va boshqalar;
- B. suhbat detallarini, mavzusini ilg'ab olish, suhbatni to'xtatib o'ziga kerakli ma'lumotlarni so'rash. Emotsional reaksiyalar va his-tuyg'ularga e'tibor berish;
- C. ko'proq ochiq savollar berib, bemorlarni ko'proq eshitish;
- D. sukut saqlash, tegish, daxldorlik.

26. Hospitalizm nima?

- A. Bemorlarning kasalxona sharoitiga moslashguncha bo'lgan davri;
- B. Bemorlarning o'zoro e'tiborsizligi;
- C. Bemorlarning o'zoro ta'siri;
- D. Bemorlarning tibbiyot xodimlariga bo'lgan munosabati.

27. Deontologiya so'zining ma'nosini ko'rsating

- A. yunoncha - yurish turish, axloq;
- B. lotincha - zarur lozim ;
- C. yunoncha - zarur lozim;
- D. lotincha — yurish turish, burch.

28. Bemorlarning kasalxona sharoitiga moslashguncha bo'lgan davri nima deyiladi?

- A. yatrogeniya;
- B. gospitalizm ;
- C. egogeniya ;
- D. egrotogeniya.

29. Shikoyatlarini umumlashtirgan holda bayon eta olmaslik, muolajalarni qo'rquv bilan qabul qilish qaysi guruh bemorlariga mansub

- A. maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi;
- B. o'smirlik yoshdagi bemorlar guruhi;
- C. mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshdagi bemorlar guruhi;
- D. qari va keksaygan bemorlar guruhi.

30. Kattalarga taqlid qilish, shavvozlik, mardlik, befarqlik qaysi guruh bemorlariga mansub

- A. maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi;
- B. o'smirlik yoshdagi bemorlar guruhi;
- C. mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshdagi bemorlar guruhi;
- D. qari va keksaygan bemorlar guruhi.

31. Kasalligining ijobiy yo'nalishda borayotganini kuzatish va har bir ishda xulosa chiqarish qaysi guruh bemorlariga mansub

- A. maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi;
- B. o'smirlik yoshdagi bemorlar guruhi;
- C. mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshdagi bemorlar guruhi;
- D. qari va keksaygan bemorlar guruhi.

32. Tezda dil og'rishi, eshitish, ko'rish va eslash qobiliyatining pasayishi qaysi guruh bemorlariga mansub

- A. maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi;
- B. o'smirlik yoshdagi bemorlar guruhi;
- C. mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshdagi bemorlar guruhi;
- D. qari va keksaygan bemorlar guruhi.

33. Tibbiyot hodimlarining xato turlariga qaysilar kiradi ?

- A. fuqorolik ;

- B. ma'muriy ;
- C. intizomiy ;
- D. hamma javob to'g'ri.

34. Hamshiraning majburiyatlari nimalardan iborat?

- A. Bemor muammolarini hisobga olgan holda parvarish qilish;
- B. Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha ish olib ;
- C. Shifokor ko'rsatmasini hisobga olib, o'zi xohlagan usulda parvarish qilish;
- D. Bemor qarindoshlarining ko'rsatmasi bo'yicha ish olib.

35. Bemorga yo'naltirilgan parvarishni amalga oshiradigan hamshirada qanday xislatlar va sifatlar mavjud bo'lishi kerak?

- A. xushmuomala, chiroyli, o'zi xohlagan usulda parvarish qiladigan;
- B. qat'iy, irodali, shifokor ko'rsatmasini bajaradigan;
- C. mustaqil fikrlaydigan, xushmuomala, bemor muammolarini e'tiborga oladigan, irodali;
- D. bilimli, shifokor ko'rsatmasidan chetga chiqmaydigan, xushmuomala.

36. Shifokor ko'rsatmalari bemorga to'g'ri kelmasa, hamshira shifokor bilan maslahatlashishi kerakmi?

- A. yo'q, shifokor ko'rsatmasini bajarish kerak;
- B. yo'q, bemor qarindoshlari bilan maslahatlashish kerak;
- C. ha, shifokor bilan maslahatlashish kerak ;
- D. ha, shifokor bilan maslahatlashib, o'zi xohlagan usulda parvarish qilishi kerak.

37. Agar kimdir bemorning qiziqishlariga zarar yetkazishga harakat qilsa, hamshira esa o'z bilimlariga asoslangan holda, qat'iyan bemorning qiziqishlarini himoya qilsa, parvarish kimga yo'naltirilgan bo'ladi?

- A. shifokorga ;
- B. bemorga;
- C. hamshiraning o'ziga;
- D. bemor oila a'zolariga.

38. Hamshira birinchi bo'lib kimning oldida javobgarlikni his qilishi kerak?

- A. shifokor oldida;
- B. bemor oldida ;
- C. bemor qarindoshlari oldida;
- D. o'zining oldida.

39. Tibbiyot deontologiyasi tibbiyot xodimlaridan nimani talab qiladi?

- A. yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishni;
- B. bilimdonlikni;
- C. mehribonlikni;
- D. halollikni.

40. Qishloq vrachlik punkti (QVP) aholining qaysi qatlamiga tibbiy xizmat ko'rsatadi?

- A. qishloq tumanlarida alohida tibbiy yordam ko'rsatadigan tibbiy muassasa;
- B. jismoniy va yuridik shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatadi;
- C. ayrim guruh bemorlariga tibbiy yordam ko'rsatadi;
- D. aholi orasida surunkali kasalliklar bilan kasallangan bemorlarga;

41. Shifoxona qanday DPM turiga kiradi?

- A. aholiga zaruruy statsionar tibbiy yordam ko'rsatuvchi DPM turiga kiradi;
- B. jismoniy va yuridik shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatadi;
- C. qishloq tumanlarida alohida tibbiy yordam ko'rsatadigan tibbiy muassa;
- D. bolalar va kattalarga alohida yordam ko'rsatadigan tibbiy muassasa.

42. Shifoxonaning asosiy tarkibiy qismiga qaysilar kiradi?

- A. qabul bo'limi, davolash bo'limi, dorixona, oshxona;
- B. bosh shifokor xonasi, qabul bo'limi, oshxona;
- C. qabul bo'limi, xo'jalik bekasi xonasi, katta hamshira xonasi;
- D. oshxona, muolaja xonasi, dorixona, hamshira xonasi.

43. Ko'p tarmoqli tibbiyot muassasasiga qaysi biri kiradi?

- A. bir necha xil davolash bo'limidan iborat bo'lsa;
- B. ayrim guruh bemorlariga yordam ko'rsatuvchi muassasa;
- C. jismoniy va yuridik shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasa;
- D. qishloq tumanlarida alohida tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassa.

44. Muloqat qanday turlarga bo'linadi?

- A. verbal va noverbal;
- B. yozma va og'zaki;
- C. imo- ishora, mimik harakatlar;
- D. ichki va tashqi muloqot.

45. Verbal muloqotga nima kiradi?

- A. og'zaki, nutq orqali;
- B. tana harakatlari orqali;
- C. mimika, yuz ifodasi harakatlari orqali;
- D. xatti-xarakatlar orqali.

46. Muloqot turlariga qaysilar kiradi?

- A. verbal, noverbal;
- B. og'zaki, yozma;
- C. noverbal, ijodiy;
- D. yozma, verbal.

47. Noverbal muloqot vositalariga nimalar xos?

- A. yuz ifodasi, mimika, imo-ishoralar;
- B. yuz ifodasi, ochiq va yopiq savollarni ishlatish;
- C. aniq, qisqa nutq, tovush ohangi;
- D. toza va chiroyli yozish.

48. Yozma muloqot samarali bo'lishi qaysi omillarga bog'liq ?

- A. o'qiy olish, tushuna olish, ko'ra olish;
- B. ko'ra olish va sog'lom bo'lish;
- C. sog'lom bo'lish va badavlat bo'lish;
- D. ko'ra olish, o'qiy olish, gapira olish.

49.Muloqat samarali bo'lishi uchun necha elementdan iborat bo'lishi kerak?

- A. 5 elementdan;
- B. 3 elementdan;
- C. 4 elementdan;
- D. 6 elementdan.

50.Muloqotda savollar nechaga bo'linadi?

- A. ochiq va yopiq savollar;
- B.Individual va guruhli savollar;
- C.Murakkab savollar;
- D.Sodda savollar.

Test savollari javoblari

I	J	S	J	S	J	S	J	S	J
1	D	11	A	21	A	31	C	41	A
2	A	12	A	22	D	32	D	42	A
3	A	13	A	23	D	33	D	43	A
4	C	14	A	24	A	34	A	44	A
5	D	15	B	25	A	35	C	45	A
6	A	16	A	26	A	36	C	46	A
7	B	17	A	27	A	37	B	47	A
8	C	18	B	28	B	38	B	48	A
9	C	19	C	29	A	39	A	49	A
10	D	20	D	30	D	40	A	50	A

Holatiy masalalar Vaziyatli masala №1

Bemor travmatologiya bo'limida chap oyoq son suyagining yopiq sinishi bilan davolanmoqda. Bemor ahvoli yaxshilanishi uchun shikfokor bemorga o'rnidan qimirlamasdan yotishini, bemor xohlagan ovqatini, yoqtirgan narsalarini berishini ta'minlab berdi. Davo natijalari yaxshi bo'lishi uchun dori preparatlaridan foydalandi. Bemorga hamshira muolajalarni vaqtida bajarib, yaxshi parvarish qildi. Oradan 5 kun o'tgandan so'ng bemor hamshiraga orqasi qichishayotganligini, bir joyda uzoq vaqt yotganidan zerikkanligini aytdi. Hamshira shifokor ko'rsatmasi bo'yicha o'rnidan qimirlamaslik kerakligini aytdi. Shunday qilsa muolaja yaxshi natija berishini aytib o'tdi. Lekin bemorning boshqa kamchiliklari

yo‘q edi. Palatasi toza ozoda, hamshira bemorning shaxsiy gigienasiga yaxshi qarardi.

Savol:

1) Bu yerda hamshira bemorga qaratilgan parvarishini amalga oshirayaptimi yoki shifokorga qaratilgan parvarishnimi?

2) Sizningcha hamshira qanday yo‘l tutishi kerak?

Vaziyatli masala №2

Bemor gastroenterologiya bo‘limida «Oshqozonning kardial qismida yara kasalligi» tashxisi bilan davolanmoqda. Bemorni dori-darmon va parhez bilan davolamoqda. Shu bilan birga bemorga qaratilgan parvarishni amalga oshirmoqda, bemorga qulay sharoit, muolajalarni o‘z vaqtida bajarmoqda. Bemor uzoq vaqt parhezda bo‘lganligi sababli shifokordan yoqtirgan ovqatini berishni so‘radi. Bemor kabob bilan somsani berishni so‘ragan edi. Bu ovqatlar bemorga zararli ta’sir etishini ta’kidlab o‘tdi, lekin bemor xoxishini e’tiborga olib bemorga kam miqdorda tanavvul etishlariga ruxsat berdi. Hamshira parvarish jarayonida dori-darmonlar bilan birga kam miqdorda shashlik va somsadan berib turdi.

Savol:

1) Bu yerda hamshira to‘g‘ri yo‘l tutdimi?

2) Bu yerda hamshira bemorga qaratilgan parvarishini amalga oshirayaptimi yoki shifokorga qaratilgan parvarishnimi?

3) Sizningcha hamshira qanday yo‘l tutishi kerak?

Vaziyatli masala №3

Nevrologiya bo‘limida ishlaydigan hamshira “Sh” Gemiparez tashxisi bilan davolanayotgan bemor “A”ga shifokor ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida, puxta amalga oshirish bilan birgalikda bemor xolatiga mustaqil ravishda baxo berib, undagi mavjud va nomavjud muammolarini aniqlab, ularni bartaraf etish uchun barcha chora-tadbirlarni ishlab chiqar, ya’ni:

Bemor bilan tez-tez muloqotga kirishib, bemorga tuzalishiga umid bag‘ishlar ;

1. Yotoq yaralar paydo bo‘lishini oldini olgan xolda bemor xolatini o‘zgartirib turar;

2. Hojatini chiqarish davomida palatadagi boshqa bemorlar oldida xijolat bo‘lishini oldini olish maqsadida to‘siq tutar;

3. Oqliklarini o‘z vaqtida almashtirib, bemor shaxsiy gigienasini bajarishda yordam berish orqali uning kayfiyatini ko‘tarishga sabab bo‘lar edi;

4. Bemorning xolatini dinamikada kuzatib, o'zgarishlarni o'z vaqtida shifokorga ma'lum qilar va bemor xolatini yaxshi tomonga o'zgartirish yo'lida rejalar tuzib, ularni amalga oshirar edi.

Savol:

Hamshira "Sh"ning diqqat markazida kim turadi bemorni yoki shifokor? Javobingizni asoslab bering.

Vaziyatli masala №4

Tibbiy tekshiruvlarda ishtirok etuvchi jamoa sog'lig'ini saqlash hamshirasi "D" ga misol.

Amerikaning (1932-1972 yil Alabama) Taskigi tumanida zaxm bo'yicha tekshiruv olib borilgan. Bu tekshiruvda Taskigida yashovchi zaxm kasalligi bilan kasallangan 400 qora tanli bemorlar qatnashgan. Bu tekshiruvni o'tkazishdan maqsad kasallikni dori vositalari qo'llanilmagan va davolash o'tkazilmagan vaqtda zaxmning tabiiy kechishini o'rganish edi. Faqat kasallikning kechishi kuzatildi. Jamoa sog'lig'ini saqlash hamshirasi "D" ushbu tumandan bo'lib, bemorlar bilan tanish edi va ular hamshiraga ishonishardi. Hamshira tekshiruvga jalb qilingan bo'lib, bemorlar va tekshiruvchilar orasida bog'lovchi zveno bo'lib xizmat qilar edi.

U bu tekshiruv bemorlar uchun zarar keltirishini va zudlik bilan davolashni boshlash zarurligi to'g'risidagi o'z fikrini hech qachon ochiq bayon etmas edi. Tekshiruvni o'tkazishga vijdonan yordamlashgan holda bemorlarning xolatini kuzatib, shifokorga ma'lum qilar edi.

Savol:

- hamshira "D" ning fikricha, kimning oldida birinchi navbatda javobgarlikni his qilgan?
- Sizning fikringizcha kimning oldida hamshira birinchi navbatda javobgar?
- Bemorga e'tibor qaratgan hamshira qanday harakat qilishi kerak?
- Shunday yo'l tutish uchun hamshira qanday inson bo'lishi kerak?

Vaziyatli masala №5

34 yoshli bemor chaqirigi bilan tez yordam mashinasi feldsher keldi

Bemor shikoyati: nafas qisishi, havo yetmasligi, bo'g'ilish yo'tal balg'am ajralishining qiyinlashuvi. Anamnezda 6 yildan buyon surunkali bronxit bilan og'rib kelgan. Oxirgi paytlarda kasalik sal shamollashda

ko'zib xuruj bilan o'tadigan bo'lib qolgan. Obe'ktiv tekshirganda bemorning axvoli og'ir o'tirgan majburiy xolatni egallagan. Teri ranglari oqargan akrosianoz. Nafas olishi shovqinli xirillab nafas olyapti. Perkussiyada o'pka ustida quticha tovushi xirillashlar eshitilmoqda. Yurak tonlari bo'g'iq, taxikordiya. AB-140/90mm.sim.ust.ga teng.

Savol:

1. Siznig tashxisingiz?
2. Bemorga shoshilinch yordam ko'rsating.

Vaziyatli masala № 6

Bemorning dumg'aza va ensa sohalarida teri rangining qizarishi, yakkam-dukkam pufakchalar bo'lishi, yengil og'riq sezgilari aniqlandi. Bemor operatsiyadan chiqqanligi uchun vaziyatni o'zgartirishining iloji yo'q.

Savol:

1. Yotoq yara avj olib ketishining oldini olish uchun siz nima qilasiz?
2. Qanday muolajalar qo'llaysiz?

Vaziyatli masala №7

Virusli gepatit (sariq kasalligi) bilan og'rigan bemorga vrach tomonidan qat'iy yotish tartibi belgilandi. Lekin bemor bunga quloq solmasdan yotgan joyida turli harakatlar qilish bilan davolash jarayoniga putur yetkaza boshladi.

Savol:

1. Sizning asosiy vazifangiz?
2. Bemorga qanday tushuntirish olib borasiz, maslaxatingiz?

Vaziyarli masala № 8

Bemor o'tkir pnevmoniya kasalligi bilan statsionarda davolanmoqda, isitmasi 39-40 darajadan birdaniga 35,5 darajagacha pasayib ketdi, es-hushi kirarli-chiqarli, puls ipsimon, arterial bosim o'lchanganda past ko'rsatgichda, sovuq ter qoplagan, rangi oqargan.

Savol:

1. Sizning xulosangiz, tashxisingiz?
2. Qanday choralar ko'rasiz?

Vaziyatli masala №9

Bemorda suv balansi aniqlanganda quyidagi ma'lumot olindi: sutka davomida ichilgan suyuqliklar miqdori -2 l, ajratilgan suyuqlik esa -0,9 l

Savol:

1. Sizning fikringiz?
2. Qanday kasalliklar haqida o'ylash mumkin?
3. Sizning tadbiringiz?

Vaziyatli masala № 10

O'pkasi yallig'langan bemorning kurak sohasiga xantalma qo'yildi. 3 daqiqa o'tgach bemor badaniga toshmalar toshib qichisha boshladi, nafas olishi qiyinlasha boshladi.

Savol:

1. Sizning fikringiz, tashxislaringiz?
2. Ko'radigan choralaringiz?

Vaziyatli masala № 11

Kechqurun soat 22:05 da qabulxonaga og'ir ahvolda bemor olib kelindi. Hamshira kasallik tarixiga aniqroq raqam sifatida 22 :00 deb yozib qo'ydi. Afsuski bemor soat 22:09 da vafot etdi. Hamshira esa 9 daqiqa davomida yetarli yordam ko'rsatmagan degan ayblov qo'yildi.

Savol:

1. Hamshira o'zini oqlay oladimi?
2. Qanday yo'l tutganida aybdor bo'lib qolmas edi?

Vaziyatli masala №12.

Me'dani zondlash jarayonida zonddan tiniq qon chiqa boshlaydi, bemorning rangi o'chib, boshi aylandi, ko'z oldi qoraya boshladi.

Savol:

3. Sizning fikringiz, tashxislaringiz?
4. Qanday choralar ko'rasiz?

Amaliy muolajalar ro'yxati

1. DPMlar vazifasiga ko'ra turlari
2. Statsionarda yuritiladigan asosiy hujjatlar
3. Kassalik tarixi bayonnomasining passport qismini to'ldirish
4. Poliklinik xizmat muassasalarida yuritiladigan hujjatlar
5. Bemorni Fowler vaziyatida yotqizish
6. Bemorni chalqancha yotqizish
7. Bemorni qorin bilan yotqizish
8. Bemorni Sims vaziyatida yotqizish
9. Trendelburg vaziyatida yotqizish
10. Bemorni transportirovka qilish
11. Terini gigienik parvarish qilish
12. I-II darajali yotoq yaralarni davolash
13. III-IV darajali yotoq yaralarni davolash
14. Gigienik vanna o'tkazish
15. Gigienik dush o'tkazish
16. Bemor oqliklarini almashtirish
17. Bemorga o'rin to'shash
18. Bemor kiyim kechaklarini almashtirish
19. Bemorlarni ovqatlantirishga tayyorlash va ularga qulay sharoit yaratib berish
20. Ovqatlanish jarayonida bemorga yordam berish
21. Parhez asosida taomnoma tuzish
22. Portsiya talabnoma yozish
23. Bemor tumbochkasi ozodaligini nazorat qilish
24. Og'ir yotgan bemorlarni tagini yuvish
25. Bemorni bo'y uzunligini o'lchash
26. Bemorning tana og'irligini aniqlash
27. Ko'krak qafasi aylanasi uzunligini o'lchash
28. Muskul kuchini o'lchash
29. Bemorning bosh aylanasi o'lchash
30. Termometriya o'tkazish va natijalarni qayd qilish
31. Tana harorati ko'tarilganda bemorni parvarish qilish
32. Isitmaning birinchi davrida bemorga yordam berish
33. Isitmaning ikkinchi davrida bemorga yordam berish
34. Isitmaning uchinchi davrida bemorga yordam berish
35. Tana haroratini qo'ltiq ostidan o'lchash
36. Tana haroratini chov burmasidan o'lchash
37. Tana haroratini og'iz bo'shligidan o'lchash

38. Tana haroratini to'g'ri ichakdan o'lchash
39. Bemor es-hushi darajasini aniqlash
40. Suv balansini aniqlash
41. Terini kuzatish
42. Sochni palpatsiya va ko'ruv asosida baholash
43. Tirnoqlarni ko'ruv va palpatsiya asosida baholash
44. Limfa tizimini palpatsiya asosida baholash
45. Bo'yin limfa tugunlarini paypaslab tekshirish
46. Qo'l limfa tugunlarini paypaslab tekshirish
47. Oyoq limfa tugunlarini paypaslab tekshirish
48. Bemorlarda sezuvchanlikni tekshirish
49. Pay reflekslarini tekshirish
50. Meningeal simptomlarni aniqlash
51. Sezish va harakat tizimida o'zgarishi bo'lgan bemorlarni va uning oila a'zolarini hamshiralik ishiga o'qitish
52. Harakatichegaralangan bemorlarni maxsus parvarish jihozlari bilan ishlashga o'rgatish
53. Nafas olish maromini aniqlash va natijalarni baholash
54. Nafas turlarini, usullarini va maromini aniqlash
55. Nafas olish tizimida uchraydigan patologik holatlarda bemorlarni parvarish qilish
56. Parvarish va kuzatuv natijalarini tibbiy varaqaga qayd qilib borish
57. O'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash
58. Tomir urishini turli sohalarda aniqlash
59. Arterial bosimini (A/B) o'lchash
60. Qon aylanish tizimini baholash
61. Ovqat va suv qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan belgilar
62. Yutish, tish va qizilo'ngach bo'yicha ovqatning o'tishi
63. Oshqozonda ovqat qazm qilishning buzilishi
64. Qusishda birinchi yordam ko'rsatish
65. Dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan ishlash qoidalari
66. Xlorli ohak eritmalarini tayyorlash
67. Xloramin eritmasini tayyorlash
68. Qo'lni gigienik yuvish
69. Muolaja xonasini tozalash
70. Parvarish ashyolarini dezinfeksiya qilish algoritmi.
71. Qonga tegadigan tibbiy asboblari, shprislar va ignalarni dezinfeksiya qilish
72. Tibbiy asboblarni dezinfeksiya qilish algoritmi

73. Steril stolni ishga tayyorlash algoritmi.
74. Rezina asboblarni sterilizasiya qilish algoritmi
75. Optik asboblarni sterilizasiya qilish algoritmi
76. Hamshiralik ishi faoliyati davomida sterillikka amal qilish algoritmi
77. Steril xalatni kiyish
78. Tibbiy maqsadlarda qo'llaniladigan buyumlarni sterilizasiya oldi tozalash
79. Sterilizasiya oldi tozalash sifati nazorati
80. Salfetkalar tayyorlash
81. Tamponlar tayyorlash
82. Trundalar tayyorlash
83. Sharchalar tayyorlash
84. Sterillanadigan vositalarni universal usulda bikslarga joylash
85. Sterillanadigan vositalarni maqsadga muvofiq usulda biksga joylash
86. Biksni yuqumsizlantirishga tayyorlash
87. Sterillikni nazorat qilish
88. Sterillikni nazorat qilish bakteriologik usuli
89. Me'dani yuvish va zaharlanganda yordam ko'rsatish
90. Tozalash klizmasini o'tkazish
91. Sifonli klizma o'tkazish
92. Moyli huqna qilish texnikasi
93. Dorili huqna
94. Oziqli huqna
95. Og'ir axvoldagi bemorlarni zond orqali ovqatlantirish
96. Bemorni gastrostoma orqali ovqatlantirish
97. Rektal sun'iy ovqatlantirish
98. Parenterial sun'iy ovqatlantirish
99. Dori moddalarini qo'llash usullari
100. Bemorlarga dori moddalarini tarqatish
101. Dori moddalarini yozib olish, qabul qilish va tarqatish
102. Malhamli bog'lam qo'yish
103. Teriga malham surtish
104. Tomchilarni quloqqa tomizish
105. Ko'zga tomchi tomizish
106. Dori moddalarini enteral yo'l orqali qabul qilish
107. Teri orasiga inyeksiya qilish
108. Teri ostiga inyeksiya qilish
109. Mushak orasiga inyeksiya qilish
110. Vena ichiga inyeksiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.O'. Zokirova, D.O'.To'xtamatova, S.A.Mirzaboyeva
"Hamshiralik ishi asoslari" Toshkent-Ilm-Ziyo-2017 yil
2. R.K.Solixo'jayeva- "Hamshiralik jarayoni" O'qituvchi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2015 yil
3. A.Gadayev, M.X.Alimova, X.S.Axmedov, S.Q.Nazarova,
R.K.Salixo'jayeva, L.X.Musajonova "Umumiy amaliyot hamshiralari
uchun amaliy ko'nikmalar to'plami" Toshkent "Muharir" nashriyoti 2016
yil
4. Q.S.Inomov "Hamshiralik ishi asoslari" O'zbekiston milliy
ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2009

Internet saytlari

1. www.medical.uz
2. www.utube.uz
3. www.ziyonet.uz

S.Sh. Joniyev., H.A. Xayrullayeva., R.A. Bozorova

HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN AMALIY KO'NIKMA VA MUOLAJALAR

O'quv qo'llanma

Guvohnoma raqami: G/000397-2025

Nashriyot litsenziya raqami: 143413

“SAMARQAND” nashriyoti

Mas'ul muharrir — Sanjar JONIYEV

Musahhih — Anvar UMRZOQOV

Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV

Sahifalovchi — Dilshoda ABDIAXATOVA

Dizayner — Davron NURULLAYEV

“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.

Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.

Samarqand shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 3-uy.

Bosishga 26.02.2025 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 7

Bichimi 60x84^{1/16}. “Times New Roman” garniturası. 10 bosma taboq.

Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 104/2025

Tel/faks: +998 94 822-22-87, e-mail: sarvarmexrojbaraka@gmail.com

